



*Hakim Nazir*

*Nomi  
chiqmagan  
xotin*




*Hakim Nazir*

*Nomi  
chiqmagan xotin*

*Hikoyalar*

Uchinchi nashri



TOSHKENT  
«O'ZBEKISTON»  
2021

UO'K 821.512.133-3  
KBK 84(50)7  
N18

To'plab, nashrga tayyorlovchi:

**La'lixon IGAMOVA**

O'zbekiston xalq yozuvchisi, iste'dodli adib Hakim Nazir o'nlab hikoyalar, qissalar, pyesalar, ocherklar muallifidir. U badiiy asarlarida – ular xoh hikoya, xoh bolalar uchun qissalar bo'lsin, hamma-hammasida insonlardagi ma'naviy-axloqiy fazilatlarni ardoqlashga, ulug'lashga intilgan. Uning o'nlab kitoblari rus, qozoq, qirg'iz, turkman, tojik, gruzin, arman, ukrain, belorus, latish, litva, eston, nemis, fransuz, ispan, bulg'or, chex, mo'g'ul tillariga tarjima qilingan

«Hikoyalar xazinasi» rukni ostida «Nomi chiqmagan xotin» kitobiga adibning eng sara hikoyalari jamlangan bo'lib, ushbu hikoyalarda turli xarakterdagi insonlarning taqdiri, kechinmalari, o'y-fikrlari, voqea-hodisalar o'ziga xos san'atkorona tarzda hayotiy tasvirlangan. Taqdim etilayotgan hikoyalarda o'sha davr ruhini saqlab qolish maqsadida shaharlar va atamalar nomi asliyatga asosan qoldirildi.

Mazkur hikoyalar to'plami barcha yoshdagi kitobxonlarga mo'ljallangan bo'lib, kitob javonlariga eng yaxshi tuhfa bo'ladi, degan umiddamiz.

**Abduilla Qodiriy nomidagi**  
**viloyat AKM**  
INV № 2023/17-6

ISBN 978-9943-28-439-5

© H. Nazir, 2015, 2018, 2021

© «O'zbekiston» NMIU, 2015, 2018, 2021

## ODAMNING QADRI

**V**alivoy yo'ldan adashgandi... Notanish so'qmoqqa burilib, bora-bora to'qayga kirib qoldi. Kechki shabadada shildiragan qamishlar uning yurishiga xalal berayotganday bo'lar, har qadamda etigi shalop etib suvga botardi. Unga sari qurbaqalarning vaqirlashi kuchayar, chigirtkalar ninachilar qulog'i ostidan vizillashib o'tar, ko'ziga chivinlar sanchilganday bo'lar, og'zi-burniga qamish to'zg'oqlari urilardi. Valivoyning ta'bi tirriq bo'la bordi.

Birdan qamishlar qattiqroq shitirlab ketdi. O'n qadamcha naridan chiyabo'ri ko'zlari yonib, jar tomonga pizillab o'tdi. Valining o'zi ham jarga qulaganday yuragi shuv etdi, a'zoyi-badani bo'shashib, orqasidagi qopi tushib ketayozdi. Shohi belbog'iga osig'liq guldor qinli pichog'iga beixtiyor qo'l uzatdi. Shunda xuddi birov: «Bitta mushukka-ya! O'zingni bos, Valivoy! Seni kim aytadi polvon deb! Sazoyi kishi bemahalda cho'lga chiqsin. Issiq o'rningni sovitib nima qilarding, chaqirilmagan mehmon!...» – deb saza berayotganday yon-veriga qarab oldi. Valivoy Mirzacho'l bozoridagi samovarchi oshnasining so'ziga kirmaganiga pushaymon yedi. «Buguncha turavering, joy bemalol», dedi-ya! Kalondimog'liging qolmadi-da, polvon! Hamon musofirlikni bo'yningga oldingmi, egardan sal tushgin-da!...»

Valivoy qamishzordan chiqib, zovur yoqalab ketayotganda kun og'ib, oqshom pardasi tushayotgan edi. Shu borishida jingirtob yantoqlar o'sgan, qarich-



day-qarichday kaltakesaklar o'rmalagan sho'rxok yerga duch keldi. Uning taajjubi oshdi. «O'sha-o'sha-ku? Qani u Zarqaynar deb ta'riflangan ekinzorlar, bog'lar? Gazetada yozishi boshqachaydi-ku? Yo odamlar qiziqtirish uchun atayin maqtadimikan? Quruq aravani opqochish odati yo'q edi-ku bojamning...»

Valivoy shu alpozda garangsib, qoqila-suqila xiyla yo'l bosgan edi, zovurning nariyog'ida uzoqdan ko'ziga milt-milt sarg'aygan dala ko'rindi. «Nima bo'ldiykin u?.. Xuddi somon sochib qo'yganga o'xshaydimi?..» Kutilmaganda o'sha tarafdin tarsi sillagan o'q uzildi. Valivoy og'ir chayqaldi. «Ha, ovchi... qirg'ovul borga o'xshab qoldi... Qirg'ovul go'shti yemaganimga ham ko'p bo'ldi...» Birdaniga shirin xayol bo'lindi. O'q uzilgan sariq dala ustida o't o'chirgandagiday quyuq tutun ko'tarildi. Vali polvon vahima ichida tikilib turgan edi, quyunday qora tutun siyraklasha bordi-yu, parchalangan bulutlarday sochilib, son-sanoqsiz qushlar galasiga aylandi. Valivoy hech narsa anglayolmadi. Negadir oyog'i o'sha yoqqa tortdi. Zovurning ensiz yeridan hatladida, sariq dala tomon yurdi. Bu sholipoya edi. Chekkaroqdagi chayladan oltmish yoshlardagi, ammo ko'zlari va harakatlari tetik, echkisoqol, qotmadan kelgan, yelkasiga qo'shog'iz miltiq osgan bir chol chiqib keldi. U Valivoy bilan xuddi qadrdonlarday quyuq omonlashdi-yu, orqasidan qopini oliboq, chaylaga boshladi.

– Rahmat, otaxon, bafurja... – dedi Valivoy va do'stini yo'qlab Asakadan kelayotganini bildirdi.

– A, labbay?.. – O'ng qulog'i og'ir chol chap qulog'ini tutib tingladi-da, – sadag'ang ketay. Mundoq xat-xabar qilmabdilar-da, chiqib kutib olardi. Kuni



kecha Beshariqdan ikkita mehmon keluvdi, stansiya-ga mashina chiqardi. Ha, bizda taomil shunaqa, sada-g'ang ketay.

– Hechqisi yo'q, o'zimiz ko'rgan joy, – dedi Valivoy ust-ustiga xat, telegramma yuborsa ham javob olol-maganini aytishga or qilib.

Chol, unday bo'lsa nechuk to'g'ri Zarqaynar yo'li qolib, bu yoqqa ketdilar, deganday ajablanib boq-di. (Sholipoya atrofidagi to'qay ilgarigi Sho'rqaynar qishlog'ining qoldig'i edi).

– Xolmirza brigadirga bo'lsa, xiyla yuriladi. Yax-shisi bu kecha chaylada mehmon bo'la qolsinlar, – dedi astoydil chol. – Otamlashamiz. O'zim ham chu-g'urchiq qo'riy-qo'riy zerikib o'tirgandim...

Cholning singishimli va odamoxunligi Valivoyga yoqib tushgandi. Shunday bo'lsa ham:

– Oldin do'stimnikiga bormasam, xafa bo'lar, otaxon. Ertaga, albatta kelaman! – deb so'z ber-di. Og'irlik qilgan qopini chaylada qoldirdi-da, chol ko'rsatgan dala yo'liga chiqib oldi...

Sal yurgach, manzara o'zgara bordi: to'qaydan asar ham qolmay, uning o'rnini ikki yoqqa keng qa-not yozgan paxta maydoni egalladi. Qarshidan esa, g'uj-g'uj daraxtlar, ular tagidan bir-biriga mingash-ganday oq uylar o'sib chiqib, Valivoyga shaharni esla-tib yubordi: «Qayerga kelib qoldim-a?»

Paxta xirmoniga yetib borganda, qosh qorayib qolgan, paykallarda terimchilar siyraklashgan, ot-aravalar va mashinalar guldur-gulduri tovsilgan, o'spirin tarozibon so'nggi etak va qoplarni qabul qi-lib olmoqda edi. O'spirinning yonida chakka sochiga qirov tushgan o'ttiz besh yoshlardagi qoracha yigit bloknotiga nimadir yozayotgandi. Uni ko'riboq, Vali



polvon etigini g'irchillatib oldiga bordi, quchoqlash-guday ikki qo'lini cho'zdi. Yigit esa chekib turgan pa-piroso tutuni orasidan polvonning sariq xrom etigiga, bilagidagi kumush soati, shohi belbog'i va dandon sopli pichog'iga beparvogina ko'z tashlab oldi-da, di-mog'ida salomlashdi va yana avvalgi vaziyatda ishini davom ettiraverdi.

Uncha-muncha narsani sirtiga yuqtirmaydigan Vali polvon bu kutilmagan muomaladan xijolat chekkanini sezdirmay, qimtinibgina atrofida qilarga ko'z tashlab oldi. «Ko'zini shira bosibdi. Ichidan pishgan odamovi...» – degan fikr kechdi dilidan. Polvon, xuddi birovning kiyimini kiyganday, qovusholmasdan turardi. Xolmirza unga parvo ham qilmay, bloknotini kolo-menka kitelining ko'krak cho'ntagiga tiqib, tarozibon-ga ko'z qisdi.

– Uch yuz kilo qo'shilibdi-a, bugun?

– Kechagi kelgan mehmonlar tuzuk chiqdi, – dedi o'spirin og'zi qulog'iga yetguday ishshayib. – Ishga o'ch ekanlar deng, tong otmasdan bola-chaqalari bilan chiqishibdi...

– Mehmonga kelishgan emas-da, ular! – dedi Xolmirza, so'ng polvonga qarab: – Xo'p, ko'rishamiz, – dedi-yu nariroqda kishnab turgan to'riq otga sho-shilganicha minib, choptira ketdi. Valivoy serraygan-cha qoldi.

– Dam olib turing, mehmon aka, halizamon kelib qoladilar. Yotoqlari ham shu yerda, – dedi tarozibon, uni hamma-yog'iga qamish qoplanib, tagiga ham qamish bordon to'shalgan va burchagiga ko'rpa-yosti-q taxlangan shiyponga taklif etib.

Polvon xirmonga yoyilgan paxtadan bir changal oldi-da, unga etigining changini arta-arta, shiypon chetiga o'tirib, so'radi.



– Uka, brigadiring qayerga ketdi?

Valivoyning qilig'idan qovurg'asi qayishib turgan o'spirin, ichidan to'qidimi, chindanmi, dedi:

– Punktga, bugun topshirgan paxtamiz ichidan bir qism iflos chiqibdi. Shuning uchun bir qop paxtamizni qabul qilmay qo'yibdi.

Valivoy ichida: «O'bbo' o'nbir-e, tuzlading-u» deb, qo'lidagi paxtani bir chetga itqitdi. Tarozibon ham indamay kelib, paxtani oldi va puflab-puflab changg'ubordan tozaladi-da, xirmonga tashladi.

– Bir qism paxta uchun-a? – dedi Valivoy o'zini tutolmay.

– Bo'lmasa-chi! O'sha paxtani kim iflos qilganini aniqlamaguncha qo'ymaydiyam-da. Ha, brigadirimiz shunaqa.

– Aniqlagandan keyin nima qiladi?

– Ta'zirini beradi. Tag'in chatoqlik qilsa, brigadadan dumini tugadi...

– Ha, ha, brigadiring berahm ekan-da, a? – dedi o'smoqchilab Valivoy.

– Ha! – dedi o'spirin va o'z javobidan o'zi qanoatlanmay, yana qo'shib qo'ydi. – Kim g'irromlik qilsa, o'shanga berahm... To'g'ri ishlagan odamni-chi, gazetada ham maqtaydi. Mana...

O'spirin shiypon devoridagi fanerga yopishtirilgan «Jangovar varaqa»ni ko'rsatdi. Uning o'rtasida gazetadan qirqib olingan bir maqola ham bor edi. Sarlavhasi Vali polvonga tanish ko'rindi, yaqiniga borib tikildi... Ha xuddi o'sha: «Zarqaynar...» sarlavhasi ostida «Mirzacho'ldagi «Zarqaynar» jamoa xo'jaligining ilg'or brigadiri Xolmirza Qoraboyevning aytganlari», deb qo'yilibdi. Buni o'qiganiga o'n kuncha bo'ldi. Shu o'n kundan buyon uning xayolini band





etgan, uni bu tomonlarga sudrab kelgan narsa ham...  
Yo'q, uni sudrab kelgan narsa bugina emasdi...

– Ko'rdingizmi, – dedi o'spirin, maqoladagi nomlarga ko'z yugurtirib. Valivoy maqtalغان nomlarni o'qidi-yu, bari bir, hech qaysisini tanimadi.

– Mana bunisi... biz! – dedi oxri o'spirin, Jumahev degan familiyada to'xtab. U yaqinda maktabni bitirib, paxtakorlik kasbini jon-dilidan egallayotgan o'smirlar qatori maqolada sanab o'tilgandi. Vali polvon o'spirinning ko'ngli uchungina yelkasiga qoqib qo'ydi. Polvon bir chekkasi o'spirinning maqolaning davomini o'qimaganidan ham xursand edi. O'qiganda bormi, undagi «Ucharlar, nomardlar» degan ikki so'z polvonning yuragidagi tirnalgan yeriga yana tuz sep-gan bo'lardi.

Xolmirza maqolada o'shanaqa odamlarning nomini ko'rsatmagan bo'lsa-da, negadir polvonga bu ikki so'z qattiq tegib ketgandi...

Tag'in gap aylanib, o'spirin Xolmirza maqtoviga tushgan edi, Vali polvonni esnoq bosdi. Choy so'radi. O'spirin paqirdagi yaxna ko'kchoydan piyolada uzatdi. Polvon bir ko'tarishda shimirdi-yu, o'rnidan turib, atrofga alangladi. Qorong'ilik pardasiga o'ralayotgan dalaning uzoq-yaqinidan kelgan g'o'ng'ir-g'o'ng'ir tovushlarga quloq soldi. Xolmirza jo'nagan tarafga ko'z tashladi, yilt-yilt chiroqlar yongan qishloq markaziga tanish uylarni axtarganday, uzoq tikildi, besh-o'n qadam ilgariladi. Shu ko'yi u shiypondan jilib, hali o'zi kelgan arava yo'liga tushib qoldi. Keyin, nimanidir o'ziga ma'qullab, qo'lini keskin siltadi-yu, qorong'ilik qo'yniga sharpaday singib ketdi...



Qo'riqchi chol chayla tomida miltiqni quchoqlagancha serjilva yulduzli osmonga tikilib, xayol surib yotardi. Pastdan eshitilgan oyoq dupuri va yo'tal tovushi uning xayolini bo'ldi. U dik etib turdi-yu, tik shotidan ikki sakrashda pastga tushdi: qarshisida qorayib turgan bahaybat gavdani ko'rib, miltig'ini mahkam qisdi.

– E,e, mehmon... Kelsinlar, kelsinlar...

– Topolmadim, – dedi ko'ngil xiralikni iloji boricha yashirib polvon, – eshigi qulf...

– E, attang!... Xirmonga bormabdilar-da, Kenjaboyim topib berardi balki...

Valivoy, Kenjaboy kim va nima ishda deb surishtirmay ham qo'ya qoldi. Shu o'rtada nos otib olgan chol «s»ni «sh» qilib gapira ketdi:

– Hechqishi yo'q, shadag'ang ketay, erta uchrashish... Xafa bo'lsha, Jumaboy otam qo'ymadi deng. O'zi ham o'g'limday bot-bot yo'qlab turadi... Qani, qani shadag'ang ketay...

Chol qora chiroqni yoqdi, chayla to'riga ko'rpacha solib, mehmonni o'tqizdi. O'z odaticha, avval dasturxonga sopol tog'orachada qimron qo'ydi-da, yog'och qoshiqda shopirib-shopirib, ikki kosaga suzdi. Vali polvon burchakda turgan qopidan «mozor bosib kelgan» patir bilan turshak, anor olib qo'ydi. U qimizday o'tkir qimrondan bosib-bosib ikki kosani shimirdi, «bay-bay»lab do'rdaygan lablarini chap-chap yaladi, qo'chqor shoxiday qayrilib ketgan mo'ylovini himrab-himrab oldi-da, biroz nafasini rostlagach, dilgirlingi sal yozildi. Ne-ne umidlar bilan qilgan safarining ko'ngilsiz tugaganidan lom-mim demay, cholning hol-



ahvoli, cho'l ob-havosi, ovchilik, bedanadan boshqa yana qaysi parrandaning go'shtini palovxonto'raga bossa maza bo'lishligi va shu kabi anchayin narsalar ustida suhbatlashib o'tirdi. Qimronning xushkayfligimi, cholning benihoya samimiyligimi, polvonning ko'nglini eritdi. Necha bor dilidagi tiliga qalqib keldi-yu, arang o'zini tiydi. Chigirtkalarining chirillashi, sholipoyadagi qurbaqalarning ko'ngilni ozdiruvchi vaqir-vuquri orasida mototsiklning pat-pati eshitildi. Oydinda to'qay tarafdin boyagi o'spirin chiqib keldi. Polvon unga qarab, baqrayib qoldi.

- Indamay ketib qolibsiz-da, polvon aka. Otamning oldiga kelishingizni aytmabsiz ham, - dedi o'spirin astoydil gina qilib. Uning «polvon aka» degani Valivoyini hayratga solgan edi. Chol voqeani anglolmay turardi.

- Axir... - dedi duduqlanib Vali polvon, - o'zingizni yaxshi tanitmabsiz-da...

- Siz ham-da... Tanitmasangiz ham tanib oldim baribir... - Kenjaboy qattiq xaxolab, polvonning kayfini uchirdi. Avvaliga qanday taniganini aytib, o'rtadagi tugunni yechib yubordi.

Polvon qilt etib yutindi. Og'ir nafas olib xo'rsindi va:

- Sizdan yashirib o'tirmayman, - dedi Jumaboy otaga yuragini birvarakayiga ochib. - To'g'risi, hech qayerda bundoq behurmat bo'lmaganman. Qayerga borsam, soyamga ko'rpacha solishardi. Bojamdan ko'rib turgan oqibatim bu...

Chol uni yupatish uchun so'z axtararkan, polvon sarguzasht so'zlashga tushdi: Farg'ona vodiysining ko'p yerlarini kezgani, qancha-qancha do'st-yor orttirgani, sayr-tomosha qilib, xo'p armondan chiqqanini



aytdi-yu, o'sha joylarga nima sabab bo'lib borganini gapirmadi. Axir: «Yozi bilan tekin sayl qidirib shahar va qishloqlarni aylandim, kurash tushdim. Yiqitganimda etak tutib pul yig'dim, yiqilganimda nomusga chidolmay, yangi joyni ko'zladim», deyishga qanday tili borsin!.. Ba'zan xilvatda qimor o'ynab bor-yo'g'ini bergani, ba'zan esa omadi kelib qo'yni-qo'nji pulga to'lganini ulfatlardan ham ko'pi bilmasdi. Umrida Mirzacho'ldan boshqa yoqqa chiqmagan cholga polvon ko'p muqaddas yerlarni ziyorat qilgan tabarruk odamday ko'rinib ketdi...

– Obbo sadag'ang ketay-ey, jahongashta ekansizov!.. Mendan so'rasangiz... – Chol ham sarguzashtini boshladi. U jamoa xo'jaligiga aylantrish vaqtida boy og'asi bilan arazlashib Chimkentdan kelib qolgani, bu yerda joy qilib, yigitlik kuchini qo'riq ochish, paxta ekishga sarflaganini, ko'rgan qiyinchilik va rohatini bir boshdan eslab ketdi. Xolmirza bilan bundan o'n ikki-o'n uch yil burun topishgan ekan. – Katta urush oppon-soppon bo'lib, yigitlar qayta boshladi. Kenjamdan kattasi – rahmatlik Boltaboyim, – chol bir entikdi, tovushi qaltiradi, – kelmadi. Girmon tuprog'ida shahid bo'ldi. Qora xat oldik, onasi hech chidolmadi, «tez elatimizga qaytib, aza ochamiz», deb turib oldi. Men bo'lsam hech yoqqa jilolmadim. Axir, o'g'ilginamning peshona teri to'kilgan tuproqdan qanday qilib ko'ngil uzayin. Bu tuproqning har qismi, har giyohi unga aziz edi-ku. Bu yerdan jilolmaganimga bir chekkasi Xolmirza sabab bo'ldi. Ha, sadag'ang ketay, ajablanmang... Ayni g'am-g'ussaga to'lib, qilar ishimdandan adashib yurgan kezlarimda Xolmirza keldi. U Boltaboy bilan uch yil bir safda kurashgan, o'lganda o'ligini ham yovga bermay o'z qo'li bilan ko'mgan. U



do'stining vasiyatini oxirigacha bajo keltirgan, rozi-ri-zolik tilab yozgan nomasini menga yetkizgan... «Mabodo, qaytib bormasam rozi bo'ling, farzandlik burchimni oqladim, qadrdon cho'limizni shu yerda turib qo'riqladim. Sizdan iltimos, Sho'rqaynarda ochgan yerimizni o'zingiz kengaytiring, birga ekkanihol- larimizni o'zingiz hosilga kiriting. Bu ishda sizga madad beradigan do'stim, do'stlarim bor», – debdi nomasida o'g'lim...

Jumaboy ota keng yaxtagining chap qo'ltig'idan qizil lattaga ehtiyotlab o'ralgan tumorcha shaklidagi qog'ozni chiqardi-da, polvonga uzatdi. Yillar o'tib, ota ko'kraginging haroratida erib nursizlangan xatga tikilarkan, polvonning ko'z qorachiq-lari kengayib ketdi.

– Ana o'sha do'stlaridan eng vafodori Xolmirza ekan, baraka topkur, qiyin vaqtlarda menga suyan-chiq bo'ldi. Ota-bola tutinganimiz ham shundan, – deb qo'shib qo'ydi Jumaboy ota.

Polvon otaning cho'l bo'ronlarida pishib, taram-taram bo'lib qoraygan betlari, serajin peshonasi, siyrak kipriklari ostida o'tkir chaqnagan ko'zlariga tanirmikinman, deb sinchiklab qaradi. Yo'q, tanimadi. Polvon bultur kelganda ota yaylovda ekan.

Jumaboy ota hikoyasi polvonga bir yangilikni ochdi. Polvon, Xolmirza urushdan qaytganda onasi vafot etganini bilib, uyida turolmagan-u, Asakadan bosh olib ketgan deb bilar va o'zicha bojasini noshukurchilikda ayblab yurardi. O'shandan beri Xolmirza polvonni necha marta chaqirdi-yu, polvon «sahroyi kabirda nima huzur topdim!» deb nazari ilmay yurdi. Ammo, undan urib, mundan chiqib topadigan chakana daromadlari ozayganidanmi yoki boshqa sababdanmi, bultur terim pallasida keldi. Xolmirza

bilan xotini uni yaxshi kutib olishdi. Ikki kun mehmon bo'lganidan so'ng, «men ham shu yerda ishlasham», deb havas bildirdi. Hat-savodli bo'lgani uchun uni Xolmirza xursandlik bilan o'ziga yordamchiday qilib oldi. Yangi kelganlar qatori polvonga ham jamoa xo'jaligidan joy, don-dun va pul olib berdi. Polvonga sal jir bituvdiki, yo'rg'asi chiqib qoldi. Xotinim bilan onamni olib kelaman, deb kech kuzakda jo'navorganicha, dom-daraksiz yo'qoldi. Uning jatiga jamoa xo'jaligi katta-kichiklari oldida Xolmirzaning yuzi shamgin bo'lib qoldi. Keyinroq polvonning ba'zi bir qiliqlarini bilgach, Xolmirza undan qo'lini yuvib, qo'ltig'iga urgandi.

Polvon esa, bulardan bexabar, bojasining beoqibatligidan nafsini koyib, o'z qadriga achinmoqda. Ammo endi undan cholga shikoyat qilishni behuda bilib, alamini ichiga yutganicha ertangi uchrashuvni kutmoqda edi. Chol esa, to ko'zlari uyquga ilinguncha Xolmirzaning azamatligi, odamshavandaligini ta'riflashdan og'zi bo'shamadi. Cholning har bir maqtov so'zi polvonga kaltak bo'lib tushmoqda edi...

3

Xolmirza Vali polvonga qilgan muomalasini bildirib qo'yib, xotinidan baloga qoldi. Tuni bo'yi er-xotin g'ijillashib chiqishdi.

– Tavba-ye, – dedi jig'ibiyroni chiqib Zuhra. – Aqalli bir og'iz eshikka boring demasangiz-a! Odamgarchilik bo'ldimi shu ham!..

– Odamgarchilik emish! – Xolmirzaning ensasi qotdi. – O'zi odam bo'ldi-yu, men qadrlamadimmi?

– Bilaman, o'zini-ku xush ko'rmaysiz. Axir opam eshitsa, xafa bo'lmaydimi? Uning hurmati yo'qmi, qu-



daxolamning hurmati yo'qmi? Ko'rishmaganimizga, axir, necha yil, necha oy... – Zuhraning o'pkasi to'lib, gapini aytoilmadi.

Xolmirzaning tili qichib keldi-yu, xotinining char-sillab turganini ko'rib, o'zini og'irlikka soldi. U har yilgi odaticha, bu yil ham yozda qavmi qarindosh-larini ko'rib, onasining qabrini ziyorat qilgani Asa-kaga borgandi. Shunda Valining anchadan beri xo-tinini tashlab qo'yib, kasalmand onasiga ham suv tomizmay, boshi oqqan tomonda yallo qilib yurgani-ni eshitgandi. Vali bultur cho'ldan beruxsat jo'nagani, to'g'rirog'i, qochvorgani ma'lum bo'lgach, tanish-bi-lishlari oldida shumshuk bo'lib, o'z tumaniga sig'may qolgan. Tuzukroq ishga joylasholmagan. Cho'lga qay-tib kelishga esa, xotini qistasa ham, o'zining yuragi betlamagan. Cho'lning qishini o'ylasa, yuragi orqasiga tortarkan, ko'ziga faqat sovuq qamish kapa, tizzasi-gacha botib ketadigan sho'rxok yer, kecha-yu kunduz tuyaday o'kirib badanga ignaday sanchiladigan qahr-li izg'irin ko'rinib ketarkan... Goho-goho o'z tumani-ga borganda tanishlariga cho'ldaman derkan. Hatto shundoq deb uyidagilarning ham ko'ziga cho'p solib yurgan. Bu sirdan voqif bo'lgan xotini Fotima nomus-ga chidolmay, otasinikiga ketib qolgan. Qaynanasi yolg'izlik, diqqinafaslikdan yurak o'ynog'iga duchor bo'lgach, Fotima yana qaynanasinikiga qaytib kelib, artelga ishga kirgan. U singlisiga har zamonda yozgan xatida eri haqida lom-mim demas, o'zi xohlab tekka-nining sayoqligi va bag'ritoshligidan nolishga, ochig'i, or qilardi.

Bu yoqimsiz gaplarni ichiga yutib kelgan Xolmir-za, hozir ham kuyinchak xotinini battar kuydirgisi kelmay, hazilga oldi:



– Ko‘p ichikmay tur, xotin. Halizamon cho‘zilib kirib ham kelar...

Xolmirza saroyda to‘riqni egarlab turganda, Jumaboy ota polvonni boshlab keldi.

– Mana, o‘g‘lim, mehmonni olib keldim, – dedi chol, go‘yo o‘rtada hech narsa bo‘lmaganday. – Tunda eshigingni topolmay yurgan ekanlar, chaylada qo‘ndirib, mehmon qildim. Sadag‘ang ketay, sog‘inib kelibdilar. Ha, qarindosh degan shunaqa oqibatli bo‘ladi-da...

Xolmirza, ensasi qotib turgan bo‘lsa ham, ota tufayli bojasi bilan kechagidan quyuqroq so‘rashdi.

– Sizlar eshikka borib turinglar, men dalani bir aylanib kelay.

Xolmirza xayal o‘tmay qaytdi. Ammo dasturxon ustida uncha ro‘yxush bermagani uchun, polvon gapni nimadan boshlashni bilmadi. O‘zini sipo tutmoqchi bo‘lsa ham, shinamgina uyning oppoq devoriga solingan gullarga, yangi po‘lat karavot tepasidagi kiyik suratli gilamchaga, ochiq qo‘sh derazadan ko‘ringan farg‘onacha baland so‘ridagi sap-sariq husayni, sharob tusli toifi uzumlarga ko‘zi o‘ynab turardi. Ayniqsa, uy to‘ridagi stolda turgan televizor uning diqqatini ko‘proq tortdi. Ichida derdi: «Oynayi jahon» degani shumikin-a? Tavba, otang ko‘rganmi bunaqa davlatni, Xol. Uylanganingda peshonangda qorong‘i hujra-yu, bitta eski namating bor edi. Yoki omonatmikan-a bular? Undoq desam, qo‘shnilarining uyi ham unikidan qolishmaydiganga o‘xshab qoldi...».

Jumaboy ota suhbatga jon kiritish uchun, kecha kutib olingan beshariqlik mehmonlarning kimligi, qayerda joylashtirilgani ustida gap aylantirib





ko'rdi-yu, baribir qovushmadi. Xolmirzaning javoblari kalta bo'ldi.

- Necha kun turmoqchilar, mehmon? - dedi kutilmaganda Xolmirza, begonalarcha mulozamat bilan. Tegirmon toshiday og'ir cho'kib, jizzali nonga uzum qo'shib tushirayotgan polvon, xuddi biron yeri bexos sanchib ketganday bir chayqalib oldi-da, Xolmirzaga qo'yqarash qildi.

- Menmi?.. - dedi polvon tamshangancha va shu yerda qolib ishlashga ko'ngli borligini birdan aytishga bo'yni yor bermay, o'ylandi. - Ko'ramiz-da...

- Biron joyda xizmat qilyaptilarmi?

- Ha... endi bo'shamoqchiman...

- Nima qilasiz tag'in odamni laqillatib? - Xolmirza mulozamatni yig'ishtirib, o'z odaticha dangaliga o'tmoqchi bo'ldi. «Yana o'sha maqsadda kelgandirsiz? Bizga xombol emas, sherik kerak» demoqchi bo'lgan yerida, tiliga boshqa so'z kelmadi. - Ko'nglingizda, cho'ldagilar hech narsadan bexabar, gumroh deb o'ylaysiz, shekilli? Qayerlarda, nimalar qilib yuribsiz, bir yildan beri? Kasalni yashirsang, isitmasi oshkor qiladi.

Hozir Xolmirzaning o'z bojasini ko'rgani ko'zi, otgani o'qi yo'q edi, shuni sezib qoldi polvon. Sezgani bilan shu tobda, ayniqsa, hurmatli qariya huzurida ochig'iga ko'chishga tili ojizlik qilmoqda edi.

Jumaboy ota bo'lsa, chiqib ketishni ham, suhbatga qatnashishni ham bilmay, ikkilanib o'tirardi. Ikki qarindoshning munosabatidagi sovuqlikning boisini anglab yetolmasa-da, oralarida qandaydir jiddiy nizo borligini payqamoqda edi.

- Omadi gap tuzuk, o'g'illarim, - dedi pirovardida chol o'rtadagi o'ng'aysizlikka barham berish uchun. -



Ikkovingiz boja ekansiz. Bamisoli biringiz aka, biringiz uka. Ko'ngildagi bor chigalni yozganingiz yaxshi...

Xolmirza o'zining yuvosh, ammo o'tkir va sinovchan ko'zlarini bojasining so'ljaygan basharasiga, olif-ta, burama mo'yloviga tikkancha javob kutardi.

- O'tgan gapga salavot, uka, - dedi polvon, xuddi xumga tushgan ariday g'o'ldirab. U Xolmirzaning butun ginasi bultur ketib qolganimdan, debgina o'ylayotgan edi. - Endi ishlamoqchiman... Shu jamoa xo'jaligida...

- Shunaqami?.. - Xolmirzaning dilidan «o'roqda yo'q, mashoqda yo'q, xirmonda hozir» degan fikr kechdi-yu, o'smoqchiladi: - Jamoa xo'jaligida ishlash ko'nglingizda bo'lsa, Asakada ham jamoa xo'jaligi ko'p-ku?

- Shu jamoa xo'jaligida! - dedi yana qaytarib polvon.

- Bu jamoa xo'jaligida ishlash qiyinroq-da, - dedi Xolmirza kinoya ohangida. - Sharoit og'ir. Tezda yuzaga chiqolmay, urinib qolarmikansiz. Mana, boboy aytsinlar, hamma narsani yangitdan tiklashga to'g'ri keladi.

- Uy-joydan tortib, ekin-tikingacha, haq gap, - deb tasdiqladi Jumaboy ota.

Xolmirza yana ochibroq aytdi:

- Bu joyda yer bilan bellashasiz, qarindosh. Osonlikcha nom chiqarib bo'lmaydi. Maslahat bermayman, o'zingizni koyitmang.

- Astoydil kelganman, ishonavering uka! - dedi polvon, qasam ichgandek uqtirib.

Jumaboy ota «sazasini o'ldirma» deganday Xolmirzaga imo qildi-yu, ammo o'zi o'rtaga sig'magan-

day, asta siring alib chiqib ketdi.

Abdulla Qodiriy nomidagi

2-Hakim Nazir

viloyat AKM

17

INV № 2023/176



- Xo'p bo'lmasa, - dedi sal zapti bo'shshib Xolmirza, - raisga arz qilib ko'ring...

Vali polvon hamon katta boshini kichik qilgisi kelmay, dedi:

- Raisga o'zingiz tushuntirasiz-da, uka. O'z brigadangizga deb...

- Avvalambor, - dedi zardasi qaynay boshlagan Xolmirza, - mening brigadamda sizbop ish yo'q. Unutmang, rais oldida men sizning kafillingizni olib bo'lganman!.. Undan keyin, - dedi yana ham tutaqib va ko'tara savdo qilib. - Onaizorini, vafodor xotinini qadrlamagan insondan nima karomat kutib bo'lardi!..

Suyak-suyagigacha borib yetgan bu ters javobni polvon «Xolmirzaning o'jarligi, bemehrligiga» yo'yib ko'rdi. Biroq, ich-ichidan to'lqin urib kelgan tuyg'u unga: «Holingni bilib qo'y, butun ayb o'zingda!» deb turganday bo'lardi. Bu anglashilmas tuyg'u zo'raya borib, uning toshday mudragan asablarini va ongini qamrab oldi. Go'yo g'aflat uyqusidan uyg'onganday, ko'zlari katta-katta ochilib Xolmirzaga - uning g'azab va ayanch to'la ko'zlariga yolvorish bilan boqdi. U o'zining qirq yillik umrida qanchadan qancha oshna-og'ayni orttirdi, ulfatchilik qildi, do'stlashdi, sirlashdi, hech qachon oshna-og'aynilaridan birontasi unga Xolmirza kabi dilni nashtarday tiluvchi so'z aytolganmasdi. Nega Xolmirza aytdi? Kelib-kelib uning dushmani Xolmirza bo'ldimi?.. Polvon bu savoliga shu lahza javob topishdan ojiz edi. U ham bir og'iz so'z bilan Xolmirzani lohas qilib qo'yishga qodir ediku-ya, unda nima bo'ladi? Butkul yuz ko'rmas bo'lib ketishga to'g'ri keladi-da. Axir, birdan bir panoh tortib kelgan kishisidan mahrum bo'lib qolsa... yana kimga borib sig'inadi?



Xolmirza sarosimaga tushgan bojasining hozirgi yurak g'alayonini payqab turardi-yu, unga asti yon bosgisi yo'q edi. «Haliyam sen chuchvarani xom sanab yuribsan. Shuncha vaqt odamlarning ko'ziga cho'p solib kelding. Yengil yo'l bilan omad kelishini kutding, omad kelmadi. Qaytaga ta'na-tovvalarga qolib, yuzing shuvut bo'ldi, yegan-ichganing burningdan chiqdi. Bu ham holva, tez es-hushingni yig'ib, halol mehnatga qayishmasang, batar baxting qora bo'ladi, holingga maymunlar yig'laydi. Agar tag'in qarindoshim panohida vaqtincha kun ko'rib turay-chi, deb kelgan bo'lsang, xomtama bo'lma...» Xolmirzaning tiliga shular keldi-yu, o'lganning ustiga tepgan bo'lmasin deb, indamadi. Shaxt o'rnidan turdi. Bu bilan «bo'ldi, izzating bitdi» demoqchi edi, polvonning fahmi yetmadi. Uning ketidan oshxona tomon bo'ynini cho'zdi. Dimog'iga sho'rva hidi kirib, tupugini yutdi. Na Xolmirza va na xotini qaytib kirmagach, polvon noiloj qo'zg'aldi.

Qamish-chetan devor bilan o'ralgan chorsi hovli o'rtasidagi gulzordan bir dasta atirgul bilan rayhon uzib chiqqan Jumaboy ota Xolmirzaga bitta gul uzata turib, asta dedi:

– Bugun chap yoning bilan turganga o'xshaysan, buni hidlab, dimog'ingni chog' qil...

Xolmirza iljaydi. Ro'paraga kelib qolgan polvon, menga iljaydi, deb o'yladi-da, paytdan foydalanib va betini sidirib haligi iltimosini yana qaytardi. Xolmirza esa «raisga boring» deganicha chiqib ketdi. Jumaboy ota ham dala yo'lida o'z ketidan ergashib borayotgan polvonga nima deyarini bilmasdi. Ochig'i, endi unda mehmonga achinish bilan birga g'ijinish boshlangan edi. Polvonning esa, o'z bojasidan umidi uzilgan,



yolg'iz shu dilkash, hamiyatli cholga yalinib-yolvorishdan bo'lak iloji qolmagandi. Chol ham Xolmirzaning aytganidan o'zga maslahat ko'rsatolmadi va:

– Xafa bo'lmang, mehmon. Men borib sholimni qo'riyin, chug'urchiqlar talab ketmasin, – deb shoshilganicha jo'nab qoldi...

4

Kechga tomon Vali polvon sillasi qurib chaylaga bordi. Cholning ko'ziga u rangi o'chib, qoni qochgan, semiz lunjlari so'ljayib, qalin lablari battar do'ridaygan, go'yoki necha kun och qolib, bir qavat etidan tushganday ko'rindi. Chol shoshib-pishib dasturxon yozdi. Lanj, kayfsiz, sovuqda junjikkan musichaday karaxt bo'lib o'tirgan polvon birdaniga:

– Bo'ldi endi, ketaman! – deb yubordi. U raisga borgan ekan, rais ham uncha ro'yxush bermay, «mayli qurilishda sinab ko'ramiz» debdi. Bu gap polvonning jon-jonidan o'tib ketibdi. – Ona suti og'zidan ketmagan go'dak ekanmanmi, nimamni sinab ko'radi!

– Ha, nima bo'пти, – dedi ta'na hamda yupatish ohangida chol, – sinaganning aybi yo'q. Eshitganmisiz, sinamagan otning sirtidan o'tma, deydi. Bu yerda katta-yu kichik baravar sinaladi, saragi sarakka, puchagi puchakka ajraladi. Axir, cho'l noni machitning halimi emaski, kim bo'lmasin yeb ketaversa.

– Shunday deysiz-u, ota, odamdan odamni farq qilish kerak-da. Endi bir kamim loy tepish-u, g'isht quyish qoluvdimi!.. – Polvon umrida ozmuncha ish ko'rmagani, qo'lida xati borligi, agar qo'yib bersa, brigadirlikni ham bemalol uddalay olishini uyalmay-netmay pisanda qildi va bu yerdagilar uni nazarga ilish-



mayotganidan nolidi. – Qornimga emas, qadrimga yig'layman...

– Betga aytganning zahri yo'q, mehmon, bunday nolishingiz xato! – dedi chol nafsi qattiq koyib. – Xolmirzaning achitib gapirishi, azbaroyi do'stligidan. Raisning gapida ham nojo'ya yeri yo'q. Nima deyishmoqchi ular? Ishlasangiz el qatori jon kuydirib, halol ishlang deyishmoqchi. Ba'zilar borki, qilar ishining tayini yo'q, da'vosi olamni buzadi. Ha, cho'lda hamma narsa ildiz otsa ham, ucharlar ildiz otolmaydi. Axir palag'da tuxumni tovuq ham ochmaydi-da.

Polvon ko'rinishi sodda bu chol rosa qizisa, har qancha suv sepib ham sovitib bo'lmaydigan po'latday chayir ekanini sezdi, bahslashishdan foyda chiqmasligiga aqli yetdi. Oxiri o'kinib dedi:

– Xom sut emganmiz, otaxon. Ammo odamni muncha oyoqosti qilmasa. Unga qoram yuqib qoladimi! Nahotki, shuncha odam sig'gan brigadasiga men sig'masam!..

– Gap unda emas, yigit, sahromiz keng, bag'rimiz undan ham keng. Sizdaqa polvonlardan son-mingtasi sig'ib ketadi. Ammo, – dedi chol gap uqmas mehmondan andisha qilib o'tirmay, – bojangiz sizdan cho'chib qolganga o'xshaydi. Sutdan og'zi kuygan qatiqni puf-lab ichadi..

Polvon, bu ko'ngilsiz voqeadan tasalli kutgan eng so'nggi kishisining madadidan ham umid uzdi. Sariq chaqalik qadr-qimmatini qolmaganini, kechikib bo'lsa-da, angladi. Ko'lmak suvday loyqalanib yotgan xayoli tiniq tortib, o'ylab ketdi.. O'ylaganda ham, odamlardan chetda, jimjit to'qay og'ushida tanho kezib, o'z-o'zi bilan bahslashib, olishib, kurashib, uzoq o'yladi. Bu uzoqqina hayot yo'lining anchagina qismi unga



g'adir-budir, qing'ir-qiyshiq ko'rindi. Goho dadil, tekis qadam bosdi, goho qoqildi, toyildi, yiqildi. Yiqilganda ham qattiq lat yemay, tez tiklanib oldi. O'zi tiklanolmaganda tiklab qo'yuvchilar uchrab turdi. Bu, so'nggi gal esa har galgisidan qattiqroq toyilgan ekan-u, biroq alamini kechikibroq sezdi. Alam birdan sezildi-yu, tez avj olib, a'zoyi badaniga tarqaldi. Endi buning davosini hozir, shu yerning o'zidan topmasa, keyin pasod olib, hech qanday dori-darmon kor qilmay qolishi ehtimol... U xayol daryosiga chuqur sho'ng'ib chiqib bir seskandi-yu, hushi joyiga kelganday bo'ldi. Oqshom izg'irini vujudidagi horg'inlikni yo'qotdi, boshi yengillashdi, kunduzgi issiqda maddorsizlangan cho'l hasharotlarining chir-chiri qulog'iga avjlilroq eshitila boshladi. Ayniqsa, teshik paqirdan tomganday, o'tkinchi bulutdan chak-chak tomchilab kuzakdan darak bergan yomg'ir polvonning vujudiga ignaday sanchila boshlagach, hushyor tortib ketdi. Qishloq markazida yalpi yongan sonsiz elektr shu'lasini yomg'irda zarday sochilib, polvonning ko'z o'ngini xiyla ravshanlashtirdi.

«Yo'q, – dedi polvon to'qaydan chiqayotib, o'z-o'ziga buyruq berganday, – esing borida etagingni yop, bu yo'lingdan qayt!»

– Ha, mehmon, kim bilan so'zlashyapsiz? – dedi qorong'ida chayla tomiga brezent yopayotgan Jumaboy ota. Polvon indamay kelib cholga ko'maklashdi. – Men bo'lsam xavotirda edim, bemahalda qayga boshlari og'di, yo tag'in achchiq ustida jo'navordilarmi deb...

– Yo'q! – dedi polvon boyagiday qattiqroq qilib. – Ketmayman, otajon!



Yomg'ir shabadasida lipillab turgan lampaning xira nurida chol polvonga ajablanib boqdi. Polvonning ko'zlari bejo, yuzlari tarang, iyaklari qaltirardi.

Xiylagina zo'raygan yomg'ir yarim kechaga yaqin shiddatidan tushdi. Azonga borganda osmon ko'k baxmalday musaffo bo'ldi.

Polvon shabnamga cho'mib, ilk quyosh shu'lasida kumushday yiltiragan ekin dalalari, qirlar, so'lim bog'lardan ko'zini uzgisi kelmasdi. Endi unga hamma narsa o'zinikiday ko'ngilga yaqin va chiroyli ko'rinardi.

– Iya, iya, yo'l bo'lsin tag'in, mulla Abduvali? – dedi chol, qopini qo'ltiqlab yo'lga tushib qolgan polvonga.

Polvon birato'la bola-chaqasini ko'chirib kelmoqchi ekanini bildirdi.

– Juda soz! – dedi shodlanib chol. – Qo'nar joydan xotirjam bo'ling. To uy-joy tiklab olgunlaricha qishloqdagi uyim o'zlariniki. Ha, o'ylamang, cho'lda odamning qadri yo'q deb...

– Yaxshiligini unutmayman, – dedi boshi osmonga yetib Vali. – Faqat sizdan iltimos, Xolmirzaga uzrimni aytib qo'yasiz, ko'rnamaklik qildim, kechirsin. Bosh omon bo'lsa... Ko'ngilga tukkan niyatim katta...

Jumaboyota polvonni cho'lning qoq belidan kesib o'tgan katta, tekis yo'lga solib yuborarkan:

– Endi adashmassiz-a, mulla Abduvali? – deb hazillashdi.

– Odamni uyaltirmang, – ded polvon, o'ziga ham nash'a qilib kulgancha. – Ko'r hassasini bir marta yo'qotadi. Endi adashish yo'q!..

1958





## ONAIZOR

**V**alivoy Asakaga avtobusda oqshom qorong'isida kelib tushdi. Odam odamni tanimas, ko'chalarda qatnov kamaygan edi. Shunday bo'lsa-da, u o'zini pastqamroqqa urdi. Istirohat bog'ining yonboshidagi tor ko'chaga burilganda, hozirgina yongan elektr nuri atrofni yoritib yubordi. U cho'chib, qadamini tezlatdi. Soylikka kiraverishdagi muyulishga yetganda taqqa to'xtadi. Yuragi dukillab ketdi. Ana tegrasini qirlar qurshab, o'ngiri zilol suvga tutashib, g'uj-g'uj mevazorga ko'milib yotgan, o'zi tug'ilib o'sgan makon. Nihoyati, yigirma-o'ttiz qadam bossa, eshigi... onasi... Onasi balki shu topda podadan qaytgan sigirini allanimalar deya iydirib sog'ayotgandir. Ehtimol, eski odaticha, tiq etsa eshikka boqib, tomog'idan ovqat o'tmay o'tirgandir. Yoki soylar, yillar intizorlik torta-torta, endi taqdirga tan berib qo'ygandir... Xotini Fotima-chi?

Yaqin yerda dupur-dupur ko'tarilib, xayoli bo'lindi. It huridi. Bir bola buzoq, qo'ylarni quvib, ko'cha changitib o'tdi. Haligina elektr shu'lasida elas-elas ko'ringan, tepasiga zangori tutun buralib-buralib chiqqan tomlar tuman pardasiga yashirindi. Ko'z oldi xiralashgan Valivoy ketiga tisarildi. Istirohat bog'ining orqa belidan kumushtasma singari kesib oquvchi ariqdan hatladi. Bog'ga o'tarkan dimog'iga gup etib sof havo urdi. Kuzak salqini tushgan, ammo etni uvishtirarli emas. Yaproqlar sarg'ayib ko'rinsada, hali hazonrezgi boshlangancha yo'q. Xiyobonlar, gulzorlar oralagan irmoqlar sirli shivir-shivir taratib, har tomonga shoshilmoqda. Faqat bog' mavsumining



o'tinqiragani odamlarning siyraklashganida bilinadi. Ana, suvga salom berib yotgan majnuntollar orqasidan yigit-qizlar qahqahasi gurilladi. Qayerdandir, raqs maydonchasidanmi, muzika sadosi yangradi. Bular Valivoyning xotirasida yoshlikdagi voqealarni jonlantirdi...

Bundan o'n besh yilcha burun, boshiga muhabbat savdosi tushgan o'sha beqaror yigitlik kezlari. Hamrohlari bilan deyarli har kech bu yerda sayr qilardi. Qittakkina kayf qilib olib, qizlar ketidan tushish, gap otish, evini topsa raqsga tortish... Kunlardan birida u beadablik qilib, bitta shaddod qizdan shapaloq yegani esida. O'sha-o'sha, Valivoy qizlarga suyuqlik qilmaydigan bo'ldi. Shaddod qizni ko'rganda qizaradigan, qo'lini ko'ksiga qo'yganча uzr so'rab o'tadigan bo'ldi. Ko'ngil ekan, bora-bora qizda Valivoyga moyillik alomatlari sezildi-yu, shuni bilgan zamon Valivoy sovchi qo'ydi. Bu o'rta maktabni bitirib, tikuvchilik hunariga kirgan chevar qiz Fotima edi.

Ular dastlabki yillarda juda totuv yashashdi. Keyinchalik o'rtada bola bo'lmaganligidan bahs topib, Valivoy xotinini kamsitadigan, tez-tez tashlab ketadigan bo'lib qoldi.

Xayol surib borarkan, o'zini daraxtga urib oldi. Shoxlari tarvaqaylab o'sgan bu daraxt shotut edi. Bolalik vaqtida Valivoy bu shotutga ko'p chiqqan. Uning xushxo'r mevasini yeyman deb, bir kuni yap-yangi jujun shimni qizilga bo'yab olgan. Beva onasi ne hasratda topib kiygizgan kiyim shu alpozga tushganini ko'rganda ham indamagan.

Valivoyning ko'ngli behuzur bo'lib ketdi. Nafasini rostlay deb, qari shotut ostidagi irmoqdan bir



hovuch shimirdi. Endi yuz-qo'lini yuvmoqchi bo'lib cho'nqayganda tanish ovoz uni o'rnidan qo'zg'atdi.

– Iya, ha Vali xo'rozmisan, – dedi yelkasiga montyorlik charm sumkasini ilgan novcha yigit.

Vali tengqur qo'shnisi jo'rani tanib, sarosimaga tushdi. Jo'ra uning yelkasiga qattiq urdi.

– Osmondan tushdingmi, yerdan chiqdingmi? Qaysi kovakda yotuvding?

– Haliyam askiyabozliging qolmabdi-ya, o'rtoq.

– Ilgari xo'roz eding, hozir tuxumi og'ziga kelgan tovuq mijozni xilvat axtarib qolganingni aytyapmangga, oshna.

– Avval ahvol so'rashaylik...

– Menikini so'rasang – besh! Mana shu charaqlab turgan chiroqlarning kaliti qo'limda... Obro'yim, topish-tutishim bitta odamchalik. Endi sendan nima-sini so'ray. Yengil ish, bebiliska daromad payida bu yerdagi zavoddan quyon bo'lib, ketvorganingni?.. Darvoqe, uyingga bordingmi?..

– Yo'q, – dedi dami ichiga tushib Valivoy.

– Bormaganing ham ma'qul. Eshiging qulf...

– Nega? Tinchlikmi?..

Jo'ra uni bog'ning chekkarog'idagi choyxonaga boshladi. Choyxonaning baland shiyponidan orqaga qaralsa, pillapoya bo'lib pastga quyiluvchi soylik ajib manzara kasb etadi. Go'yo osmondan yulduzlar tushgan-u, shu go'zal soy bag'ridagi bog'lar, chamanzorlarning tungi jilvasini olamga ko'z-ko'z qilganday. Huv ana, baxmalday ko'katlar orasida oqarib turgan shiferli tom, shabadada tebranayotgan va bargchalari zar kukun sochilganday jimirlayotgan oq teraklar. Ularni bundan besh-olti yil burun Valining o'zi o'tqazgan. O'shanda onasi nechog'li quvongan: «O'sib-



ungin, shularning soyasida bola-chaqang bilan rohatlangin», deya duo qilgandi...

Choy ustida ikki oshna suhbatlashisharkan, Valivoyning hushi hadeb soyga og'ib turdi.

– Es-hushingni yig', qani, gapir! – deya qistovga oldi Jo'ra.

Shundan so'ng Valivoy ko'nglini ochdi. Omaddan bo'lib, uchragan yaqin do'stidan sir yashirishni foydasiz bildi: keyingi yillar ichida borgan yerlari-yu, ko'rgan-kechirganlarini, oxiri Mirzacho'lga borib, bojasi ko'magida jamoa xo'jaligiga kirgani, hozir esa, onasi va xotinini ko'chirib ketish maqsadida kelganini birma-bir aytib berdi.

– Obbo xo'roz-ey, qirqqa borganda aqling kirdimi? Vaqt o'tganda...

Jo'raning aytishicha, Valivoyning onasi ko'pdan beri kasalxonada, holi tang. Fotima tikuvchilik korxonasida ishlab, kasal boqyapti. Qolaversa, qo'niqo'shni, Jo'raning o'zi kasaldan xabar olib turishibdi.

– Shunaqami hali?! – deb Valivoy hang-u mang bo'lgancha, o'rnidan turib ketdi. – Tezroq borish kerak kasalxonaga.

– O'tir, nomard, o'tir! – deb Jo'ra uning yengidan qattiq siltab tortdi. – Nima deb borasan?..

Valivoy gup etib joyiga cho'kdi. Endi yolvorishga o'tdi:

– Yordam ber, do'stim! Volidamni ko'ray... Insofdanmas axir...

– Senga kim qo'ydi insofdan so'z ochishni! – Jo'raning zardasi qaynadi. – Endi esladingmi onangni! G'amingda qaddi bukilib, boshi yostiqqa yetgandaya!.. Bechoraning kasal holidam ham halovati yo'q, goho bosinqiraydi-yu, tilida sen: «Valijon, qaydasan,



bolaginam!» deydi. Har qo'msaganida kelini: «Hozir keladilar o'g'lingiz, kelib qoladilar», deb tasalli beradi... Sen gumroh, ona suti ko'r qilgur, adashib-uloqib kelib, yana insofdan dam urasan-a! – Jo'raning oxirgi so'zlari tomog'idan bo'g'ilib chiqdi. – Eh, qani endi onaginam hayot bo'lsa-yu, boshginamga ko'tarib yurib, haqini ado qilsam!..

O'rtaga og'ir sukunat cho'kdi. Jo'ra oshnasining yalg'ars gavdasi, shop mo'yloviga nafratli ko'zlarini uzoq qadab turdi. Yerga kirguday bo'lib o'tirgan Valivoydan ortiq sado chiqmagach, Jo'raning yuragi tars yorilay dedi-da:

– Men ketdim! – deb o'rnidan qo'zg'aldi. – Ertalab ko'risharmiz...

Valivoyning naq kapalagi uchib:

– Jon o'rtoq, hozir olib bor kasalxonaga! – deb unga osildi.

– Qaysi beting bilan borasan? Sendan allaqachon qo'llarini yuvib qo'ltiqqa urishgan. Onangni yoniga kiritishmaydi ham...

Valivoy qo'ymay yelimday yopishib olgach, Jo'ra noiloj birga bordi. Ammo baribir kasalxona qorovuli eshikdan yo'latmadi. Oxiri, Jo'raning rahmi kelib, oshnasini o'z uyiga taklif qilgan edi, borishga or qildi... Uyi tomon borarkan, qadam sayin yurak g'ulg'ulasi kuchayardi. «Fotima uyga keldimikan, qanday kutib olarkin?.. Tag'in yuzini o'g'irsa, yo avvalgi shaddodligini qilib: bor, beting qursin, desa-ya!..» Yana chor-nochor bog'ga burildi.

Choyxonada diydirab chiqib, erta bilan och-nahor kasalxonaga yo'l oldi. Uning miyasi ari uyasidek g'uvillar, oshnasining ta'na, dashnomlari qulog'i ostidan ketmas edi. «Nahotki onam, xotinim mendan



qo'llarini yuvib, qo'ltiqqa urishgan bo'lsa-ya?.. Kaxsalxona eshigiga, xuddi birov ko'krigidan itarayotganday, qo'rqa-pisa qadam bosdi. Oq xalat kiygan, ko'zoynakli bir ayol uning uyqusizlikdan qizargan ko'zlari, o'sib ketgan soqoliga tish og'rig'i tutganday, ijirg'anib qaradi:

– Bemorning kimi bo'lasiz?

– O'g'li...

– O'g'li?! – ayol ko'zoynagi tepasidan yana shubhalanib boqdi.

Valivoy, uzoq safarda bo'lib bexabar qolgani, yana boshqa vaj-karsonlar keltirib, iltimosini takrorladi. Ko'zoynakli ayol og'ir dam kuttirib, ichkariga kirib chiqdi.

– Kirishingizga professor ruxsat bermadi...

– A? Nega? – Valivoyning ko'zlari qinidan chiqayozdi va yolvordi: – Do'xtir opa! Jon opa!.. Axir onamni... bir ko'ray.

Ayol indamay chiqib ketdi. Valivoy hushidan ajraganday gangib qoldi. Qorovul sekin qo'ltig'idan olib, eshikdagi skameykaga o'tqazib qo'ydi. U kallasini ikki qo'li orasiga olib, g'ujanak bo'lib o'tirgancha qoldi... Bir vaqt, qaysi bir mehribon uni ichkariga yetakladi.

Keng yag'rinida qolib ketgan tor xalatda qovushmay, kalovlagancha boyagi ayol ketidan sudralarkan, ko'zlari taka-puka. Go'yo atrofdagilar: «Mana mundoq bag'ritosh, noqobil farzand ham bo'larkan», deb unga qo'llarini bigiz qilib turishganday tuyulardi. Shu holatda onasi yotgan palataga qanday qilib kirib qolgani ham bilmadi...

Kechadan beri behush yotgan bemor o'g'lining tovushini eshitishi hamonoq yalt etib ko'zini ochdi.



Valivoyning ko'rarini, za'faron chehrasiga qon yuguranday, ko'z qorachiq-lari kengayib, serajin lablariga nozik tabassum yoyilganday bo'ldi. Juda ham tanish, dilrabo tabassum! Vali esini tanibdiki, biladi bu tabassumni! O'zining sho'xlik beboshliklari bilan ona qalbiga necha-necha daf'a ozor yetkazganda ham, arigan emasdi bu tabassum!..

Onasi Valivoyning ko'zidagi g'ilt-g'ilt yoshni ko'rib, shivirladi:

– Xafa bo'lma, bolam. Shukur... Ko'rar kun borakan seni... Tezda tuzalaman...

U holsizgina oriq qo'li bilan Valining ma'yus egilgan boshini asta siladi. Valining vujudiga allanechuk mayin, har qanday g'uborni tarqatib, allalovchi yoqimli bir titroq taraldi. Axir onasi shu orombaxsh saxovatli qo'li bilan uning peshonasini ozmuncha silaganmidi? Otasiz qolganda uning rizq-ro'z topib bergan, yuvib taragan, kiyintirgan, go'daklikdan balog'at ostonasigacha yetaklab borgan ana shu sehrli, zahmatkash qo'l emasmi!..

Valivoyning ko'ngli bo'shashib, to'liqib ketdi, onasining qo'lini o'parkan, qalbidagi iztirobni ifodalashga ojiz edi.

– Kechiring meni, onajon... gunohkor o'g'lingizni!..

Shu payt tovoqda bir nima ko'tarib kirgan Fotima erini ko'r-di-yu, yuzini chetga burdi. Valivoyning o'ng'aysizlik va hayajondan tili gapga kelmay qoldi. Kampir mehr to'la ko'zlari bilan Fotimaga boqdi va siynasidan vulqon kabi shu so'zlar otilib chiqdi:

– Xayriyatki, kelinim bor ekan, kuningam yaradi. Baraka topkur...

Hamshira Valivoyga: «Bemor ortiqcha urinmasin, bora qoling endi» desa ham, ona o'g'lini yonidan jil-



dirgisi kelmasdi, hamshira ikkinchi marta ogohlantirgach, kampir noiloj ijozat berdi:

– Bora qol, o'g'lim, bora qol uyga. Damingni ol. Ko'zlaring kirtayib ketibdi.

Valivoy yana kechirim so'rab, egilib-bukilgan edi, onasi Fotimaga ishora qildi:

– Uzrni undan so'ra, bolam... Oyog'iga yiqilsang arziydi...

Valivoy aybdor bir vaziyatda xotiniga qaragan edi, Fotima teskari burilgancha chiqib ketdi.

– Bor, ketidan bor, nodonginam, – dedi ona.

Valivoy xotini ketidan yosh boladay ergashdi...

1961

## OQIBAT

**A**ziza xola ayvon to'ridagi o'rinda cho'zilib yotgandi. Tepasida qo'shnisi Lazokatxon paydo bo'ldi. O'ziga oro berib, yasanib yuradigan bu lobar, quvnoq ayolning yo'sini bo'lakcharoq, fe'li ayniganroq edi. Ammo, qo'shnisining lohas tortib yotganini ko'rarkan, birdan yuzida achinish paydo bo'ldi.

– Iya, iya, egachi! Men sizni chaqirtirgandim. Mehmonlarimni shirin suhbat bilan xursand qilib o'tirarsiz, deb. Chiqmadingiz. Nima bo'ldi sizga?

Aziza xola oriq gavdasini arang ko'tardi. Lazokatxon bilan ko'rishgach, bodi qo'zg'alganidan qimirlolmay qolganini aytib, uzr so'radi. Lazokatxon egachisining bilagini ushlab ko'rdi. Tomir urishi bejiligini sezdi. Darrov o'z uyidan qon bosimini o'lchaydigan asbobini olib chiqdi. O'lchab ko'rgach, qon bosimi ham ko'tarilganini bildirdi. Azizaxonning nozikligini, sog'lig'idan bot-bot shikoyat qilib turishini bilgani uchun achinib ketdi:





– O‘zingizni ortiqcha urintirgandirsiz-da. Endi ehtiyot bo‘ling. Xudo shifo bersin. Sizga kim qarayotibdi o‘zi? – deb u yoq-bu yoqqa alanglab oldi. Uy ichida hech kim ko‘rinmagach, so‘radi. – Qani bolalar?

Aziza xola biroz o‘ylanib turgandan so‘ng:

– Ketishgandi... – deb qo‘ydi.

– Qayoqqa? – dedi Lazokatxon sergak tortib.

– Haligi... Yangi joyga...

– Tushintiribroq gapiring-chi. Qanaqa yangi joy?

Aziza xola qo‘shnisining sinchkovligini, qiziqqan narsasini aniqlamaguncha qo‘ymasligini bilardi. Shuning uchun borini aytishga majbur bo‘ldi. Gap o‘g‘li bilan kelini ustida ketayotgandi. Kelinning otasi tuzukkina tadbirkorlardan ekan. Ishlari yurishib ketgandan keyin saxiyligi tutibdi. Qiziga yaqindagi domdan bir kvartira olib beribdi. Aziza xolaning ko‘hna, tor, pastqam hovlisida siqilibroq yashasharkan. Xonadonning otasi o‘g‘li bilan kelini turadigan bitta xonani ikki xonaga aylantirib berish harakatida ekan-ku, bu ish hadeganda bita qolmayotgan ekan. Shu sabab yangi kvartiraga ko‘chishga chog‘langan kelinning ra‘yini qaytarib bo‘lmagan. O‘z-o‘zidan o‘g‘li O‘ktam ham rafiqasi ketidan ergashgan.

Bu yangilikni eshitarkan, Lazokatxonning shahlo ko‘zlari qinidan chiqayozib, jig‘ibiyroni qaynab ketdi.

– Ana, xolos! Nahotki, shuni ko‘ra bila turib yo‘l qo‘ysanglar-a! Xo‘jayiningiz ham indamay qo‘yib berdilarmi?

– Xo‘jayin bularni ko‘chganini bilmay qoldi. Komandirovkaga ketgandi.

– Komandirovkadan qachon qaytadi?

– Uzoqroq muddatga ketganla...



– Shundoq ekan, axir bolalaringizga: «Dadang kel-sin bir gap bo'lar. Meni yolg'iz tashlab ketmanglar», – deb aytmabsiz-da?

– Aytuvdim. Tez-tez kelib turamiz, deb va'da be-rishdi. «Hozircha bog'chasiga bormasdan, yoningizda tursin», deb bolasini qoldirishdi.

Shu chog' oshxonadan ushshoqqina bir qizcha choynak ko'tarib chiqib, bularning oldilariga keltirib qo'ydi. «Hoy, Jajji, dastyorchilik senga qoldimi, ayno-niy!» – deb Lazokatxon qizchani bag'riga bosib, pe-shonasidan o'pib qo'ydi.

– Bu Jajjining yoningizda hamroh bo'lib turgani yaxshi. Lekin qozon-tovoqqa, uy-joyga qarash, kasa-lingizga malham qo'yish buning qo'lidan kelmaydi-ku! Farzandlar shuni o'ylashmagani qiziq. O'zingiz ham aytishga andisha qilgansiz-da, albatta. Fe'lingiz ma'lum. Ortiqcha tortinchoq, xokisorsiz! Ular sizning bo'shangligingizdan foydalanishgan. Ha, egachi, o'z onalik qadringizni bilmasangiz shunaqa bo'ladi. Keli-ningiz yuzsizlik qilgan bo'lsa o'g'lingiz o'ylashi, onai-zoriga rahm qilishi kerak edi!

Lazokatxon egachisining tomirlari tortishib qol-gan oyog'ini silab-siypab qo'ydi. Albatta, doktor cha-qirib qaratish zarurligini aytdi. O'ktamni qanday topishni so'radi. Aziza xola unga deraza tokchasida turgan daftarchani ko'rsatdi. Lazokatxon daftarchani varaqlab, O'ktamning ishxonasiga tegishli bir-ikkita telefonni topdi-da, qog'ozga yozib olgach, chiqib ket-di.

Oradan ko'p vaqt o'tmay, qo'shni qiz kirib keldi. Qosh-ko'zlari onasinikiga o'xshash popukdakkina, chaqqon harakatli bu tiyrak qiz ayvonga ko'tarilib qaraganda, xolasining ko'zi ilingan ekan. Ovoz chiqar-



masdan yoniga bordi. Pashsha qo'nmasin deb yuziga doka yopdi-da, sekin pastga tushdi. Burchakda turgan supurgini qo'lga olib, xazon, cho'p-xaslar ivirsitgan hovlini supurishga tushdi. Shundan so'ng hovliga asta-asta shakarob qilib suv sepa boshlagandi, ayvondan Aziza xolaning ovozi chiqdi.

– Voy, Dono qizim, nima qilib urinyapsan?

Dono yugura borib, ko'rishdi:

– Tuzukmisiz, xolajon? – dedi. – Sizga yordam bergani chiquvdim. Ayting, ovqatingizni pishirib beray.

Aziza xola ovqatga ishtahasi yo'qligini aytdi. Dononi ovora qilgisi kelmadi. Dono bo'lsa qattiq turib oldi:

– Ayajonim tayinladi: «Xolangga xo'rda-mastava qilib bergin, qatiqlab ichsin», – deb.

Shuni aytib oshxonaga kirib, ishga unnay ketdi. Jajji qiz uning yonida pildirab yurarkan, Dono: «Biznikidan qatiq opchiqasan», deb uning qo'lga shisha idish tutqazdi. Bir payt Lazokatxonning o'zi chiqdi. Qizining qilayotgan ishini kuzatib, ma'qulladi. Egachisidan esa ko'ngli bezovtaligini yashirmadi:

– O'g'lingizni ishxonasiga ikki-uch marta qo'ng'iroq qildim. Topolmadim. Qayoqqayam ketgan, deyishdi. Ularga: «O'ktamni oyisi kasal, tezda yetib kelsin», deb tayinladim. Daragi bo'lmadimi?

Lazokatxon tiq etsa eshikka qarab, egachisining yonida o'tirdi. Qizi pishirib kelgan mastavadan qis-tab-qis tab ichirdi. Qosh qorayganda o'rnidan qo'z-g'aldi-da:

– O'g'lingiz qay vaqtda kelsayam, Jajjidan menga xabar bering. Albatta, uni ko'rishim kerak, – deb tayinladi. Dononi esa kasalning yonida tunash uchun qoldirdi.



Ertasi u poliklinikaga qo'ng'iroq qilib, doktor chaqirdi. Peshinga yaqin doktor kelganini bilib, egachisidikiga chiqdi. Doktor kasalni ko'rib, davolar belgilab, dorilar yozib, endi jo'nayotganida, hech narsa bilmaganday silliqqina bo'lib, O'ktam kirib keldi. Eshikda «Tez yordam», uyda doktor bilan Lazokatxonni uchratib, naq kapalagi uchgan yigit, izza bo'lganidan o'zini arang bosgan holda:

– Iya, oyijon, sizga nima bo'ldi? – deb onasi qoshiga quchoq ochib keldi. Onasi esa, odatdagicha vazminlik bilan «sal tobi qochgani»ni bildirdi. Egachisining beg'am, beparvo o'g'ilga qilgan bunday beozor muomalasini hazm qilolmagan Lazokatxon:

– Kasalni yashirsang isitmasi oshkor qiladi. To'g'risini aytavermaysizmi, egachi! – deb zarda qildi. Keyin O'ktamga yuzlandi: – Salgina tobi qochganmas. Oldindan silqovlanib yurardi onang. Endi rosmkana kasal bo'пти. Bod. Xafaqon. Ha, bu kasallari oldindan bezovta qilib yurganini bilmasmiding? Shu yarim jon onani yolg'iz tashlab ketishga qanday vijdonlaring qabul qildi-a?! Borib turgan oqibatsizlik emasmi – bu?!

O'ktam kutilmagan og'ir dashnomlarni naq o'takasi yorilguday bo'lib eshitdi. Bu to'g'riso'z, shartaki qo'shniga xiyol bo'lsin ters javob berishi mumkinmasligini bilardi. Shu bilan barobar o'z aybiga ro'yirost iqror bo'lishga ham tili bormasdi. O'zini arang bosdi. Ikki qo'lini ko'ksiga qo'ygan holda zo'raki tabassum bilan:

– Shunaqa bo'p qoldi, opoqijon. Aybga qo'shmaysiz. Yaqin joyga ko'chganmiz, tez-tez xabar olib turadigan bo'lib. Aksiga shu kunlarda u yoqda ish ko'payib ketib, ushlanib qoldim...



- Ha, demakki o'zingizdan ortmay qolibsiz-da. Bilaman, turmushda har xil farzandlar uchraydi. Bir xillari o'z shaxsiy manfaatlarini birinchi o'ringa qo'yishadi, o'z huzur-halovatlariga berilib ketishadi-yu, ota-ona oldidagi farzandlik burchlariga raxna solib qo'yishadi. Nahotki, sen mo'min-musulmon farzandi bo'laturing, o'shanaqa betayin, betavfiqlar qatoriga kirsang?!

- Mendan xatolik o'tgan bo'lsa kechiring, opoqijon! - deb yana egilib-bukildi O'ktam.

- Menga qara, otang qurib bergan bu uy torlik qilib qoldimi? Sizlarning bu yerdan ko'chib ketishlaringga ota-onang rozi bo'lishganmidi?

O'ktam mushkul savolga ro'para kelib, dovdi-radi.

- Endi, opoqijon... Uncha qarshilik qilishmovdi... - deb chaynaldi.

- Shunaqa degin? - dedi Lazokatxon gumonsiragan holda. Keyin siz nima deysiz deganday Aziza xolaga tikildi.

- Ha, endi... Shunaqa... Bo'lar ish bo'ldi... Qayerda bo'lishsayam omon bo'lishsin, - deganicha Aziza xola dudmal javob qildi.

Egachisining javobi Lazokatxonni qoniqtirgani yo'q, albatta. Qoniqtirmadigina emas, bolalarini bunchalik o'z ixtiyorlariga qo'yib berishi, bolajonlik qilaman deb og'irlikni o'z zimmasiga olaverishi, serandishaligi o'tirishmadi Lazokatxonga. Uyidan xabar olish uchun chiqib ketayotib, O'ktamni bir chekkaga imladi-da, dedi:

- Savolimga to'g'ri javob bermading, bola. Dadang komandirovkadan qaytsin, gaplashaylik-chi, nima derkinlar?..



O'ktam buni jiddiy ogohlantirishday qabul qildi-yu, yuragini g'ulg'ula bosdi...

## QUYOSH QACHON BOTADI

**K**echki payt hovlimizdagi gullarga suv quyayotgan edim. Bir vaqt darvoza taraqlab ketdi. Mundoq qaragam, buvim. U qora durrachasi ustidan doka ro'molini lunjigacha o'rab-chirmab olgan, terga botgan edi. Bir qo'lida tugun, ikkinchi qo'lida hassa ushlab, bir gala tovuqni tirqiratib haydab kelyapti. Baboq xo'roz oldinda, tovuq jonivorlar qaqalashib, lapanglashib qochishadi. Unga sari qarg'aydi.

- Yer yutkurlar! Hovlini ivirsitganing ivirsitgan, endi ko'chada tezak titish qoldimi? He, tug'gan tuxumlaring boshlaringda qolsin. To'y magurlar!..

Men darrov fahmladim, buvim bir narsadan xafa. Qachon jahllari chiqsa, shunaqa bo'ladi - hovlida o'z holicha don cho'qilab yurgan parrandalardan, oftobda yuzini «yuvib» yotgan erinchoq baroq mushukdan, yo bo'lmasa podadagi onasini qo'msab «ba-ba»lagan buzoqchadan alamini oladi...

Men qo'limdagi paqirchani qo'yib, buvimning yaqiniga bordim:

- Hormang buvi! To'y yaxshi bo'ldimi?

Buvim indamadi, qovog'ini solib, uyga kirib ketdi. Ketidan baqrayib qaraganimcha qoldim. Nega bunday bo'ldi ekan? U hech qachon mendan bunaqa arazlamagan edi. Apoq-chapoq edik-ku? Goho biron kishi ko'nglini og'ritganda, men unga bir og'iz yumshoq gap aytsam, o'sha zamoni ochilib keta qolardi. Buvimning shu roy keldiligini yoqtirardim...



U boyagidek avzoyi buzuqligicha uydan chiqdi. U qat-qat shol belbog'ini yecha turib, yerga qaragan holda:

- Kenja, beri kel-chi! - dedi zarda bilan. (U, meni har doim «Kenja, Kenjatoyim» deb chaqirguvchi edi.)

Hayron bo'ldim. Termulganimcha: «Ha, buvijon!» deb unga yaqin bordim.

- Sendan shuni kutganmidim, bolam? Yuzimni shuvut qilding-ku! - deb qoldi to'satdan.

Men hech narsaga tushunolmay, serrayganimcha turibman.

- Nima bo'ldi o'zi, buvi?

- Bila turib o'smoqchilaysan, mug'ambir!

Gumonim oshdi. «Qanaqa ish qilgan ekanman» deb shuncha o'ylayman. Hech narsa esimga kelmaydi. Xit bo'laman.

- Tushuntirib gapiring, buvi! Nima yomonlik qilibman. Bekordan bekorga xunob bo'laverasizmi?

- O'zingni hech narsa bilmaganga solasan-a, tag'in. Qani, kim o'rgatdi senga eshikma-eshik yurib, maza-bemaza gaplar gapirishni! «Nevarangiz falon bo'пти, piston bo'пти» degan ta'nani eshitamanmi endi, qarigan chog'imda... Mushtdek boshingdan kattalarga aql o'rgatishni kim qo'yibdi senga?

Bu gap meni o'ylatib qo'ydi. Keyin birdan shu narsa esimga tushdi; o'sha kezlarda maktabimiz o'quvchilari qishloq xonadonlari orasida yuqumli kasalliklarga qarshi tashviqot yurgizgan edi. Shuni to'yda xotinlar gap qilishganga o'xshaydi.

- Buvi, - dedim bo'shgina, - tashviqot yurgizish aql o'rgatish bo'ladimi? Bezgak, ich terlama, tepkili terlama kasalliklarining zarari va kelib chiqishini gapirdik-da. Bitta men emas, o'rtoqlarim ham, o'qituvchilarimiz ham bu ishga qatnashdi.



– Qachon qarasa og'zingda tashviqot. Oying bilan dadangga tashviqot qilganing yetmasmidi?

Men o'zimni zo'rg'a bosib turibman. Buvim esa ajin bosgan peshanasini battar tirishtirib, javrashda davom etdi:

– Qolaversa, meni oying, dadang, sen, hammang bir bo'lding-u, boshyalang qilib qo'yдилaring. Buni-siga ko'ndim el qatori. Hali indamasam, og'zimga cho'tka-yu, ohak-pohak tiqishdan ham toymaydigan-ga o'xshaysan! Men-ku, nima desalaring ko'nib qoldim. Endi bir kaming qo'ni-qo'shni qoluvdimi! Otin buvingning irim-sirimi bilan nima ishing bor?

Gapning tagiga endi yetdim. Bu otin buvi degani bizdan ikki qo'rg'oncha narida, Murodlarning yonida turadigan bir kampir. U ko'pincha jamoa xo'jaligiga xalaqit berib tabiblik, kinnachilik qiladi, deb eshitib yurardim. Buni o'z ko'zim bilan ham ko'rdim.

Bunday bo'ldi: sinfdoshim Murod ikki-uch kun o'qishga bormay qoldi. Eshitsak, bezgak bo'lgan ekan. Bir o'rtog'im bilan Muroddan xabar olgani bordik. Ni-mani ko'rdik deng: otin buvi Murodni ayvonga yot-qizib qo'yib, xipchin bilan savalayapti. Yonida kul so-lingan kosa. Murodning rangi quv o'chgan. Ko'rdim-u, achinib ketdim. Murodning oyisiga qaradim-da:

– Axir shunaqa qilib o'tirgandan ko'ra, doktor chaqirtirsangiz bo'lmaydimi? – dedim.

Bu gapimdan otin buvining jahli chiqib ketdi.

– Sening nima ishing bor? Mahmadanaliging-ni oying bilan dadangga borib qil! – deb, bidirlab ber-di.

Biz indamay chiqib ketik-da, to'ppa-to'g'ri makta-bimiz direktoriga borib aytdik. U darrov Murodning uyiga doktor aytdirib yubordi.





Bo'lgan gap shu...

Sezishimcha, bugun to'yda otin buvi mendan qat-tiq nolib, buvinga arz qilgan. Bu narsa kor qilib ke-tib, mendan alamlarini olayotgan ekanlar. Oxiri men kuldim-da, buvinga:

– Nima qilibdi, tushunmagan odamga tushuntir-sak yomonmi? – dedim. – Mana o'zingiz, ilgari dok-tor desa cho'chib tushardingiz. Bir marta uzoq kasal yotganingiz esingizdami? Otin buvining duoyi-fotiha-lari ham, «kuf-suf»lari ham kor qilmadi-ku. Qaytaga kasalingiz zo'rayib ketdi. Oxiri doktor ko'rdi-yu, tuzal-dingiz. To'g'ri emasmi?

– Bu gaping to'g'ri-ya, bolam, – dedi u endi shash-tidan tushib, – tabarruk odamning dili og'rimasin deyman-da.

– Tabarruk deganingiz nimasi? To'g'risi, otin buvi sizga o'xshagan go'l, sodda kishilarni laqillatmoqchi bo'ladi.

– Og'zingga qarab gapir, bolam! Nega endi go'l bo'laman? – dedi buvim azza-bazza achchig'i qistab.

– Ha, ha, – kulib yubordim. – Nima, bo'lmasa ong-limisiz?

– Meni hali ongsizlar qatoriga ham qo'shmoq-chimisan. Axir, sochimga oq tushganiga qaramay, da-dang bilan sening so'zing yerda qolmasin, deb dalaga chiqib turibman-ku. O'zim tengi xotin-xalajlardan ish-da qolishadigan joyim yo'q. Tag'in nima deysan?

– Xo'p buvi, – dedim hazillashib, – axir ongli kam-pir bo'lsangiz, quloq soling. Men sizga bir narsa o'qib beraman, – deb hali pochtaiyon keltirgan gazetani qo'limga oldim.

– Tag'in gazeta o'qishga tushdingmi?



– Bugungisida qiziq narsa bosilgan. Mana, quloq solib turing...

Sarlavhasini aytishim bilanoq, buvimning ko'zlari ola-kula bo'lib ketdi. Maqolaning har bir satri-ni o'qigan sarim, buvim: «Ichingdan chiqaryapsan, bo'lmagan gap» deyaverdi. Oxirgi:

– Nahotki hali tutilmagan kunni «falon kuni tu-tiladi» deb aytib bo'lsa? Qayoqdan biladi? Avliyo bo'ptimi? – dedi ishonmasdan.

– Olimlar biladi. Mana, yozib qo'yibdi-ku. Ishon-masangiz o'qib ko'ra qoling, – dedim-da, kulib gazeta-ni buvimning qo'lga tutqazdim.

Azbaroyi qiziqqanidan, u gazetani qo'lga olib, be-ixtiyor peshonasidagi oynagini ko'zi ustiga tushirdi, xuddi xat taniydigan odamlarday, ko'zini katta-katta ochib, gazetadagi: «23-iyunda quyosh tutiladi» degan katta sarlavhaning u boshidan-bu boshigacha tikilib chiqdi. Men bo'lsam qotib-qotib kulayapman.

– Koshkiydi o'qiy olsam. Kim biladi, meni kala-ka qilyapsanmi, bunda bitilmagan narsani ichingdan to'qib...

– Olimlar yolg'on gapni bitmaydi. Ishonavering...

Shu vaqt daladan qaytgan oyim bilan dadam ham bizning suhbatga kelib qo'shilishdi. Men maqolani ularga ham o'qitdim. Shundan so'nggina buvim gaze-tada yozilgani to'g'ri ekaniga tan berdi. Lekin baribir, u gazetaning aytgani bo'lishiga hech ishongisi kel-masdi.

– Ishonmasangiz, keling garov boylashamiz.

Buvim ko'ndi. Garov boylashdik. Shart shu bo'ldi: gazetaning aytgani kelib, o'sha kuni quyosh tutilsa, buvim shundan boshlab mening hamma aytganlarim-ga ko'nadigan bo'ladi. Mabodo, tutilmasa-chi, unda



shu kungacha buvimga aytgan gaplarimni qaytib olaman.

Aytilgan kun va soatni naq oshiqib-hovliqib kutdik. Xuddi o'sha kun, o'sha soat, o'sha minutda hamma qatori biz ham quyosh tutilishini tomosha qildik. Men yelim oynachalar olib kelib, bittasini buvimga berdim. Buvim ko'ziga tutib oldi. Bu vaqt charaqlab turgan quyosh betiga asta-sekin dog' tushib, tuman bosganday, atrof xiralashib bormoqda edi. Buvim qorayib borayotgan kunni shundoq ko'rdi-yu, titraganicha: «Tavba! Yo tavba!» deya yoqasini mahkam ushlab qoldi.

- Ha, to'g'ri ekanmi, buvijon? - dedim buvimga tikilib olib. - Endi olimlarning so'ziga ishonasizmi? Yo haliyam otin buvining aytganlaridan qolmaysizmi?

Buvimning dami ichiga tushib ketdi. Quyosh tutilishi qaytgan bo'lsa ham, oynachani mahkam ushlagancha, hovli o'rtasida qaqqayib turardi. Keyin chiqur nafas oldi-da, yuragidan chiqarib dedi:

- To'g'ri ekan, bolam. Bu gazetang haq gaplarni bitarkan. Ishondim... qani endi men ham xat tanisam-u, o'z ko'zginam bilan o'qisam... - dedi-da, mendan gina qila ketdi. - O'zing ham ha desa tashviqot yurgizishni bilasan-u, mundoq buvingga gazit-pazit o'qishni o'rgatay demaysan.

Shundan keyin men buvimga savod o'rgata boshladim. Buvim rozi bo'ldilar. Darsni «Alifbe»dan boshladik...

Endi buvimning otin xolaga ixlosi kundun kun sovidi, har xil yangiliklarga qiziqishi ortib bordi.

1939



**BIR TUP G'O'ZA**

1

**K**uppa-kunduz kuni Karimning sigiri yo'qolib qolsa bo'ladimi...

Choshgoh mahali Dehqonboy akaning brigadasidan ikki chaqirimcha naridagi adirda Karim o'rtoqlari bilan mol boqib yurardi. Kun juda issiq edi. Karim issiqqa chidash berolmay, o'rtoqlariga: «Cho'milmaymizmi» deb taklif qilgan edi, hammalari ko'nishdi. Abdusamadning ukasi mollar va kiyimlarga qarab turadigan bo'ldi.

Ular adir etagidan soyga tushib, shappa-shappa suvga sho'ng'idilar. Eh, qanday maza! Tez oqar soy bir zumda ularni uzoq-uzoqlarga olib qochar, o'z bag'rida erkalatib, goh ko'mib yuborar, goh betiga chiqarib chayqatardi. Muzday suv yosh tanlariga orom berganidan Karimning hech qirg'oqqa chiqqisi kelmasdi. U oyoq-qo'li chaqqon bolalardan; yugurish, sakrash, koptok tepish, ot chopishda usta bo'lganiday, suzishda ham hech kimni o'ziga yetkazmasdi. Dam kattalar kabi quloch otib, dam «qurbaqa suzish» qilib, dam baliq kabi bilanglab suv yuzida hunar ko'rsatarkan, o'rtoqlari ham qizishib ketishdi...

Ular qirg'oqdagi oppoq, mayda qum ustiga ag'anashib yotgan paytlarida, adir tarafdin yosh bolaning allaqanday vahima, qo'rqinch aralash chinqirgan ovozi keldi. Karim irg'ib turdi-da, Abdusamadga qarab:

– Ukang! Ukang baqiryapti! – dedi.

Hammalari adirga yugurib ketishdi.

– Ha, nima bo'ldi, Hamid? – dedi Abdusamad, qo'rqqanidan ko'zlari olazarak bo'lib turgan ukasiga.



Hamid aftini burishtirib:

– Ola sigir... Ola... – dedi-yu, ho'ngrab yig'lab yubordi.

Karim hovliqib:

– Qani? Qani ola sigir? – deb shu on atrofga alangladi. Uning o'tkir ko'zlari har joy-har joyda halloslaganicha kavsh qaytarib yotgan mollar ustidan chiqdi-yu, ola sigirni ilg'amadi.

Karimning sigiri shoxlari kiyiknikiday qayrilib ketgan, ho'kizday zo'r gavdali govmish bo'lib, otning qashqasiday hammaga taniqli edi. Agar bir ko'cha poda ichida o'tib ketayotgan bo'lsa ham, Karim uzoqdan bir qarashda uni ajratib ola bilardi. Hozir esa keng adirning gir atrofiga qayta-qayta tikilsa ham sigir ko'rinmadi. Demak, bu yerda yo'q, yo'qolibdi.

Karim Hamidga:

– Ko'zing qayoqda edi! Uxlab qoluvdingmi? – deb o'dag'ayladi.

Hamid yanglishib, «ha», deb qo'yib, ketidan shuncha «yo'q» desa ham Karim tan olmadi, u:

– Bilaman! Uxlab qolgansan! Ko'zingdan bilinib turibti! – dedi-da, keyin Abdusamadga yopishib ketdi. – Ayb senda. Yaxshi tayinlamagansan. Ukang ham o'zingga o'xshagan landovur, dangasa. Uxlab qolgan.

– Nega unaqa deysan? Men dangasami?

– Bo'lmasa-chi! Darsda mudrab qolganing esingdan chiqdimi

– Bekor aytibsiz! Unda o'zi boshim og'rigan edi.

– Yolg'on! Yolg'on!

– Yolg'on bo'lsa yolg'on... Oshna, mening ukamni yomonlashga haqing yo'q!

– Yomonlayotibmanmi, dangasa deyapman.



- Bizning uka sening ukangdaka so'kag'on emas.

- So'kkan bo'lsa, bekorga so'kmagandir. Nega bo'lmasa, o'zi ukamning mushugini qo'rqitib, bo'y-nidagi lentasini olib qochmoqchi bo'lgan?

- Qachon? Qachon?

- Uni-muni qo'ying, Abdusamadvoy! Sigirni nima qildik, sigirni?

- Topamiz! Hovliqaverma! Qayoqqa ketardi! Bola-sini qo'msab, uchastkaga jo'nab qolgandir-da.

Abdusamadning taklifi bilan Karim ikkovlari yo'l-yo'lakay qidirishib, Karimning uyiga borishadigan bo'ldi.

Ular qishloqning ot-arava qatnaydigan katta ko'chasi bo'ylab yugurib ketishdi. Ikki tomon ko'z ilg'amas, keng paxtazor. Tizzabo'yi o'sib yotgan shamaloqday ko'm-ko'k g'o'zalar quyosh tig'ida jimirlashib, ko'zni qamashtirardi. Dalaning u yer-bu yerida peshonasini tang'igan suvchilarning ketmonlari yaltirab ko'rinardi. Karim to'xtadi va dala o'rtasidagi odamlarga qarab, ikki qo'lini lunjiga qo'ygan holda, kichkina og'zini ko'vacha qilib, bor ovozi bilan baqirdi:

- Ola si-gir-ni ko'r-din-giz-mi?..

Olisdan uning qulog'iga «yo'-o'-q» degan cho'ziq ovoz arang yetib keldi. Ular nari ketishdi. Ana, o'ng tomonda traktorning guldurosi eshilib qoldi. Uning yonida Dehqonboy aka o'ralashib yuribdi. Bolalar yaqinroq borib, unga ham shu savolni berishdi. Dehqonboy aka:

- Qaydam. Boya yerning etagida bir sigirga ko'zim tushdi chog'i. Lekin olami-qorami payqamadim, - deb javob berdi.



Bu mujmal javobdan yana boshlari qotdi.

– Shu Dehqonboy aka ham qiziq odam-da. Rangini bilmaganini qara! – deb bo'g'ildi Karim.

– Ishga alahsib yaxshi tikilmagandir-da. Senikidaqa sigir bittami? – deb qo'ydi unga Abdusamad.

– Bo'lmasa-chi? O'zi bitta! Jamoa xo'jaligida bunaqangisi yo'q!

Shu zaylda ular terlab-pishib ketayotgan edilar. Karimning otasi boshliq brigada ishlaydigan va hazil-kashlikda nom chiqargan Qoraboy semiz uchrab qoldi.

– Ha, xo'sh, bolaqaylar? O'pkalaringni qo'ltiqlab qolibsanlar?

– Sigir yo'qoldi, amaki... Ola sigir...

– Hm... Ola sigir degin? – Qoraboy semiz xuddi bir narsaning isini bilganday, baroq qoshlarini kerib turib:

– Suyunchiga nima berasanlar? – dedi.

– Qani o'zi? Qayerda? – deb so'radi Karim.

– Men senga aytsam, bundan bir soat burun Dehqonboy akaning qizi Bashorat-chi, o'sha yetaklab ketayotgan edi.

Karim Abdusamadga, Abdusamad Karimga qaradi. Karim qisiq ko'zlarini javdiratib turib so'radi:

– Tag'in hazil qilayotgan bo'lmang, amaki?

– Hazil bo'lsa keyin bilasan, – dedi Qoraboy semiz ishshayib.

– Yur, tezroq... – deb bolalar yugurib ketishdi.

Ular chapga burilib, g'o'zalar orasidagi so'qmoq yo'lga kirganlarida, tabelchi Davlatovga duch kelishdi. U bolalardan hasharga chiqmay nima qilib yurganlarini so'ragan edi, voqeani gapirib berishdi. Davlatov aniq-tiniq bilgan odamday:

– Ey, ola sigirmi? Hali bittasi yetaklab ketayotgan edi! Attang-a. Bilsam ushlab qolardim-a! Boyaroq ayt-



'salarig bo'lmasmidi? – Bolalarning yuraklariga o't yoqdi. Karim jamoa xo'jaligidagi eng ishonchli odamlardan deb yurgan tabelchidan shunday gapni eshitganiga alam qilib ketdi.

Bolalarni Boltaboy aka shiypon yaqinida qarshi oldi. Karim butun voqeani, Qoraboy semiz bilan Davlatovdan eshitgan xabarlarigacha yig'lamsirab gapirib berdi. Boltaboy aka bolalarni bu qadar hayajonga solib tashvishlantirgan hodisaga ortiqcha parvo qilmasdan, kulib qo'ya qoldi. Dadamdan rosa gap eshitaman-da, deb xavotirlanib turgan Karim bunga hayron bo'ldi.

– Qoraboy ham, Davlatov ham jo'rttaga tegajaklik qilishgan. Birov sening sigiringga zormi? Dehqonboy aka bo'lsa o'ziga to'q odam. Yaqinda bitta govmishni mukofotga olib, qo'sh sigirli bo'ldi.

Boltaboy aka hamma yoqqa dovrug' solavermasdan, avval, to'g'ri uyga borib qarashni maslahat berdi. Bu gap bolalarga dalda bo'ldi. Balki dadam aniq bilib aytayotgandir, sigir uydaligi rostdir, deb ishondi Karim. Ola-bula govmishning og'ilxonada sho'x buzog'ini emizib, tog'oradagi tertni shapillatib kavshayotgani ko'z oldida gavdalandi, xursand bo'lib ketganidan ashula aytib yuborgisi keldi-yu, uyga yugurdi.

2

Karim uyga kelib, sigiri yo'qligini bilgandan keyin, yana diqqati oshdi. U nima qilarini bilmas, o'ylab o'yiga yeta olmasdi. Jonivorning begonalar qo'lga tushib ketgani rostmikin deb o'ylarkan, ko'ngli g'ashlanib ketdi. Ishidan qaytasolib sigirni sog'ishga otlangan onasi ham og'ilxonaga borib serraygani-





cha qoldi. Yaqinda tug'ilgan buzoqcha esa onasini qo'rsab, tinmay «umba-a»lamoqda edi.

Endi nima qilish, jonivorni qayerdan axtarish kerak?

Hali ham bo'lsa Qoraboy semiz to'g'ri aytibdi shekilli, Dehqonboy akaning uyiga qidirib bora qolay, deb chog'lanib turganida, dadasi kirib keldi.

– O'g'lim, – dedi Boltaboy aka jiddiy, – Qoraboy amakingning so'zi rost chiqdi. Chatoq qilibsiz: sigirni Dehqonboy akaning yeriga qo'yib yuborgan ekansiz, g'o'zasini payhon qilibdi. Qizi tutib olib ketgani to'g'ri ekan.

– Iya! – deb Karimning kapalagi uchib ketdi. – endi nima qilamiz.

– Endimi? Endi sigirning yonini olib bo'lmaydi. Katta gunoh ish qilib qo'yibdi. Agar shunday gunohni jamoa xo'jaligidan birortasi qilsa, to'ppa-to'g'ri sudga ketardi.

– Bu odammi? Sigir-ku!

– To'g'ri. Bu sigir, hayvonni sudga berib bo'lmaydi. Lekin uni o'z holiga qo'yib yuborgan egasi javobgar.

Karimning, qanaqa javobgar, deb so'rashga tili bormadi. U o'z sigiri Bashorning qo'lida ekanini eshitiboq, yugurib borib ajratib olib kelishga chog'langan edi, ammo otasining so'nggi gapini eshitishi bilan shashtidan qaytdi. Qaytdigina emas, hatto allaqanday bir narsaning vahimasi yelkasidan bosganday bo'ldida, ko'zidan tirqirab yosh chiqib ketdi.

– Qo'y yig'lama, o'g'lim, – deya Boltaboy aka yupatdi va eshikka yuzlandi. – Qani yur, borib ko'ramiz.

Karim entikkancha qo'rqa-pisa dadasi ketidan pildirab ketdi. Nariroqqa borganda, o'zini biroz bosib olib:



- Dada! - dedi, - Bashor jo'rttaga qilgandir, o'chakishib...

- Nega o'chakishadi?

- Tunov kuni bir ish bo'lib, olishib qolgan edik...

- Nima bo'lgan edi? Ayt-chi?

- Katta ko'cha o'rtasiga o'g'it to'kilib qolgan ekan. Men qopga solayotsam, Bashor narigi tomondan yugurib kelib qoldi-yu, qopni bo'shat, jo'na, dedi. Nega desam, bu o'g'it bizning aravadan tushgan, dedi. Bekor aytibsam, biznikidan tushgan dedim-da, qopimga joylab, orqalab oldim...

- Xo'sh, undan keyin-chi?..

- Undan keyinmi? Nima bo'lardi? Orqalab olib ketaverdim. U alamiga chiday olmasdan, bidirlagani-cha qoldi: sen ovora bo'lma, deydi. Dadam katta dehqon, tajribalari ham zo'r deb chirandi. Menga bu gapi kor qildi-da, chiranmay tur, keyin ko'rasan, dedim. U chiransam-chiranmasam shu, deganicha burnini qiyshaytirib ketdi.

Boltaboy aka o'g'lining bu gapiga qarshi bir nima deyishga og'iz chog'lagan edi-yu, ulgurmedi. Bu vaqt Dehqonboy akaning eshigiga ro'para kelib qolishgan edi.

Dehqonboy aka bularni Karim kutganidan ko'ra ochiqroq chehra bilan qarshi olib, hovli o'rtasidagi supaga taklif etdi.

- Ha, Karimjon, qaymoq xumor qildimi? - dedi Dehqonboy aka, bir ko'zini qisib.

Javob o'rniga Karim keng hovlining to'rt tomoniga javdirab qaradi. Boltaboy aka Dehqonboy akaga qararkan:

- Karimjonimizdan katta xatolik o'tibdi. O'rtoqlari bilan o'yinga alahsib ketibdi. Bunga o'zi ham



iqror. Aybini bo'yniga olib, uzr so'ragani keldi, – dedi.

– Bunaqa gunohni qilgandan ko'ra, qilmagan yaxshi edi. Qilib qo'ygandan keyin uzr so'rashdan foyda bormi? Basharti o'zimga qolganda, qo'shnichilik, kechirardim. Daladagi g'o'za mening tomorqamdagi jo'xorim emas-ku. Buyog'ini endi, Bashordan so'raysizlar...

Bashor Karimdan ko'ra ham chog'roq, jamalak sochli, tiyrak ko'zli, jajji qiz edi. U qoshlarini chimirib turib, o'zini sipolikka olib, gapga aralashdi.

– Nega o'zi sigirni qo'yib yuboradi? Nega yaxshi qaramaydi... Bir vaqt qarasam, sigir g'o'zani payhon qilib yuribdi, olako'z o'lgur! Xuddi umrida tomoq yemaganday... To hayhaylab borgunimcha bir tup g'o'zani ko'sak-po'sagi bilan kappalab, jig'ildoniga urdi-qo'ydi. O'ziyam hirsdan battar kuchli ekan, to boshini qayirgunimcha tag'in ikki tupni ezib yubordi. Agar sal qo'yib bersam, butun g'o'zamizni shipiradigan! O'sha tobda qo'limga kattaroq gavron tushmadida, o'lguday savalab, alamdan chiqardim.

Boltaboy aka Karimga qattiq tikilib:

– Mana, ko'rdingmi, o'g'lim, sigiringning qilgan ishini? – deb qo'ydi.

Karim churq etmay, yer chizib turardi.

– O'zi ham unaqa-munaqa g'o'zalardan emasdi! – deya achinib gapini davom ettirdi Bashor, – xuddi mening bo'yimga teng kelardi. Qirqtacha ko'sagi bor edi. Rost. Nega xo'mrayasan, Karim, o'z ko'zim bilan ko'rganman!

Karim chidab turolmasdan:

– Qirqta ko'sak ham bo'ladimi bir tupda! – deb yubordi.



– Ishonmasang yur, oborib ko'rsatib qo'yaman...

– Muncha janjal qilasan bir tup g'o'zaga! – dedi yana Karim.

Boltaboy aka o'g'lining chapaqay jahli chiqa boshlaganini ko'rib, tag'in ishni battar buzib qo'ymasin, degan xavotirga tushdi.

– Hoy, o'g'lim! Qilg'ilikni qilib qo'yib, tag'in nega tilingni bir qarich qilasan. Bashor to'g'ri aytyapti. G'o'za hozir shig'a ko'sakka kirgan. Agar qirqta bo'lmaganda ham o'ttiz beshta ko'sagi bo'lsin. Bitta ko'sak, besh-olti grammdan paxta qilganda, bilasanmi, hammasi qancha bo'ladi? Hisob o'qigansan-ku... Shu egningdagi ko'ylagingga qancha ip ketgan deb o'ylaysan?

Otasining gapini eshita turib Karimning ko'z oldida yangi manzara ochilganday bo'ldi. «Bir tup g'o'zaga shuncha janjalmi?» – degan gapi esiga tushib uyaldi.

Lekin shu bilan birga, otasining so'zlari unga «endi sigiringning bahridan o't», deganday xunuk ma'noda tuyulib, yuragi orziqib ketdi.

– Gapning xullasi, Karimjon, sigirimni bering demoqchidirsan-a, – dedi o'smoqchilab Dehqonboy aka.

Karim «albatta» deb yuboray degan joyida, tilini tiyib qolib, hadiksiragan holda «ha» degan ishora bilan boshini tebratdi.

– Bo'lmasa, – dedi Dehqonboy aka, – akt tuzamiz. Sigirimga yaxshi qarayman. Endi sigirim hech o'zboshimchalik qilmaydi, deb qo'l qo'yan. Raisga aytib ko'ramiz, agar rozi bo'lsa, qaytarib beramiz. Hozircha olib keta tur. Shunga nima deysan?

Karim nima deyishga hayron bo'lib, otasiga termilganicha qoldi. Uning o'ziga qolsa, hozir bu gov-



mish – ola sigir badaliga uyidagi bo‘rdoqi qo‘ylardan istaganlarini berishga ham rozi edi.

Dehqonboy aka sekingina Boltaboy akaning qulog‘iga bir nimalar deb shivirladi-da, otxonaga borib, sigirni yetaklab chiqdi.

Karimning kichkina yuragi gupillab ketdi va shoshib qolganidan:

– Dehqonboy aka! – deb qichqirib yubordi.

Uning nazarida Dehqonboy aka shu tobda sigirni yetaklab raisga olib borib topshiradiganday ko‘rindi.

Dehqonboy aka sigirning arqonini Boltaboy akaga tutqazib:

– Mana, olib keta turinglar! – dedi.

Ota-bola sigirni yetaklab, qorong‘i ko‘chadan ketib borardilar. Karim xuddi Dehqonboy akami, raismi tag‘in qaytarib qolmasin, degan gumonda orqasiga qarab-qarab qo‘ydi.

Uylariga yaqinlashganda, Karim dadasidan:

– Endi qaytib olishmaydimi? – deb so‘radi.

O‘zing nima deb o‘ylaysan? – dedi dadasi sinamoqchi bo‘lib.

– Tushundim, – dedi Karim jiddiy. – Gap sigirda emas, paxtada... bir tup ham g‘o‘za nobud bo‘lmasligi kerak, a dada?

1947

## NOMI CHIQMAGAN XOTIN

«...**M**eni yangi vazifamdan bo‘shatishingizni iltimos va talab qilaman...»

Rizamat aka qo‘l qo‘yayotgan qog‘ozlar orasidan chiqqan xatni o‘qirkan, peshonasi tirishib, ruchkasi siyohdonga botirilganicha qoldi. Ariza ostiga «Otajo-



nova» deb imzo qo'yilgan edi. Rizamat aka xatni va «Jamo'a xo'jaligi raisiga» deb ikki so'zgina yozilgan ko'k konvertni chekkaga surib qo'ydi.

– Bu kim bo'ldi, Qobiljon?

– Labbay xo'jayin! – bo'shagan choynakni olib chiqayotgan Qobiljon qaytib stul chekkasiga o'tirdi, konvert bilan xatga ko'z yugurtirib chiqqach, kulib yubordi.

– Iya, xo'jayin, kelingiz-ku! Buni qachon tashlab ketibdi-ya?

– Ha, darvoqe, Habibaxon degin... – Habibaning yaqinda bo'lgan bir majlisda rahbarlarni tanqid qilib chiqqani, ayniqsa, «bizda odamlarning fikrini mensimaslik bor» degan ta'nasi esiga tushdi. U vaqtda rais: «Gap kelganda aytdi-qo'ydi-da», deb uncha elamagan edi. – Nega u bunday deb ariza yozdi-a?

Qobiljon «bexabarman» deyishga ori keldi shekilli, mujmal javob qildi.

– Hayronman...

– Qoyil kuyovga! – Rizamat aka yo'g'on ovozi bilan kabinetni gulduratib kuldi. So'ng uzun moshbirinch mo'ylovini himarib, xayol surdi, – Nimadan ko'ngli olindi ekan-a? Obro' joyida, daromadi ham chakkimas-ku. Qobiljon deyman, kelinchak uyida ham shunaqa o'jarmi, yo faqat jamoa xo'jaligiga qiladimi?

Qobiljon ishshayganча: «E... unaqa... o'zi...» deb duduqlandi.

– Axir boshda bu ishni o'zi xohlagan edi-ku. O'qishdan kelganda, xabaring bor, brigadirlikni taklif qildim, xohlasang fermada ishla, dedim. O'zi ko'nmadi. Avval zveno bo'laman, pastdan o'rganib chiqaman, deb turib olgan edi-ku. Nega yarim yil bo'lmasdan aynib qoldi? Nahotki sen bilmasang-a?



Qobiljon o'ng'aysizlikdan qutulish yo'lini izladi.

- Ochig'i, necha kundan beri uni ko'rolmayman.

Qobiljonning bu vaji raisni qoniqtirmadi.

- Endi uka, o'zing borib gaplashib ko'r. Aytgin, kechqurun Ermat polvon bilan kelsin.

Kolomenka shimi ustidan kiygan yangigina xrom etigini g'archillatib, Qobiljon chiqib ketdi. Sada ostidagi mototsiklga minib, uzoq brigada tomon yo'l oldi. Raisga yolg'onchilik qilgani uchun yo'l-yo'lakay o'ziga-o'zi sazo berdi. Nahotki kishi o'z xotining tutgan tutumidan, dardi-fikridan bexabar bo'lsa? Yo'q. Hammasidan, arizaning yozilish sababidan ham xabardor. Ammo nima qilsin, xotiniga so'zi o'tmaydi..

Habiba bir yillik kursga ketmasdan burun Qobiljon tabelchilikda tuzuk-quruq ishlab turar, brigadirning o'ng qo'li hisoblanar edi. Habiba o'qishdan kelib qarasaki, eri brigadadan ketib, idora atrofidan bo'zchining mokisiday girdikapalak bo'lib qolibdi. Qobiljon xotiniga yana vazifasini tushuntirib: «Xo'jayin, hisob-kitobga parang ko'rinasan, buxgalterga yordam berib turgin deb pastdan yuqori qildi», dedi. Sodda, lobar xotin Habiba bunga chippachin ishondi. Lekin bir chekkasi sevingan bo'lsa, bir chekkasi ichida achinib qo'ydi: «Essiz, keng dalaga o'rgangan odam stolda muk tushib diqqinafas bo'ladi-da». Haqiqatan ham Qobiljon stolda «muk tushib» uzoq o'tirgani yo'q. Oyoq-qo'li chaqqon, lab-dahanli bo'lganidanmi, rais unga turli ishlar buyuradigan bo'ldi. Goh u idorada, goh omborda, goh qarabsizki, mototsiklni potirlatib dalama-dala brigadirlarga raisning navbatdagi topshirig'ini yetkazib yuradi. Yoz kelib jamoa xo'jaligining markaziy bog'ida ham



yumushlar qaynab ketdi. Qobiljonning ancha vaqti bog'da o'tadigan bo'lib, mehmon-izmon kutish ham uning zimmasiga tushdi. Dalada har xil mish-mish yurib qoldi. Ba'zilar: «Qobiljon bog' brigadasiga ko'tarilibdi» deb havaslansa, ba'zilar «qorovul boshlig'i bo'libdi» deb «maqtaydi». Hazilkashlardan biri Habibaga: «Oshig'ing olchi, dugona, kuyovchang jamoa xo'jaligining xazina boshlig'i bo'libdi», deb kuldi. Habiba chidolmay, bu gaplarni Qobiljonning yuziga soldi: «Axir tayinli ishingiz turganda nega notayin ishlarni qilib yuribsiz?» Qobiljon pinagini buz-madi: «Elning og'ziga elak tutib bo'larmidi. Ishimdan xo'jayin rozi bo'lsa bas-da». Habiba tutaqdi. Umrida san-manga borishmagan er-xotin qizigan yog'ga tuz sepgandek jizillashib olishdi.

Saraton kirib, g'o'za parvarishi avjiga chiqqach, Habiba ko'ch-ko'roni bilan dala shiyponiga chiqib ketdi. Shu sabab bo'ldi-yu, er-xotin ikki-uch kunlab ko'rishmaydigan bo'lib qolishdi. Bu o'rtada vaqtincha tabelchilik qilib turgan o'spirin o'qishga ketib, tabelchilik ham Habibaga yuklanib qoldi. Brigadir: «Qobiljonni tezda qaytarib olamiz», deb so'z bergan bo'lsa ham, biroq so'zining ustidan chiqolmadi.

Qobiljon hozir xotini bilan ko'rishish va o'rtada bo'ladigan muomalani o'ylarkan, ko'z o'ngini tuman bosganday bo'ldi. Mototsikl bog'lar, dalalar o'rtasidan o'tgan yo'l betkayidagi tut, tol va jiydalar ustiga tuproq yog'dirib, Ermat polvon brigadasiga yetib bordi. Habiba keng g'o'za paykaliga suv taratib qo'yib, tut soyasida yelpinib turgan edi. Qobiljon mototsikldan tushib boriboq, uni quchoqlab oldi. Habiba durkun gavdasini qutqarguncha lo'ppi betlaridan ter quyilib





ketdi. Halloslagan va cho'chigancha atrofga alanglab oldi-da, eriga zo'raki xo'mraydi.

– Hazilingiz qursin. Oppa-ochiq dalada-ya...

– Sog'inib ketgan bo'lsam nima qilay!.. Bay-bay-bay saratonning qizig'i-yey! Xumdon-a! Odam kabob bo'lib ketdi! – Qobiljon jujun kiteli bilan do'ppisini tut butog'iga ildi-da, sharqirab oqayotgan ariqdan yuz-qo'llarini yuvib oldi.

– Dalamizning haroratiga hamma ham chidayvermaydi, – piching ohangda dedi Habiba va ariqdagi paqirdan bir kosa yaxna choy quyib uzatdi. – Yuragingizning hovuri bosiladi...

Qobiljon choyni shimirib, hech narsa payqamaganday dedi:

– Kuniga bir shu yoqni ko'zlayman. Qani yo'lim tushsa. Zarur topshiriqlar bilan bandman-da. Kecha birrov vaqt topib keluvdim, yo'q ekansiz. Qo'shni jamoa xo'jaligiga tajriba o'rgangani ketdi, deyishdi.

– O'zingizni oqlamay qo'ya qoling, dog'ulilik qilib, – Habiba araz bilan chetga burildi, to'zigan sochlarini tuzata boshladi. – Hammasidan xabarim bor.

Zuvalasi pishiq do'sira bu juvonning sho'x ko'zlari va kulcha yuzidagi chuqur kulgichlari yosh chehrasini ochib turar, shu sababli arazlaganini ham payqash qiyin edi. Faqat qayrilma qora qoshlari chimirilib, o'rtasida jimjiloq sig'arli chuqurcha hosil bo'lishidagina uning dili ranjiganini sezish mumkin edi.

U eriga ko'z qirini tashlab, dedi:

– To'y oldidan o'ldim-kuydim deganingiz esingizdami?

Qobiljon kutilmagan bu savoldan bir irg'ib tushdi:



– Bo'lmasa-chi!.. Yaxshi ko'rardim-da...

– Nuchuk endi yomon ko'rib qoldingiz?

Qobiljon battar sarosimaga tushdi.

– Nega axir unday deysiz! Tushuntirib gapir-sangiz-chi!

– Xo'p, ayting bo'lmasa: nega ish dolzarbiga keldanda meni tashlab ketdingiz? Nega kasb-koringizni mendan yashirasiz?.. Jazirama dalada kuyib-pishgandan ko'ra soya-salqin bog'da mehmon kutish ma'qulroq-da, a? Tuzuk, halitdan rohatigingizni ko'zlab qolibsiz.

Qobiljon go'yo birinchi marta ko'rayotgandek xotiniga baqraygancha qoldi. Uch yil birga yashab kelgan mehribon qallig'idan bunaqa dashnomni eshittishi shu edi. U lol bo'lib qoldi. Ariza to'g'risida so'z ochishga o'rin ham qolmadi. Oxiri, o'kinganday dedi:

– Tushuning, Habibaxon. O'zinga qolsa bir qadam ham jilmas edim. Lekin rais so'raganda Ermat amakim va'da berib qo'yibdi-da. Axir raisning so'zini ikki qilib bo'larmidi.

Nimanidir kutib, qir tarafga ko'z tikkan Habiba yalt etib eriga qaradi.

– Hayronman. Brigadaning ishiga putur yetadigan bo'lgandan keyin, nega endi raisning gapini ikki qilib bo'lmasin!

Shu choq qir tomondan tapir-tupur chang ko'tarib, boshiga ro'molchani darra qilib boylagan otliq yetib keldi.

– Ish chatoq, opa, – dedi u otning jilovini tortib. – Soy yonida g'o'za paynovidan toshib chiqqan suvga traktor botib qolibdi. Odamlar ko'tar-ko'tar bilan ovo-  
ra. Traktor kechga tomon yetib kelsa kerak.



Narigi paykalga hoziroq kultivatsiya solishni ko'zlab turgan Habibaning diqqati oshib ketdi. Xabarchini imo bilan otdan tushirdi-yu, o'zi otga bir sakrashda minib, shiddat bilan uni shiypon tomonga burdi...

Kunning harorati oshib borardi. O'tkir quyosh seli hammayoqni, xuddi olov dengiziday o'z girdobiga g'arq qilib, misday qizdirmoqda. Chor atrofga yoyilgan yashil g'o'zalar bir qarashda hansirab mudrayotgandek. Aslida esa ular mo'l-ko'l suv va quyosh nuri ni chanqoqlik bilan miriqib shimirmoqdalar, tobora yashnab, to'lishib, daqiqa sayin quyosh tomon bo'yo cho'zmoqdalar. Bir nafas diqqat qilib tinglang-a: paxtazor bag'ridan bilinar-bilinmas mayin, nozik musiqiy ohang quloqqa chalinadi. Bu ohang ipak qurtining katta dahaga kirish oldidan ishtahasi karnay bo'lib, barg shipirayotgandagi pishillashini, katta ko'lning og'ir chayqalgandagi vishillashini, yoki bolalarning gulzorga duv yopirilgandagi vizillashini eslatib yuboradi. Paykallar ustiga tikilsangiz go'yo osmondan son-sanoqsiz ipak tolalari yog'ilib, mavj bilan jilvalanganday ko'zingizni qamashtiradi. Erta tongdan beri dalalar ustida pirillashib, shoxdan shoxga sakrashib, dala yo'llaridan o'tgan elektr simlarda tizilib sayrashgan qushlarning ovozi ham pasayib, issiq havoga singib ketganday.

Brigada shiyponini ko'klam va kuzning achchiq izg'iridan, yoz oftobining issig'idan saqlash uchun tollar va teraklar bilan qurshaganlar. Ammo, o'zlashtirilganiga endigina uch yil bo'lgan yangi yerning yosh ko'chatlari hali oftob tig'ini to'sish darajasiga yetmagan. Tepasiga qizil bayroq tikilgan bu shiypon do'nglikda. Shuning uchun yaxlit, past-



baland paxtazorning etaklarini yalab o'tgan kanalning tik qirg'oqlari, unda dingillashib yurgan echki, qo'ylargacha baralla ko'rinib turadi. Ana paykallar oralab yurgan odamlar orasidan ikki kishi ajralib, gurunglashgancha chiqib keldi. Biri – dehqoncha do'lvar, go'shtdor yuzi va yo'g'on bo'yni shamol ham oftobda qorayib po'st tashlab ketgan, ellik yoshlardagi, harakat va so'zlari vazmin kishi edi. Ikkinchisi esa, zavod mutaxassislariga o'xshab odmi kiyingan, soypar, oq sariq betlari bo'zarib ketgan, somon shlyapali, qotma yigit bo'lib, harakatlari chaqqon, abjirgina ko'rinardi. Ular shiypon orqasidagi gulzor chetidan salqinroq yerni tanladilar-da, sholcha solib yonboshladilar. Shiypondan pastroqda jaz-biz qilib ovqat pishirayotgan oshpaz bularning oldiga choy qo'yib ketdi.

– Shunday, Ermat aka, – dedi yigit o'zini juda yaqin olib va uzatilgan piyoladan choy ho'plab. – Bundan buyoq birga ishlaymiz. Rohatiga ham, azobiga ham sherikmiz. Shuning uchun ochiqcha gaplasha beramiz... Menga viloyatda ham, tumandagi o'rtoqlar ham «Yangi obod» jamoa xo'jaligidan o'rganadigan narsa ko'p, ularning tajribalariga suyansang bo'ladi, deyishgan edi...

Ermata polvon, odatdagi mehmonlar kabi bu odam avval ishimizni maqtar, keyin ba'zi bir kamchiliklarni ko'rsatar degan o'yda edi. Ermat polvon ilgari kichkina va qoloq bir jamoa xo'jaligiga rais bo'lib ko'p qiynalgan, boshi tashvishdan chiqmagan edi. Katta jamoa xo'jaligiga birlashganlaridan keyin, polvonga brigadirlikni taklif qilishgan edi, u jon deb rozi bo'ldi. Dehqonchilikda o'zini ko'rsatish uchun astoydil ishladi, hosilni ancha oshirdi. Jamoa xo'jaligi raisi Ermat



polvonni eski tajribakor deb ortiqcha ishonganidan, keyingi vaqtlarda o'z holiga tashlab qo'ydi, haftalar-cha bu brigadaga oyoq bosmaydigan bo'ldi. Ermat polvon, o'ziga shunchalik ishonganlaridan mag'rur edi. Lekin hozir u og'ir lohaslik kechirdi. Yigit, yutuq-dan asti so'z ochmay, to'ppa-to'g'ri kami-ko'stlardan boshladi. Umuman, jamoa xo'jaligida, xususan, bu brigadada mehnatning yomon uyushtirilganligi, bu yilgi benihoya issiq yozning qo'shimcha qiyinchilik-lari hisobga olinmayotganligi, g'o'za parvarishida uzi-lishlarga yo'l qo'yilganligini ko'rsatdi. Ermat polvon buni hech kutmagani uchun o'zini oqlashga shoshil-di. G'o'zaning ayrim uchastkalarda olaqaroq bo'lib qolganining sababi odamlarda deb tushuntirmoqchi bo'ldi.

– Xolis gap shu, besh qo'l baravar emas, o'rtoq Hikmatov, – dedi Ermat polvon; uning so'zidan «O'zi shunday bo'lishi tabiiy» deganday bir ohang sezilib turardi, – ishlovchilar orasida ishyoqmaslari ham bor.

– Shunaqami? – dedi yigit o'ylanib. – Jamoa xo'ja-ligingiz xiyla baquvvat, daromad yaxshi-ku?

– Albatta! – faxrlanib dedi brigadir. – Yillik taqsi-motda o'n to'rt so'm pul, uch kilodan don tegdi.

– Ha, balli. Shunday bo'lgandan keyin, sizda qana-qa odam ishyoqmaslik qilsin. Daromadi buromadini qoplamaydigan kamquvvat jamoa xo'jaligida bo'lsa boshqa gap. Unda odamlar ko'proq tomorqaga og'ib ketadi. Sizda jamoa xo'jaligi uchun ishlashning nafini bilmaydiganlar basharti bo'lganda ham bitta-ikkita-dir deb o'ylayman.

– Xolis gap shu, o'rtoq Hikmatov, – dedi tan be-rib polvon. – Agar o'shanaqalar ko'p bo'lganda jamoa



xo'jaligimiz ko'tarilarmidi! Uch yildan beri muttasil  
planni oshirib o'rinlatamiz-ku.

Hikmatov ko'k kitelining cho'ntagidan bloknotini  
olib varaqlarkan, raqamlar ustida to'xtaldi:

– Yigirma to'qqiz, o'ttiz bir, o'ttiz ikki. Buni uch yil  
ichidagi ko'tarilish demoqchisiz-da?

Ermat aka mamnuniyat bilan bosh silkib, tasdiq  
ishorasini qildi.

– Rais ham xuddi shu fikrda ekanlar, – dedi Hik-  
matov yengil kinoya bilan va qanoatlanmagan bir  
tarzda davom etdi. – U kishi bilan suhbatlashganim-  
da, jamoa xo'jaligini qanday qilib ko'tarish to'g'risida  
emas, nuqul qanday qilib ko'targanlari to'g'risida  
so'zladilar... Bizningcha, «Yangi obod»da haqiqiy  
ko'tarilish yo'q!

Ermat polvon, xuddi birov bexosdan sovuq-suv  
sepib yuborganday, aftini burishtirdi.

– Nega endi, o'rtoq Hikmatov? – dedi qaddini  
rostdab olib. – O'zi ko'rinib turibdi-ku?

– To'g'ri, sirdan ko'rinishda shunday. Ammo,  
unutmang, ba'zan raqamlar odamni chalg'itadi. – Hik-  
matov bloknotiga qarab oldi. – Siz shu uch yil bada-  
lida jamoa xo'jaligiga qancha kuchlar qo'shilganini  
ham o'ylaysizmi?

Ermat polvon og'ir xayolga botdi: darhaqiqat, shu  
yillar ichida jamoa xo'jaligida traktorlar ko'paydi, har  
xil mashina – asboblarni qo'shildi. Ekish va parvarish  
qilishda yangi usul joriy qilindi. Odamlar-chi? Ilgari  
har yoqqa boshi og'ib ketgan odamlardan bir qancha-  
si qaytib keldi. O'g'it tanqisligidan, «Kuch yetishmay-  
di» degan nolishdan qutulganlariga ham ancha bo'lib  
qoldi.



Hikmatov, kutilmagan holatdan hayronlikka tushib, qisq ko'zlarini pirillatib turgan Ermat polvonga sinovchi nazar bilan tikildi:

- Ha, oqsoqol, haqiqatda kuchlaringiz buloqday qaynab yotibdi. Ammo ular bilan muomalada pala-partish usul, eski andazadan qutulmagan ko'rinasizlar...

Hikmatovning so'zi bo'lindi. Yaqin yerdan otning dukur-dukuri eshitildi. Ermat polvon Habibaning qarshisiga chiqib bordi.

- Vaqtimizniyam, kuchimizniyam ayamasa ekan-sizlar-da! - dedi salomlashmasdanoq Habiba va otni shiypon muyulishidagi jiydaga bog'ladi. Brigadir esa Habibaning bu qiligi'ni «odatdagi o'jarlik»ka yo'yib, bosiq ovoz bilan so'radi:

- Ha, qizim, nima bo'ldi tag'in?

- Nima bo'lardi! Shuncha mehnat behuda ketay deb turibdi. Agar bugunoq kultivatsiya boshlamasak, tayyor yer tobidan o'tadi, shonalar to'kilib ketadi.

- Bizning brigadada-ya? Bunga yo'l qo'ymaymiz, aslo. Qani qizishmasdan gapir-chi, qizim?

Bular Hikmatov ko'rinmaydigan yerda turib so'zlashmoqda edilar. Ermat aka Hikmatov eshitmasin deb astaroq so'zlashga tirishsa-da, Habiba avvalgidan shaxdamroq gapira ketdi. Brigadir undan traktor hangomasini eshitib, ajablandi.

- Hali ham kelmadimi, a? Soyda suv toshganidan xabarim bor. Tezda suvni boshqa yoqqa ag'darib, yo'lni tekislab qo'yinglar deb, topshiriq bergan edimku. Bajarishmabdi-da, ha ishyoqmaslar.

- Bu ishyoqmaslikdan emas, amakijon! O'zingiz surishtirmasdan bolalik xotinlarga topshiriq beribsiz.



Ular bolalari bilan ovora bo'lib, vaqtida borisha olmagan. Biriniki emizikli, biriniki kasal...

– Kasal bo'lsa, doktor chaqirish kerak edi.

– Doktor chaqirganimiz bilan, uning aytganini qilmasak bekor-da! Yaslini salqin yerga ko'chirib, chodir bilan o'ranglar, bolalarga o'yinchoqlar, alohida ovqatlar tayyorlab beringlar, deb necha marta aytgan. Yaslining hozirgi ahvoli gigiyenaga to'g'ri kelmaydi, deb akt tuzib ketgan. Hammasidan xabaringiz bor. Lekin shularning bittasini ham qilganimiz yo'q.

Brigadir kimnidir koyidi:

– Axir yaslga kerakli narsalarni yozdirib kelgin deb, topshiriq bergan edim-ku.

– Topshirgan odamingiz uddalolmay keldi. Zavxozga borsa, buxgalterga yuboribdi, buxgalterga borsa «raisdan farmoyish yozdirib kel» debdi. Rais mehmonlar bilan band ekan. Mana shunaqa sansalorlik.

– Bolaga ish buyur – ketidan o'zing yugur. Shunga ham o'zim borar ekanman-da.

Habibaning badtar zardasi qaynadi:

– Bu arzimagan narsa emas-ku, Ermat aka! Kecha qo'shni jamoa xo'jaligida ko'rib keldim. Shunaqa ishlarning tepasida rais opaning o'zi turibdi. Yaslini, shiyponni shunday boplashibdiki, havasingiz keladi...

Habiba peshonasidagi terni sidirib tashlab, davom etdi:

– Kun qizib ketgandan beri xotinlarga normasini bajartirish qiyin bo'lyapti. Ba'zilar normani yetkazaman deb, sifatini buzib qo'yyapti. Siz mendan talab qilasiz. Men ularni qiyin-qistovga olsam, «O'zing bola





boqib ko'rganingda bilarsan», deyishadi. «Ha bo'l-ha bo'l» deyishni bilamiz, «planni bajaraylik, hosilni ko'taraylik» deb, haybarakallachilik qilamiz-u, ammo odamlarning dardiga quloq solmaymiz...

Habibaning «biz» deb gapirgani Ermat akaga «siz» bo'lib eshitilmoqda, ko'kragiga bigizday san-chilmoqda edi. U, odatdagicha o'zini oqlab, butun aybni boshqalarga, shu jumladan «o'jar» Habibaga ham ag'darmoqchi bo'ldi-yu, ammo ilojsiz, Hikmatov-dan andisha qilib, sukut saqlamoqda edi. Bu hol Ha-bibaga o'z gaplarini mensimagandek bo'lib tuyuldi, izzat-nafsi koyidi va terslik bilan dedi:

– Bilaman, bunaqa g'alvalarga tobingiz yo'q. Lekin tag'in aytishga majburman, – dedi Habiba va traktor ishlaridagi chatoqlik haqida ilgari gapirib yurgan ga-pini yana eslatdi.

Ermata aka brigadasi xo'jalikning kanalga tutash-gan yeridan yigirma gektarcha qo'riqni o'zlashtirgan. Lekin traktorlarni taqsimlashda bu uchastkaning uzoqligi, katta yo'lga chapligi, notekisligi e'tiborga olinmagan. Har safar yer yetilganda traktorni otliq-yayov yugurishib, uch chaqirimcha naridan boshlab kelishga to'g'ri keladi. O'nqir-cho'nqir yo'llar va soy-likdan o'tib kelguncha necha soat vaqt, qancha kuch, yoqilg'i sarf bo'lgani bilan hech kimning ishi yo'q. Yuqoridagilar hadeb, «kultivatsiya grafigi nega buzil-yapti» deb tergashni biladilar, xolos...

– Xafa bo'lma, qizim, hammasini to'g'rilaymiz, – dedi Ermat polvon yupatib, past ovoz bilan.

– Bunaqa va'dani ko'p eshitganman! – dedi kes-kin bosh chayqab Habiba va qat'iy dedi: – Hozirdan boshlab tabelchilik o'zingizga siylov. Ikki quyonni quvib, bittasini ham tutolmaganday, na u yoq bitma-



yapti, na bu yoq. Qobiljonni ishiga qaytaramiz deganingizga o'n kundan oshdi. Hozir o'zim raisni topib gaplashaman. Andisha qilib o'tirsang, mundoq kelib, ahvoling nima kechdi deyishmaydiganga o'xshaydi.

Habiba ot boylangan jiyda tomonga qarab yurgan edi, Ermat polvon uni qaytardi:

– O'zim boraman, qizim. Shoshmay tur, o'rtoq Hikmatov bilan tanish... (Hikmatov ularning bahsini bemalol eshitib o'tirib, oxiri sabri chidamay turib kelgan edi). – Ilg'or zveno boshlig'imiz Habiba Otajonova...

Hikmatov Habibaga qo'l berar ekan: «Shunaqami?» deb qoshini kerib qo'ydi. Chunki shu chog'gacha na rais va na brigadir Habibaning nomini ilg'orlar qatorida tilga olishmaganidan hayron edi.

– Hali ilg'or bo'lganimizcha yo'q, – dedi Habiba, Hikmatovni kelib-ketib yuradigan mehmonlar qatorida ko'rib.

Hikmatov hazillashib:

– Bo'lmagan bo'lsangiz bo'ldiramiz-da; sizdan g'ayrat-u, bizdan madad! – deb qo'ydi. Haligi gaplardan so'ng yuragi toshib ketayotgan bo'lsa-da, o'zini bamaylixotir tutib, Habiba bilan hol-ahvol so'rashdi. So'ng jiddiy tus olib, Ermat polvonga qaradi: – Men bir narsaga ajablanaman. Ishlaringiz tig'iz, mashina yetkazib ulgurolmayapti, g'o'za tobidan o'tib ketay deyapti-ku, ammo dalangizda ot-ulov ko'rinmaydi. Nima, ot-ulovdan foydalanilmasin degan buyruq bormi? Hammamiz-ku, dehqonchilikni butunicha mashinalashtirsak deymiz. Lekin mashinangiz yetarli bo'lganda ham baribir ot-ulovdan voz kechib yuborolmaysiz. Unga o'ziga yarashiq ish topilib turadi.



Hikmatov hoziroq bor ot-ulovni ishga solish kerakligini maslahat berdi. Traktor masalasini hal qilish va rais bilan uchrashish uchun o'zi bormoqchi bo'ldi.

Habiba unga otni keltirgani ketdi. Hikmatov Ermat akaga ma'noli qarab, asta:

– Oyog'idan o't chaqnaydi-ku. Rosti, kimlarga suyanishni bilmaysizlar, – dedi. Ermat aka noxushgina bosh qimirlatib ma'qullagan bo'ldi. Hikmatov otga minarkan, tayinladi. – Kechqurun yana kelaman. Odamlar ketib qolishmasin. Bafurja so'zlashib olamiz. Raisni ham shu yerga taklif qilamiz...

Uning ketidan Habiba shoshilib, Ermat akadan so'radi:

– U kim o'zi?

Ermata aka, ot ustida qovushmaygina ketayotgan Hikmatovdan ko'zini uzmay:

– Yangi sekretar. MTS zonasi bo'yicha, – deb qo'ydi.

– Iya! – Habiba afsuslandi. – Axir nega boya aytmadingiz. Yaxshilab gaplashib olardim-ku.

Brigadir haligi vaziyatda turib, do'ng'illadi:

– Har qancha gapiy bo'lsa kechqurun gaplasha-verasan.

– Albatta! Hammaning oldida aytadigan gaplarim ko'p.

Habiba tez odimlab, o'z zvenosi yeri tomon joy-nayotgan edi. Qarshidan mototsiklda Qobiljon to'qnash keldi.

– Kuta-kuta oxiri izingizdan kelayotgan edim... Xo'jayin tayinlab yuborganlar, kechqurun Ermat amaki bilan birga idoraga borar ekansiz.

– Vaqtimiz yo'q. Kechqurun brigadamizga o'zlari kelishadi, – dedi Habiba qisqa va quruq qilib.



Qobiljon esa anglay olmay, takrorladi:

– Axir xo‘jayinning topshirig‘i...

– Xo‘jayin desangiz og‘zingizdan bol tatiydigan bo‘pti-ya! – dedi Habiba eriga istehzo bilan boqib. – Siz «xo‘jayin» deganingiz sari, hammaning g‘ashi keladi. Xuddi... nima desam bo‘ladi... allakimlarga o‘xshaysiz. Sizdek yigitlar binoyiday mehnat qilib, obro‘ topyapti. Siz bo‘lsangiz... kelgusini o‘ylamaysiz... Nomus qilaman!

Habibaning ko‘zidan tirqirab yosh chiqib ketdi. Zarda bilan yo‘liga jo‘nadi. Qobiljon mototsiklni yetaklab, unga ergashdi va hayajon ichida qichqirdi:

– Habibaxon!.. Jonim!.. Mingashib oling!..

Habiba quloq solmay, ariq yoqalab jadal ketib borardi. Qobiljon esa mototsiklni yetaklaganicha halloslab sudralarkan, halqumiga bir nima tiqilganday bo‘ldi; bu narsa yurak kuyishidanmi yoki vijdon azobidanmi, o‘zi ham bilmas edi. Yuragini bo‘shatib dod degisi, bisotidagi bor yaxshi so‘zlar bilan xotiniga yalinib-yolvorgisi keldi. Tepadan quyosh tobora qizdirmoqda edi...

1955

## VIJDON

**Sh**avkatning nomiga ketma-ket ikki xat keldi. U necha kundan buyon uyida bo‘lmaganidan, pochta-chi xatlarni Safar turadigan palatkaga tashlab ketdi. Safar konvertdagi yozuvlarga qarasa, bittasi Hikmat akadan, bittasi notanish ayoldan. Hikmat aka «avia» yuboribdi, zarur gaplari bo‘lsa kerak. Yana uch kun o‘tdi. Shavkatdan darak bo‘lmadi. Safar: «Uyiga ket-



gan bo'lsa yetib borgandir», deb taxmin qilgandi, Hikmat akadan shoshilinch telegramma kelib qoldi. Bunisini Safarning nomiga yozibdi. «Shavkat sog'salomatmi? Tezda javob yoz», debdi.

Safarni tashvish bosdi: «Nima deb javob yoza-man? Qayoqqa ketdi ekan u daydi? To'g'rilikcha, dar-di-kasalini aytib ketganda ham, baharnav edi. Demak, juda to'nini teskari kiyib olibdi-da». Safarga qolsa, hech yomonlikni ravo ko'rmasdi. Necha yil bir dars-xonada ta'lim olishgan, bir yotoqda turib, bir tovoqda ovqat yeyishgan og'aynisi-ku. Kelib-kelib musofirchilikda oralari buzilib, yuz ko'rmas bo'lsalar, eshitgan quloqqa yaxshimi? O'rtada o'tgan gaplarni, ayniqsa, Hikmat akaga qay til bilan aytsin. U o'g'lini dashtga jo'natishda: «Avvalambor, senga orqa qilyapman, Safar. Shavkat to'ngso'z, sen bilan bo'lsa, zoyelik tortmaydi, bizning ham ko'nglimiz to'q bo'ladi», degani Safarning esida-ku. Endi bu yog'ini eshitsa nima derkin?

Safar necha kun o'y surib yurdi. Oxiri, Hikmat akaning telegrammasini javobsiz qoldirishni noqulay bildi. Ammo so'nggi oy ichi bo'lib o'tgan voqealardan qaysi birini yozsam ekan deb, o'ylab ketdi...

Jazirama saraton kunlaridan biri edi. Xumdonday qaynab hansiragan qum sahrosidagi gaz razvedkachilari qishlog'iga avtobusda bir to'da yigit kelib tushdi. Shular orasida kechagina oliy maktabni bitirgan yosh geolog Safar ham bor edi. Unga palatkadan joy berishdi. U yengil brezent karavot ostiga chadonini tiqdi-da, ko'chada to'pig'igacha qumga botib yurib, do'stini izladi.

Qishloqdagi pastak baraklar safida oppoq ko'r-kam bino ajralib turardi. Uning eshigidan to'kis kiyingan yigitcha savlat to'kib chiqdi. Kiftigacha tush-



gan silliq sochi, burun katagiga saqichday yopishgan mo'ylovchasi, olabayroq ko'ylagi, hozirgina dazmol-dan chiqqan pochasi tor shimi, tovoni-yu panjalari-gacha valangar tuflisi o'tgan-ketganlar diqqatini dar-rov o'ziga tortdi. Safar uni ko'riboq, oldiga yugurdi.

– Qachon yetib kela qolding?

– Allaqachon! – dedi Shavkat, odaticha lof urib. – Nihoyati o'ttiz minutda uchdim-keldim. Shundoq ro-hat, shundoq antiqa. Osmon-falakdan qarasang, Qi-zilqum xuddi bir dengiz, o'zingni shu dengizda suzib ketayotgan kemanding kapitani deb faraz qilasan...

– Demak, romantika boshlanibdi-da? – dedi Safar, do'stining dashtga chiqish oldidan aytgan gapini esi-ga solib.

Shavkat huzur qilib kuldi. Yaqinda u qum sahrosi-da gaz vulqoni otilib chiqqani, ham uni ochgan qah-ramonlar xabarini eshitib, juda qiziqib qolgan, «eh, o'shalar orasida men ham bo'lganimdaydi!» deb orzu qilgan edi. Shunday ajoyib sarguzashtlarga o'ch edi u...

– O'zing-chi, og'ayni, yaxshi keldingmi?

Safar Buxorodan buyog'iga avtobusda uch soat-dan ortiqroq og'ir yo'l bosib kelganini aytuvdi, Shav-kat masxaraomuz ishshaydi.

– Pulni ayading-da, og'ayni. Bo'lmasa, osmonda maza qilarding. Qani bu yoqqa...

Oq bino ichiga kirishdi. Ozoda, yop-yorug' xona. Shavkat, oppoq choyshab, guldor adyol to'shalgan va o'rtasiga paryostiqlar qubba qilib qo'yilgan sim kara-votga imo qildi-da, bosh barmog'ini «vo!»lab qo'ydi. Safar ichida havas qilgan bo'lsa-da, sirtiga chiqarma-di.



- Chamadoning qani? - dedi Shavkat.  
Safarning palatkaga joylashganini bilib, achindi.
- Xo'p, anoyisan-da. Haqqingni tanimaysan. Axir nimaga yaxshi joy talab qilmading?
- Zarari yo'q... O'zing shu mehmonxonada turaverasanmi?
- Bo'lmasam-chi! Sen ham harakat qilib, shu yerga o'tib ol, og'ayni!
- Safarga bu taklif malol keldi.
- Qo'ysang-chi, odamlar nima deydi?
- Shavkat aftini burishtirdi va cho'ntagidan «Layka» sigaretini olib tutatdi.
- Qiziqsan-a, haqini to'lab turganingdan keyin, birovning necha pullik ishi bor!
- Pulingni pisanda qilaverasanmi! Axir biz komandirovka bo'lib kelmaganmiz-ku! - Safar qizishib, xonadan chiqdi.
- Orqasidan «qayoqqa?» deb chiqib kelgan Shavkatga qayrilib ham qaramadi. Ular oldinma-keyin oshxonaga tomon borishardi. Derazalariga sim to'r tutilgan, sement poliga liqildoq yengil stollar qo'yilgan oddiygina oshxonaga kirgan hamon Shavkat nimagadir ijirg'anib qo'ydi. Xo'randalar bo'lsa uning ohanjamali ust-boshiga kulimsirab qarashayotganidan u bexabar edi. Ovqat olish uchun tuynukka navbatga turishganda, bittasining: «Sirk masxarabozi kelib qoldimi», degani Safarga eshitildi-yu, lekin Shavkat o'zini eshitmaganga oldi. Ovqatlanish vaqtida ham ko'plar Shavkatning nozik harakatlariga, qog'oz bilan qoshiqni qayta-qayta artishi va nonni vilkada yeyishiga zimdan nazar solib qo'yishardi. Sergo'shtgina shavlani Shavkat bo'tqaga o'xshatdi, shavlaga maza kiritadigan



murchning yo'qligi, tuzdondagi tuzning esa, yirikligidan shikoyat qildi. Ensasi qotib o'tirgan Safar:

– Aytishlaricha, ovqat ustida ko'p gapirish sog'liqqa zarar, – dedi hazilga olib. Bu Shavkatga qattiq tegdi.

– Juda dono bo'lib ketibsanmi! Gapim yoqmasa eshitmay qo'yaqol.

– Xiyol o'pkangni bosib ol, og'ayni. Markazda o'qib kelgan bitta sen emas...

– Men faqat o'zimni o'ylayotganim yo'q!

– Sekinroq... Boshqalarni o'ylab nima qilding? Avval ishga kirishib, o'zingni ko'rsat, keyin gapir-da. Xalq maqolini eshitmaganmisan: «O'ziga yeng bo'lmagan, boshqaga en bo'larmidi...»

Shavkatning rangi bo'zarib, chakka tomirlari bo'rtib ketdi, baqirib yuborishga atrofdagilardan hayiqdi...

Shunday qilib, ikki do'st o'rtasidagi muomala kundan kunga soviy bordi. Shavkatning fe'li Safarga ilgaridan ma'lum edi, albatta. Biroq, universitetdalik chog'lari bu uncha bilinmagan, talabalar jamoasi uning chiziqdan chiqishiga ko'pda yo'l qo'ymagan edi. Butkul boshqacha hayot, o'zgacha muhit ichida uning har bir qadami ko'zga yaqqol tashlanib qoldi. U har bir harakatida o'zining ma'lumoti va diplomini pisan-da qilayotgani ochiq ko'rinardi.

Safar o'z ishiga berilib, ba'zi kunlari do'sti bilan uchrasholmas edi. Gaz konlari qishloqdan uzoq-uzoq yerlarga sochilib ketgandi. Shavkatning cheki sinov uchun parmalanayotgan yaqinroq quduqqa tushgan bo'lsa, Safar undan yigirma chaqirimcha naridagi uchastkaga yuborildi. Shu sababli Safar ishdan kech qaytar, charchab, palatkadan chiqqisi kelmasdi.





Hammasidan og'iri Qizilqumning injiq tabiati, betinim garmseli... Shunisi kishilarning jig'iga tegib, ishning beliga tepib turardi. O'qtin-o'qtin zo'r alangaga kerosin sepganday, qum bo'roni quturar, hammayoqni alg'ov-dalg'ov qilgandan so'ng asta-sekin avjidan tushardi. Bo'ron tingani – konchilar omadi yurishgani. Bunday g'animat kezlarda kunduzgi ishni kechasiga ulab yuborishaverardi. Ilgari dala-dashtlarga ko'p chiqqan bo'lsa-da, bunaqangi og'ir mehnatni ko'rmagan Safarning bir-ikki haftadayoq a'zoyi badani kuyib ketdi... Goho u qishloqda Shavkatga duch kelsa, Shavkat ziyraklik qilib, darrov ahvol so'rardi. Safar ochig'iga ko'chib, ish qiziqarli bo'lsa ham og'ir ekanini aytardi. Shavkatning o'zi-chi, kirtaygan ko'zlari, vaqtida yuvib-taralmagan paxmoq sochlari va so'z ohangidan xiylagina uringani sezilardi-yu, do'stiga sir boy bergisi kelmasdi. Ko'p o'tmay, Shavkatning chuvi chiqib, uning haqida hazil-mutoyiba gaplar aylanib qoldi. Safar palatkada birga turadigan yangi oshnasi – yosh muhandis Marat bilan choyxonada shaxmat o'ynayotgan edi. Yon-beridagilar kimnidir askiyaga olib qolishdi. Biri:

– U kishim bizga ishlagani emas, ish ko'rsatgani kelganlar, – deb kesatsa, boshqasi:

– Ishni emas, o'zlarini ko'rsatgani kelganlar! – deb payrov qiladi.

Yana bir shoirtabiat o'spirin qofiyali qilib oldi:

*«Eshik oldi gul hovuz – gul ko'rgani kelganmiz.*

*Gulni bahona qilib, yor ko'rgani kelganmiz...»*

Bo'ldi qahqaha, bo'ldi hangoma. Safar kim haqida gap borayotganini payqab, xayoli og'di, shaxmat donalari o'rnini almashtirib yuboraverdi. Unga sari Marat ajablanib kelardi. Safar o'yinni to'xtatdi va



yigitlarga quloq sola turib, g'ashi kelganini yashirmadi:

– Yaxshimas, birovning orqasidan buncha chal-pish!..

– To'g'ri kelsa, yuziga ham chaplayveramiz! – dedi chapani chalish yigit.

– Ishonmasangiz, – dedi shoirtabiat o'spirin, – kechqurun tansa maydonchasiga boring, do'stin-gizning hunarlarini ko'rasiz.

– Sizlar o'ylagancha emas! – dedi yana qaytarib Safar. – Shavkatda uncha–muncha yengiltaklik bor-u, ammo vijdoni toza...

Marat unga g'alati qarash qildi..

– Sizningcha, axloq bilan vijdon ikkisi boshqa-boshqami?

Kutilmagan savoldan ikkilanib qolgan Safar tuti-linqiradi:

– Vijdon deganda... o'z vazifasiga qarashni ayt-moqchiman.

– U o'z vazifasiga halol qarayapti deb o'ylaysizmi?

– Bo'lmasa-chi?

Safar do'stini o'jarlarcha himoya qilayotganiga Marat juda ajablandi.

– Xafa bo'lmang-u, yanglishyapsiz. Sizga ay-tishga tilim bormay yuruvdi... Kelganiga yarim oy bo'lmasdan brigadadagilarning ixlosini qaytardi. Kon qazish ishida go'dak-ku, kattalarga aql o'rgatmoqchi bo'ladi. Ishidagi kamchilikni ko'rsatishsa, bo'yniga ol-masdan: «Sizlar bu yerda meni kamsityapsizlar. Meni universitetning o'zida qolib ishlashga ham taklif qi-lishgan edi», deb opqochadi. O'tgan kuni ishga ham chiqmasdan, kasal bo'ldim, deb vaj qildi. Keyin bilsak, kechasi tansaga ichib borib qizlarga teginibdi, janjal



chiqarib, militsiyaga tushibdi... Shunaqa «geroy» chiqdi do'stingiz, – dedi ketini kulgiga olib Marat va katalardan eshitgan gapini esladi: – Ko'ngilning ko'chasi ko'p, jilovini qo'yvorsang, qaylarga elitmas...

Maratning so'zlari «yaqin do'stga bunchalik beparvo bo'lish mumkinmi» deganday tuyulib, Safarni xijolat qildi. Uning so'zlariga ishonmaslik mumkin emasdi. Chunki u Shavkat bilan birga bir uchastkada ishlaydi, ham shu uchastkaning yoshlar yetakchisi. Safar keyingi kunlar surunkasiga quduq tepasida bo'lib, buyoqdagi hodisadan bexabar qolganiga afsuslandi. Bordi-yu oldinroq bilganida, yomon yo'ldan qaytara olarmidi?.. U, do'sti bilan aloqasining sovib qolganini boshqalarga, jumladan, Maratga bildirishdan ham nomus qilardi. Chunki u, do'stining qilishi uchun ich-ichidan qandaydir mas'uliyat his etardi. Chindan ham Shavkatning injiqliklariga chidab, bir yerda turib, yonma-yon ishlasa, shu hodisaning oldini olgan bo'larmidi balki. Axir ishga tayin bo'lish vaqtida Safar o'zini Shavkatdan chetroq tutish uchun gina uzoq uchastkani ixtiyor qilgandi-da... «Bo'lar ish bo'ldi. Endi nima qilish kerak?» Bu savoliga javob axtarib Maratga termilganicha qoldi. Marat buni payqaganday:

- Unga yordam berish kerak, – dedi.
- Qanday qilib?..
- Kamchiliklarini ko'rsatib tushuntirib... biz yoshlar guruhida shunday qilmoqchimiz. Siz ham qatnashing.

Safar yana nimaningdir andishasiga bordi:

- Majlisga qo'ymasdan oldin o'zimiz gaplashsak qanday bo'larkin-a?
- Foydasiz. Bir qizdan shikoyat ham tushgan...



Safar shoshib qoldi, do'stini kutayotgan jazoni qo'ldan kelgancha yumshatish umidida uni hoziroq topib suhbatlashmoqchi bo'ldi. Borib, mehmonxonadan topolmadi. Boshqa yerlarni qidirishga shamol xalal berdi. Ko'p o'tmasdan palatkaga Shavkatning o'zi kirib keldi. Safar bilan sovuqqina ko'rishdi-da:

– Chittak qani? – deb so'radi. (Marat juda jikkak bo'lgani uchun unga shunday laqab qo'yib olgan edi.)

– Avvalo, uning oti bor, – dedi Safarning ishqori ozib, – undan keyin, nima ishing bor edi?

– O'zim... – Shavkat uyog'ini aytmadi. Labiga «Layka» qistirib, birpas so'rib turdi-da, dabdurustdan yorildi, – Ariza bermoqchiman...

– Qanaqa ariza?

– Uchastkadagi ishdan bo'shab, idoraga o'tmoqchiman...

– Iya, ha, kon qazishda romantika yo'q ekanmi?

– Mazax qilma! – dedi Shavkat og'ir olib va uchastkada ba'zilar unga kun bermayotganidan nolidi.

Safar bunday deb ariza berish uyat bo'lishligini tushuntirishga urindi:

– Undan ko'ra bizning uchastkaga o'tkazishlarini so'ray qol, birga borib kelaveramiz.

Shavkat bunga yurmadi. Safarning zardasi qaynadi.

– Bo'lmasa maslahat solib nima qilasan!

– Senga maslahat solayotganim yo'q! – deb to'ng'illadi Shavkat va eshikka yuzlandi.

– To'xta! – dedi yo'lini to'sib Safar. – Ayta qol, Maratda nima ishing bor?

– Senga aloqasi yo'q...

– Aloqasi bor! – dedi cho'rt kesib Safar. – Ayta qol, Maratda nima ishing bor?



- Senga aloqasi yo‘q...  
– Aloqasi bor! – dedi cho‘rt kesib Safar. – Bilaman...  
– Nimani bilasan?  
– O‘zingni bos, o‘tir... – Safar uni zo‘rlab pastgina «eshak»ka o‘tqazdi-da, Maratdan bilgan sirlarini ochib soldi.

Shavkat quruq tutantiriqday lovillab ketdi:

– Ko‘pirtiraveradi u! Ko‘rolmaydi meni! O‘ziga bo‘ysundirib olmoqchi. Bo‘ysundirib bo‘pti!

Safar o‘zini arang bosib, yalinishga o‘tdi: agar qaysarlik qilaversa, yoshlar tashkiloti qattiq chora ko‘rishi mumkinligini aytib, ogohlantirdi. Shavkat esa, Safarning o‘z do‘stini himoya qilaman deb, yangi o‘rtoqlar oldida o‘sal bo‘lganidan bexabar, o‘shqirdi:

– Ha, sen ham ularga qo‘shilishib, obro‘yimni to‘kmoqchimisan! Kechdim bunaqa do‘stdan!..

Tashqarida qog‘oz parchalarini, xas-cho‘plarni va, hatto, baraklar oldiga ilingan kirlarni har yoqqa uchirib shamol quturayotgan, qum to‘zoni ko‘z ochishga qo‘ymayotgan bo‘lsa-da, Shavkat zarda bilan chiqib ketdi...

\* \* \*

Safar telegrammaga hali javob yozib ulgurgani yo‘q edi. Palatka oldida «Volga» to‘xtab, gudok berdi. Hammayog‘i qumda sarg‘ayib ketgan och-havorang yangi mashinadan intelligentcha kiyingan yo‘g‘on gavdali, qizil mag‘iz yuzli kishi harsillab tushdi. Bu – Shavkatning dadasi Hikmat aka edi. Uni ko‘rdi-yu, Safar esankirab qoldi. Hikmat aka u bilan quchoqlashib ko‘risharkan, o‘g‘lini so‘radi. Safar shoshib:



– A, hozir, amaki... qani uyga... – deganicha, ichkari boshladi.

Hikmat aka egila-bukila tuynukdan kirdi, «eshak»-ning belini sindirib yuborguday zalvor bilan o'tirdi. Shu chog' dimog'iga konserva, chesnok, sovun bilan allaqanday dasht o'tlarining omuxta hidi gup etib urildi-yu, burnini jiyirdi va poxol shlyapasi bilan o'zini yelpib, «uy»ni ko'zdan kechirarkan:

– Yaxshi... yaxshi... – deb kuldi. – Eshitganmisan, jiyan, eskilarda bir gap bor: musofir bo'lmaguncha musulmon bo'lmaysan, deydi... Ha, yigitning mardi yo'l ko'radi, jahongashtalik qiladi. Mening o'zimni ol-sang... – tag'in o'g'liga xayoli og'di. – «Hozir» degan-ding, qani u?..

Safar yana «hozir» dedi-yu, tashqariga chiqdi. To choyxonadan choy keltirguncha javobga hozirlandi.

– Topdingmi? – dedi betoqat bo'lib o'tirgan Hikmat aka, Safar kirishi bilan.

– Yo'q, amaki! – dedi Safar va ortiq chalg'itishni foydasiz bilib, tutila-tutila Shavkatning ketib qolgani-ni aytdi.

– Rostdanmi! – dedi Hikmat aka tarvuzi qo'l-tig'idan tushgan odamday shalayim tortib va boshini ikki qo'li orasiga oldi. – Xatim bilan telegrammaga javobi boravermagandan yuragim g'ash tortgani bejiz emas ekan-da...

Uning qayta iltimosiga ko'ra, Safar Shavkatning kelganidan to ketgunicha qilgan ishlarini to'la hikoya qildi. Hozirgina kirib kelgan Marat bularni tasdiqladi.

Shavkatning g'oyib bo'lgani otaning yurak-bag'rini tobora ezmoqda, hozir u o'g'lining qilmishiga baho berishdan ojiz edi. Shu sababdan u daf'atan no-rozi ohangda dedi:



– Nahotki bitta do‘stingizni yo‘lga sololmasangiz...  
O‘qimishli yigitlar bo‘la turib-a...

Safar o‘ng‘aysizlikka tushib, o‘ziga qaratilgan ta‘naga javob topolmay qoldi. Uni Marat o‘z himoyasiga oldi.

– Amakijon, kechiring bizni, – dedi u mulozimatni keltirib, – yo‘lga solish, tushuntirish bo‘lsa shunchalik bo‘lar. O‘g‘lingiz o‘zi do‘st kim, dushman kim – ajratolmaydi. O‘qigan bilan tarbiyasi bo‘lmasa qiyin ekan...

Ko‘rinishda o‘g‘lidan ancha chog‘, oddiy ishchi ki-yimidagi boladan shundoq dashnom eshtarman deb Hikmat aka xayoliga ham keltirmagan edi. Uning badanini sovuq ter bosib, vajohati o‘zgardi, palatka ichida u yoqdan bu yoqqa yurib, o‘ylardi: «Nima demoqchi bu jinqarcha? Nahotki tarbiyalay olmag-an bo‘lsam o‘g‘ilni? Butun mehrimii ko‘zimning‘ oq-qorasi yolg‘izimga bersam, hech narsadan kam-sitmasam, aytganini muhayyo qilsam, tag‘in qanaqa bo‘lsin tarbiyalash!..» U, ruhan ezilib o‘tirgan soddadil Safarga, ko‘zi burgutnikiday yongan «jinqarcha»ga ti-kilarkan, shu fikr miyasini timdalay boshladi: «Nega Shavkatdan boshqacha-a, bular? Ehtimol, yoshlikdan turtinib-surtinib mehnatda o‘sganlari uchunmikin? Safar-ku, shunaqa yetimlikda o‘sdi. Unisi-chi? U ham oddiy qishloq bolasiga o‘xshab ketadi...»

Hikmat aka Maratni hayron qoldirib, xushmuoma-lalik bilan so‘roqqa tutdi:

– Siz qayerliksiz, jiyan?

– Toshkentlik...

– Ha, Toshkentning o‘zida o‘qib kelgan ekansiz-da?.. Otangiz kim bo‘ladilar?

Marat otasining ismini va bir savdo tashkilotining boshlig‘i ekanini aytdi.



– Iya, hamkasaba ekanmiz-ku! – dedi-da, sukutga ketdi. Shu sukut asnosida u «hamkasaba» bilan o‘zining lavozimi, mavqeyini taqqoslab ko‘rdi, taqqoslash natijasida ikki oilaning sharoitida farq ko‘rmadi. «Nega bo‘lmasa bolalarimizda farq katta? Biri undoq-u, biri mundoq? O‘g‘limni o‘qitdim, odam qildim, otalik burchimni ado etdim deb quvonganimda, nainki yuzim yerga qarasa? Qanday xatoga yo‘l qo‘ya qoldim men», degan savollar dilidan o‘tdi-yu, qiyin jumboqqa aylandi.

Jumboq va tahlikadan miyasi g‘ovlagan Hikmat aka, endi hayallamay qaytadigan bo‘ldi. Shundagina Safarning esiga xatlar tushdi. Hikmat aka u tutqazgan xatlardan o‘zinikini yirtib tashladi-da, ayol familiyasi yozilgan xatga ko‘z tashlab, darrov tanidi: bo‘lajak kelini Mahbubadan edi bu. Mahbuba to‘rtinchi kurs imtihonlaridan yaxshi o‘tganini va avvalgi va‘dasicha, praktika o‘tish uchun gaz koniga yaqinda kelishini yozgan edi... «Mahbuba bu ko‘ngilsizliklarni bilsa nima deydi? Yo‘q, asti bila ko‘rmasin. Shavkatni topiboq, iziga qaytarishim kerak!» deb ahd qildi. Hikmat aka mashinaga chiqarkan, yigitlardan uzr so‘raganday dedi:

– Xafa bo‘lmanglar. Nodonna topib, ta‘zirini beraman. Darrov qaytarib yuboraman. Konda hech bo‘lmasa ikki yil xizmat qilib bersin...

Bu gap Safarga yoqinqiramay, sekin:

– Undoq bo‘lsa kelmaganiyam tuzuk, – degan edi, tili qichib turgan Marat qattiqroq qilib qo‘shdi:

– Ha, vaqtinchalik mehmonning nima keragi bor bizga!..

So‘nggi luqmalar motor guldurosida Hikmat aka-ga yetib bordimi-yo‘qmi, u:





- A?.. - deganicha, xayrlashishni ham unutib, jo'nadi...

...Hikmat aka tanish-bilishlarinikidan o'g'lini qidrib ovora-sarson ekan, Shavkat bexabar. Samarqandga allaqachon kelgan-u, uyiga bormay, bir oshnasinikida «mehmon»da edi.

Kuni kecha u azmoyish olgani universitetga bordi. Koridorda o'qituvchisi - keksa professorga duch keldi. Professor uning kelishini ko'rib ketish ma'nosida anglab suyundi-da, kondagi ishlardan so'radi. Darsga shoshib turgani uchun Shavkatniig javobini kutmasdanoq:

- U yerga borib soz ish qilding-da, o'g'lim. Zo'rkon, ilm-hikmatning ulkan xazinasi. Haqiqiy mutaxassis bo'laman, yurtga xizmat qilaman, degan odam o'sha xazinani egallaydi. Seni universitetda qolishga qistamaganimiz ham o'zingning foydang bo'ldi, - dedi-da, o'rtoqlariga salom aytish va xat yozib turishni tayinlab, zalga kirdi.

Shavkatning universitetdan xizmat topish ilinji uzildi, birpas zal eshigida ag'rayib turdi-da, yana orqasiga qaytdi. Xayol og'ushida kezarkan, bir vaqt o'zini odamlardan chetda, notanish so'qmoqda ko'rdi. Bu so'qmoq qayoqqa elitishini o'zi bilmasdi. Yolg'izlikdan yuragiga vahima tushdi va yo'l so'rash uchun ko'zi olazarak bo'lib, odam axtara boshladi...

1961

## BAHOR NAFASI

**Q**ishloqqa kelganimdan buyon hamma ish xamirdan qil sug'urganday boryapti deb ayto olmayman-ku, ammo, har holda, o'zimni bu yerda erkinroq sez-



yapman, – deb hikoya qildi, «Yangi turmush» jamoa xo'jaligiining agronomi Qodirjon Komilov. – Dehqonchilik jonli, qiziqarli ish-da. Butun vaqtim dalalarda, odamlar orasida o'tadi. Avvaliga: jamoa xo'jaligi katta, tarmog'i ko'p, quvvati o'rtacha, qiynalib qolmasmikinman, deb yuragim po'killadi. Menga o'xshagan tortinchoq uchun, ayniqsa, qiyini – har xil mijozdagi kishilar bilan elakishib ketish. Har qalay dalada ko'p yurib bir qancha oshna-og'ayni orttirdim. Yosh-yalanglar meni «agronom aka» deb chaqirishadi, qiziqqan narsalarini tortinmay surishtiraverishadi. Ba'zida yarmi hazil, yarmi chin qilib: «Kelinoyim qachon keladilar? Yo bizni nazarlari ilmaydimi?» deb ham qo'yishadi.

Yangi do'stlarim suhbat vaqtida ba'zan agrotexnika masalalari bu yoqda qolib, olamdagi voqealardan savol yog'dirishadi, meni agitatorga aylantirib yuborishadi. Ko'nglini juda yaqin olganlari-ku, dardi-hasratlarini yoki xursandligini aytgani uyimgacha keladigan bo'lishdi (men qishloqning o'rta yerida boloxonada turaman).

Bahorgi ekish kunlaridan biri. Kechqurun daladan charchab kelib, kitob o'qib yotgan edim. Traktorchi yigit Mirvosil kirib keldi. Zuvalasi pishiq, ko'k kombinezonli bu yigitni traktorchilar «Vaska» deb atashardi. Uning negadir dili xira ko'rinar, qora moy dudi, oftob ta'sirida qorayib, sho'ralab ketgan peshonasi, kechki salqinga qaramasdan, terchirab turardi.

– Vaqtingiz bormi, agronom aka?

Uni stulga taklif etdim. «Ishlar qalay?» deb so'ramasimdanoq, o'zi gap boshladi:

– Ishning mazasi yo'q. Ancha vaqtim bekor o'tadigan bo'ldi!



- Ha, nima bo'ldi? Mashinang buzildimi?

- Yo'q, mashinam egarlangan otdayku-ya... Qo'shoqboy akaning adirga tutashgan yangi uchastkasiga o'tsam, yer tayyormas, urug' ham dorilanmagan. Ekish brigadasiga yordam uchun ajratilgan odamlardan darak yo'q. Shunaqa, hammayoq dumi xurjunda. Nega bunday bo'ldi desam, brigadir: «Bugun bizga o'tishingni qayoqdan bilay», deydi. Iya, axir o'tgan kungi majlisda o'zingiz: men tayyorman, obi havo g'animat, ekib olaylik, erta ekkan yutadi dedingizku, desam, u kishi: «Mening ishimga aralashma, nima qilsam o'zim bilaman» deydilar-a. «Yo'q, aka! Bizni xombol deb o'ylamang. Teng sherikmiz, hosilga babbaravar javobgarmiz!...» dedim, menam...

Mirvosil tobora tutaqib borardi.

- Xo'p, endi qachon boshlaydigan bo'ldinglar?

- Bir to'xtamga kelolmadik. O'zingiz borib ko'ring, hali ancha ishi bor. Innaykeyin, katta yerning kemtiginini ko'rganmidingiz, o'sha hali ham to'g'rilanmagan.

Qishda yerni qayta planlashtirib, kartani yaxlitlashda qishloq chekkasida turuvchi Xadicha buvi tomorqasining bir qismi paxta yeriga tushib ketgan. Ammo Xadicha buvi kuzda bu joyga piyoz ekib qo'ygani uchun, uni ko'klamda bo'shatib berishga va'da qilgan. Men erta ko'klamdan buyon bu kemtikni to'g'rilab qo'ying deb, Qo'shoqboy akaga necha marta eslatganman. Kuni kecha ham shuni ogohlantirgan edim. U, «Bo'pti, bajaramiz - xotirjam bo'lavering», degan edi. Nahotki yana unutgan bo'lsa!

- Qo'shoqboy aka shu kemtik uchun aybni jiyaniga qo'yyapti, Anorxonga.

- Anorxon? Haligi... Seni yo'qlab turadigan do'm-boq qiz-a?



«Ihi, – deb qo‘ydi Mirvosil xiyol qizarib, – u bilan gaplashsam, «men-ku, allaqachon ko‘nganman-a, oyimni ko‘ndirolmay garangman» deydi. Keyin ikkovimiz Xadicha buvining oldiga bordik. Unga: «Bu yil yangi usulda chigit ekish uchun yerimiz to‘rt tomondan traktor bemalol kira oladigan tep-tekis bo‘lishi kerak», deb tushuntirsak, kuladi: «Tushunaman, allaqachon tushuntirgan qizim. Menga ikkita tashviqot-chining keragi yo‘q... Axir men tomorqamni bekorga qirqtiraveramanmi! Ne umid bilan ekin ekkanman. Sotib qizimga sep qilmoqchiman» deydi, Anorxon uyalib qochib ketdi. Men: «Kampirjon, qizingizga sepning darkori yo‘q, o‘zi chiroyli» desam, tushunib qoldi-yu: «He, turqing qursin, shumtaka! Sendaqa qora barzangiga beradigan qizim yo‘q!» deb qarq‘ab berdi. Keyin yana yotig‘i bilan gapirib ko‘rsam: «Bor, bor, tashviqotingni Qo‘shoqboyga qil. Avval tomorqamni ora ochdi qilib bersin» deydi. Opa-ukaning o‘rtasida qanday gap o‘tgan, tushunolmay qoldik.

Mirvosil Qo‘shoqboyning ba‘zi odatlaridan xafa bo‘lib gapirdi. Uning aytishicha, Qo‘shoqboy aka o‘rtamiyona brigadirlardan bo‘lsa ham, o‘ziga binosi zo‘r, haybarakallachi, subutsiz odam. Majlislarda bulbuligo‘yo: «Bajaramiz! Yuz qilamiz. Shu ham gapmi bizga!» deb lof uradi-yu, amaliy ishga kelganda jon koyitmaydi. Kami-ko‘stidan so‘z ochgan odamni yoqtirmaydi. Mirvosil ham: «Betga chopar, yuzsiz» deb yomon ko‘rar ekan. Shuning uchun Mirvosil: «Qo‘shoq aka bilan endi ro‘para kelsam, jahlim yomon, qattiqroq olishib qolaman. Bu ishkalni o‘zingiz hal qilib bermasangiz bo‘lmaydi», deb turib oldi.

Men oydin kechada qishloq chekkasiga – Qo‘shoqboy aka brigadasining dala shiyponiga tomon



yo'l oldim. Tun havosi salqin, etni seskantiradigan muzday bahor shabadasi g'ir-g'ir esmoqda.

Yo'lakay, Mirvosilning gaplari ustida o'ylab ketdim. Nahotki, Qo'shoqboy akani hali ham yaxshi bilmasam-a. Tanishganimizga ikki oycha bo'ldi-yu, ammo tanish boshqa, bilish boshqa ekan-da. Tavba, ba'zi odam bir ko'rib gaplashganingdayoq ochiq ko'ngillik bilan ichida borini to'kib soladi. Ba'zilar bilan esa, oylarcha yonma-yon yashab, ko'p marta nonqatiq bo'lsang ham dilidagini bilolmaysan. Xarakter degani shumikin-a? Qo'shoqboy aka shunaqa ichidan pishgan odam ekanmi-a?

Qishloqqa yangi kelgan vaqtim. Ellik besh yoshlarga borgan, chuvak soqol, uzun oq yaxtak ustidan qavat-qavat belbog' boylagan bu basavlat kishining xushmuomalaligi menga yoqqan edi. Dastlabki kunlarda o'zini menga yaqin oldi. Tortinishimga qaramay, bir-ikki marta uyiga mehmonga chaqirdi. «Sira tortinmang, o'g'lim Qodirjon! Biznikini o'z uyingizday biling. Endi mehmon emassiz, o'z o'g'limizsiz» deb, mulozimatini joyiga qo'yib yurdi. O'zi ham mening uyimga: «Qalay yashayapsiz o'g'lim? Nima kami-ko'stingiz bor?» deb kirib turdi. Shunday uchrashuvlar paytida u, bugungi va ertangi vazifalardan ko'ra, ko'proq o'zini uzoq vaqt brigadirlik davrida qilgan xizmatlari, ko'rgan qiyinchiliklari va olgan mukofotlari haqida so'zlardi.

Daladagi ish ustida men uning kamchiliklarini ko'rsatsam, qo'lini ko'ksiga qo'yib: «Xo'p bo'ladi, o'g'lim, eplashtiramiz. Xotirjam bo'ling» deb qoladi. Keyingi tekshirishda o'sha ish bajarilmagan bo'lib chiqsa, u darhol vaj-korson topib, meni lol qilmoqchi bo'ladi.



Bir kuni mening diqqat bo'lib turganimni ko'rib, u sinamoqchiday:

– O'g'lim, avvalgi ishingiz durustmidi, yo hozirgisi? – deb so'rab qoldi.

Bu ilmoqli, g'ashni keltiradigan savol edi, o'ylab turmay dedim:

– Avvalgi ishimning yaxshi-yomonligini bilib olguncha yo'q edi.

– Xa, xa, – kuldi u. – Oz ishlagansiz-da, balki uzoq o'tirganingizda, Mansabning poy-havosini olib, yoqti-rib qolishingiz mumkin edi-a?

– Uzoq o'tirmaganimga achinmayman, Qo'shoqboy aka! Oliy maktabni bitirganimdan keyin birdaniga uydanoq ketish qiyin bo'ldi. Xotinim rozi bo'lsayam, onam: «Qarigan chog'imda meni tashlab qayoqqa ketasan» deb oyog'ini tirab oldi. Birga ketaveraylik desam, uy-joy, qarindosh-urug'dan ilinjini uzolmadi. Noiloj shaharda qoldim. Lekin yanglishgan ekanman. Plenum qaroridan keyin tushunib oldim. Qarasam, mendan nechta ko'ylakni ortiq yirtgan, katta o'rinlarda o'tirgan kishilar ham qishloqni ixtiyor qilishyapti. Men-ku, yoshman. O'rta maktabda o'qib yurganimdayoq katta bo'lsam agronom bo'laman, paxtaning yangi sortlarini yetishtiraman, deb orzu qilardim. Bu orzuga jamoa xo'jaligidan boshqa joyda tez yetishib bo'ladimi, axir?

Qo'shoqboy aka boshini bir yoqqa og'dirib, qoshlarini kerdi, bildimki, mening gaplarim unga unchalik hazm bo'lmadi, balki uni ajablantirdi.

Keyingi vaqtda Qo'shoqboy aka meni uyiga taklif etmaydigan, o'zi ham menikiga kirmaydigan bo'lib qoldi...



Katta sada tagidagi shiypon. Yupqa bulut pardasi orqali tushgan oy nuri, so'ri va uning atroflarini xiragina yoritmoqda. Ariq bo'yidagi sholcha ustida Qo'shoqboy aka bilan tabelchi Qurbon choy ichishib o'tiribdi. Nariroqda to'riq ot yer tepinib, kishnab turibdi.

- Keling, domla! - Qo'shoqboy aka meni sovuq-qina qarshi oldi, aftimga savol nazari bilan tikildi: - Qayoqdan kun chiqdi? - Uning so'zida qittay kesatiq ohangi bor edi.

- Uch kundan beri narigi uchastkada edim. Ekishni tugatdik. Endi sizga navbat keldi. Tayyormisiz?

Qo'shoqboy aka pinagini buzmay, dedi:

- Men-ku shayman-a. Ammo traktorchingiz gojlik qilyapti... - Choy uzatib, davom etdi. - Unga aytib qo'ying, domla, qildan qiyiq axtaravermasin. Soqolim shu dehqonchilik ketida oqardi. Yer betida emish, olmaday kesak qolmasin, bir qarich pasti balandi-yu, kemtigi bo'lsayam ekmayman emish. Ha, tag'in nima deydi-ya, «ekishga yo'l qo'ymayapti deb arz qilaman» emish. Bu nima degani? Axir dalamni ko'rdingiz-ku. Bu yil ozmuncha ter to'kdimmi? Atrofdagi marzalar-u eski ariqlar o'rni-yu tomorqalar yon-berigacha qo'shib yerni shuncha kengaytirgan bo'lsam, kuchim kamobligiga qaramay, qo'limdan kelgancha yerni tekislagan bo'lsam! Bundan ortiq nima qilib beray unga?

- Tushunib gapiring, Qo'shoqboy aka, u men uchun qilib bering deyotgani yo'q! Jamoa xo'jaligi uchun, hosil uchun deyapti! Sizga hosil kerakmi, axir? Traktorni, traktorchini qadrlang-da.

- Nima, qadrlamabmanmi? - jerkidi Qo'shoqboy aka.



– Avval kvadrat-uyalab ekiladigan yaxlit kartadan boshlaymiz deb, kelishganmiz-ku siz bilan. Mirvosilning talablari to'g'ri. Kvadrat nihoyatda aniqlik, tekislikni xohlaydi. Sizdan talab qildikki, tezda shu katta kartani tayyorlab bering deb. Siz odamim kam, kuchim yetishmaydi deb nolish bilan vaqt o'tkazyapsiz.

– Odamimiz kamlikka kam, o'rtoq Komilov, – dedi brigadirning yonini olib Qurbon, – brigadada paxtadan bo'lak beda, poliz, bog' bor. Bu yil jo'xorini ham ko'paytiramiz. Xullasi, qirq odam bilan jami yetmish besh gektarga ekin qilishimiz kerak!

– Ana shuning uchun ham sizlarga kvadrat usuli ayniqsa zarur. Ha, gapimga hayron bo'lyapsizmi? Mana, qo'shningiz «Qizil sharq» jamoa xo'jaligini oling. O'tgan yili ular dadillik qilib yuz gektarga kvadrat-uyalab chigit ekdi. Bilgandirsiz, qancha hosil olgan-u, qancha odam kuchini tejagan? Ilgari yuz gektarda 45 odam ishlab, gektariga 29–30 sentner hosil olishar ekan. Yangi usulda ekib, yangi usulda parvarish qilishganda o'sha yerni 25 kishi bermalol eplagan, hosili bo'lsa 36 sentnerga ko'tarilgan. Paxtadan bo'shagan yigirma kishining yarmi jo'xori, sabzavot ekinlariga o'tgan, yarmi yangi ochilgan qo'riqqa ko'chgan. Mana, kvadratning xosiyatini ko'rdingizmi, jamoa xo'jaligi necha yoqlama foyda ko'rgan.

Qo'shoqboy aka bu gapni, go'yo o'zim ham bila-man deganday, beparvo tingladi. Dami ichiga tushdi, ariqning tubida jildirab oqayotgan loyqa suvga tikildi. Ro'paradan charaqlab tushgan oy shu'lasida Qo'shoqboy akaning shishinqiragan lunji, pirillagan kipriklarigacha ko'rinib turardi. Bilaman, u biron no-xush so'z eshitganda shu holatga tushadi. Nihoyat Qo'shoqboy aka zarda aralash dedi;





– Har yili ekishda men birinchi bo‘lib raport berardim. Bu yil kvadrat deyaverib dahmazani ko‘paytirdilaring, svodkaning oxiriga tushadigan bo‘ldim.

U bilan ortiqcha bahslashib o‘tirishning hojati qolmadi. Miyamga shunday savol keldi: «Rostdan ham yangi usulda ekishning ahamiyatini tushunmayptimi? Yoki oddiy usulda tezroq ekib, raport berishga shoshilyaptimi? Yoki boshqa biron mulohazasi bormi?!» Buni qaytarib so‘rab o‘tirmadim.

– Bo‘lmasa masalani boshqarmada hal qilamiz! – dedim-da, xayrlashmayoq jo‘nadim.

Ketimdan Qo‘shoqboy akaning:

– Joningiz achimay qo‘ya qolsin, domla. Baribir omonat odamsiz, bizga hamdam bo‘lolmaysiz. Aravani tortadigan yana o‘zimiz! – deb g‘ulduragani qulog‘imga kirdi.

Tun qo‘ynida yolg‘iz borarkanman, yuragim orqamga tortib ketdi. Qo‘shoqboy aka, qaysi beti bilan shunday ta‘na qildi! Kelganimga uch oycha bo‘lib qoldi-ku, nahotki hali ham meni begona ko‘rsa! Men axir bor vujudim bilan shu ishga kirishganman, kelajagimni tamomila qishloq bilan bog‘laganman-ku! Oilamni keltirmay, yolg‘iz turganim uchun, baribir ko‘ngli o‘shoqda deb o‘ylarmikin...

Kechasi bilan uyqum kelmadi. Xotinimga xat yozdim: «Maktabingda o‘qish tugashi bilan tez yo‘lga otlan. Sentabrdan shu yerdagi maktabda ishlayverasan. Erkinjonni jamoa xo‘jaligidagi bolalar bog‘chasiga beramiz, shaharnikidan qolishmaydi...»

Xat yozib o‘tirib, tong yorishganini sezmay qolibman. Mana, derazamni qoplab turgan kulrang tuman pardasi asta taralib, qishloqning go‘zal manzarasi yaqqol ko‘rina boshladi: xamirday ko‘pchib turgan



dalalar, ularning etaklaridan zar uqaday kesib o'tgan kanal shoxobchalari, toqqa tutashgan o'tloqlar... Ana dastlabki quyosh shu'lasini cho'qqidan projektor nuriday pastga yoyilib tushmoqda, qir beqasamday tovlanmoqda. Quyosh chiqishini qarshilaganday ko'chalardan qo'y-qo'zilar ba-balashib, sigir-buzoqlar mo'-mo'lashib qirga tomon surilishmoqa. Yosh-yalanglarning qiy-chuvi, u yer-bu yerdan traktorlarning guldurosi ko'tarilib qoldi. Huv ana, tut daraxtlari ostidan Anorxon tugun ko'tarib ketyapti – Mirvosilga nonushta atagan bo'lsa kerak. Derazadan mavjli bahor nafasini olib kirgan salqin shabada yuzlarimni siypadi. Qarshimda yuksalgan azim tup o'rikda qarqunoq juftini yoniga chorlaganday, chig'-chig'lay boshladi... «Eh, qani shu topda Erkinjon yonimda bo'lsa! Ammo o'zini ham rosa sog'indim-da!...»

Raisimiz Oripovni ertalab daladan topdim. U idorada oz o'tiradigan, majlisni uncha yoqtirmaydigan, ko'p masalalarni dalaning o'zida hal qilib ketaveradigan odam. Ammo u, Qo'shoqboy aka brigadasidagi chatoqlikni bilgach, navbatdan tashqari boshqarma yig'ilishini chaqirmasak bo'lmas ekan deb, mening fikrimni quvvatladi. Katta sada tagidagi shiyponga to'plandik.

– Masala qisqa! – dedi Oripov va poygakda cho'q-qayib yer chizib o'tirgan Qo'shoqboy akaga savol berdi:

– Kvadrat-uyalab chigit ekamiz deb qaror qilganimizda, siz qo'shilishganmidingiz?

Qo'shoqboy aka birov eshitib, birov eshitmaydigan darajada past ovoz bilan: «Ha» dedi.

– Birinchi bo'lib qo'l ko'targanlar-ku! – deb gap otdi, chekkadan Mirvosil.



– Endi nima uchun paysalga solyapsiz?

– Men emas paysalga solayotgan! – Qo‘shoqboy aka Mirvosilga bir o‘qrayib oldi-yu, unga til tegizib obro‘ topolmasligiga ko‘zi yetdi. So‘ng arazlagan boladay teskari o‘girilib o‘tirgan Xadicha buviga qovoq soldi. Hamma g‘o‘zapo‘choq nusxa «chidaganga chiqargan» ko‘ylak kiygan, boshiga kulrang dasturxon yopingan kampirga tikildi. Tishi kemtik bo‘lsa-da, ko‘zlari va so‘zlari tetik bu ayol o‘zini tutolmay, boshidagi dasturxonni tashladi-da, gapga kirishdi:

– Nega hammangni ko‘zing menda bo‘lib qoldi? Menda nima gunoh? Ana, yer kerak bo‘lsa olaverlaring. Ammo Qo‘shoqboy ukam lafzidan qaytmasin-da, axir...

– Yeringiz o‘rniga yer ko‘rsatilgan edi-ku? – Rais tushunolmay so‘radi.

– Tomorqamning kun botish tomonidagi partovdan ko‘rsatgan. U yerda ekin zoti bitmaydi. Zaxkash... Kun chiqish tomondan so‘rasam, ko‘zi qiymayapti.

«Kun chiqish tomonidagi yer qaysi?» deb hamma-miz bir-birimizga qarab qoldik.

– Tog‘amga qarashli yerni aytyaptilar, tog‘amning tomorqasi, – dedi sabri chidamay Anorxon.

Mirvosil xursand bo‘lganidan yonidagilarga eshitarli qilib: «Yashavor, akingning pomoshnigi!» deb yubordi.

O‘tirganlarning ensasi qotib ketdi. Qo‘shoqboy aka yerga kirib ketguday bo‘ldi. Rais gina aralash achitib dedi:

– Biz sizni tajribaligimiz deya har vaqt siylab keldardik. Jamoa xo‘jaligi sizdan hech narsani ayamas edi. Siz bir parcha yeringizni ayabsiz-da? Shu dardingiz bor ekan, nega o‘z vaqtida shipshitmadingiz, dol-



zarbgacha dam saqlab keldingiz. Dehqon odamsiz-ku, bilasiz, ekish fursat kutadimi?

– Menam ikki og‘iz gapirsam maylimi? – deb so‘z boshlab yubordi Mirvosil, shartta o‘rnidan turib. – Qo‘shoqboy amaki bilan gapimiz asti qovushmadi-qovushmadi-da. Men bu kishiga hammamizning fikrimizni gapirsam: «Muncha biz-biz» deb pisanda qilding!» deydilar. «Biz» deganim – ko‘pchilik deganim», Ha, siz, osmondan oyog‘ingizni uzatib tushgan bo‘lsangiz ham – yolg‘izsiz! Yolg‘iz otning changi chiqsa ham, dong‘i chiqmas deganlar-ku!..

– Xo‘p, uka, masala hal! – deb rais uni to‘xtatdi.

Ukasining bunchalik dashnom eshitganiga nomus qilib ketdi shekilli, Xadicha buvi gapga aralashdi:

– Aqlim qursin, bunaqa bo‘lishini bilsam, Qo‘shoqdan yer so‘rab o‘tirmas edim. Qo‘yinglar, o‘g‘illarim, menga yer kerakmas, o‘shandan unadigan bir-ikki qop piyozning bahridan o‘tdim. Jamoa xo‘jaligim omon bo‘lsa, o‘rni to‘lib ketar.

Mirvosilga bu xush yoqib ketdi, bexosdan Anorxonning qulog‘iga: «Yashavorsin, akangni buvisi!» deb shivirladi-yu, buni baribir hamma eshitdi.

– Kampir! – dedi Oripov, oldiga borgan Xadicha buvining yelkasiga qoqib. – Ukangizning tomorqasiga ko‘z tikib bekor qilibsiz. Bizdan so‘ramaysizmi, xohlagan yeringizni haydatib bermaymizmi.

– Qayoqdan bilay, bolam. Brigadning yuzini bosib o‘tolmadim-da, aylana qolay. Andisha qildim...

– Andisha emish! – dedi zaharxanda bilan Qo‘shoqboy aka, keyin raisga iltimos qildi: – Oripov... uka! Menga ikki og‘iz... Andak muhlat...

– Qo‘ying-ey! Qolgan gapni ekishdan keyin gaplashamiz! Shuncha muhlatni qo‘ldan boy berganimiz



yetar! – dedi Oripov Qo'shoqboy akaga qaramay. – Qani, Vaska, jiyroningni yo'rg'alat. Ko'plashmasak kechikamiz! Yuringlar, o'rtoqlar!

Brigadir bu yoqda qolib, raisning o'zi odamlarni dalaga boshladi...

Qo'shoqboy aka sada tagida yolg'iz qaqqayib qoldi. Qo'shog'idan ajralib borar yerini bilmagan qo'yday, bir zum dovdirdi, bo'g'ildi. Qandaydir bir kuch go'yo uning ko'kragidagi muzni ko'chirganday, buning o'rnini harorat egallaganday bo'ldi. Qo'shoqboy aka nazarida yana picha hayallasa, sheriklari butkul uni unutilib yuboradiganday tuyuldi va bir-ikki qadam olg'a jildi. Shu chog', butun tabiatni harakatga solib, gur-gur mavj urgan bahor nafasi Qo'shoqboy akani ham o'zining kuchli girdobiga olib, shitoblik bilan odamlar tomon tortdi...

1955

### TO'Y NEGA KECHIKDI?

**B**utun taraddud ko'rilib bo'lib, to'y kunini belgilashgina qolgan edi. Buni Tojiboy sarkor quda bo'luvchi oshnasi Sarimsoq ota bilan so'nggi marta kelishib olishi kerak edi. Oysha xola: «Maslahatlashib keldingizmi?» deb kuniga erining og'zini poylaydi. Eri, qo'li tegmaganligini vaj qilib, galga soladi. Oysha xola kecha eriga:

– Kor xayrni kechiktirish yaxshimas. Bugundan qoldirmang maslahatingizni, baraka topgur! – deya yalinib-yolvorib qolgan edi. Ko'zi to'rt bo'lib erini kuta-kuta kunni qanday kech qilganini bilmadi, to ikki xo'roz qichqirgunchayam oshini suzmay, qo'rg'oncha eshigiga tanda qo'ydi. Sarkor qaytmadi.



Oldiniga ko'ngli g'ash tortib o'tirgan Oysha xola, oxiri: «Ha, oshnalari qo'yarda-qo'ymay olib qolgan hoynahoy. Qudam tushmagur xo'b mehmondo'st-da. O'xshatmasdan uchratmas degani to'g'ri!», deb o'ziga taskin berdi. Ammo yotib uyqusi kelmadi. Kun chiqmasdan turib samovarga o't tashlab, birdan yasantusanga tushib qoldi. To'yga atab tiktirgan sakkiz tepki xonatlas ko'ylagini, amirkon mahsi-kavushini kiydi, boshiga qora shohi durra tang'ib, ustidan oxori to'kilmagan olma gulli sholro'molini o'radi. Yangi das-turxonga zildakkina qilib, non bilan meva-cheva tugib, rovon labiga taxt qilib qo'ydi-da, endi choy dam-lay deb turganda, dupur-dupur qilib otda Tojiboy ota kirib keldi. Oysha xola choli otni boylab chiqquncha ham qanoat qilolmay, og'ilxonaga yaqinlashib. so'radi:

– Oshnangiznikida qolib ketdingizmi, dadasi? Kengash bitdimi ishqilib?

Tojiboy ota charchab, bo'shashinqirab qaytgan edi. Xotining tomdan tarasha tushganday savollari malol kelib, horg'in betlari tirishdi. Lekin og'ilxonadan chiqib xotinini ko'rishi bilanoq, ko'zlari alang-jalang bo'lib ketdi;

– Iya-iya, pardo-andoz bo'lakcha-yu? O'zing kelin bo'p ketibsan-ku, yo'l bo'lsin?..

Erining xushomadi yoqib tushganini sezdirmaslikka tirishsa ham, Oysha xolaning o'sma qo'ygan qoshlari chimirilib, surma tortgan ko'zlari suzilib ketdi. Ishonch bilan dedi:

– Iroq-yovni xabarlashga bormoqchiman-da, mashina topib bersangiz. Qachonga tayinladinglar?

– Him-m, – dedi pafasi ichiga tushib sarkor, keyin baland keldi: – Oldin horma, bor bo'l qil. Sal nafasni rostlay. Mundoq korjomani yechvolib, qo'linga suv



quyvorgin. Farosat ulashganda ozroq tekkan ekan-da senga, xotin.

Bu qaltis hazilni Oysha xola uncha qattiq olmadi, yengil kesatiq ohangida javob qildi:

– Ha, ulashganda kechikibroq boruvdim. Siz bechoraga qiyin bo'ldi. Oshingiz pishiriqsiz, kiringiz yuviqsiz qolyapti. Huzur-halovatingiz yo'q. Undan ko'ra-chi, dadasi: «Kuyov, nevara ko'rsam ham, erta-indin kelinlik bo'layotgan bo'lsam ham erkalgim qolmaydi», deya qoling.

Eri-ning ravish-raftorini keltirishda xotinlarga ibrat ko'rsatib yuruvchi Oysha xola, ildam-jildam erining yelkasidan chakmonini olib, uni qoqa-qoqa rovon ustunidagi qoziqqa ildi. O'shanday yelib-yugurib ariq bo'yiga cho'yan obdastada issiq suv keltirgancha erining qo'liga quyayotib, gapini uladi:

– Namuncha yuragingiz daryo bo'lmasa-ya, dadasi. Ayta qolsangiz nima bo'пти?..

Tojiboy ota yuvinib bo'lib, xotini uzatgan sochiqqa shoshilmaygina artinarkan:

– Men tog'dan kelsam, sen bog'dan kelasan-da... Yaylovda nima yangilik bor, qo'ylarning qo'zilashi qanday, egizaklari serobmi, ana shundan so'rasangchi, – deb gap tizginini boshqa yoqqa burmoqchi bo'ldi.

Oysha xola esa chalg'imadi. Eri oldiga termosdagi oshni suzib, choy keltirib qo'ygach, bir dam to'liqib turdi-da, jekirishga o'tdi:

– O'ylaganingiz yaylov, qo'y-u qo'zi bo'lib qoldi. Sizni kim zo'rlayapti tez yaylovga bor deb? Shukur, pensiyangiz bor, bu yoqda Topiboldi binoyiday topib-tutib turgan bo'lsa, nimangizga yetmayapti? Bolla-chaqa xayolingizga kelmaydi. Otasiz-ku, o'g'lingizga



pishib turgan oshni suzib berishga erinasizmi-ya? Sarkor nomingiz bor, boshqalarning ishi bo'lsa bitkazib berardingiz, allaqachon!..

Tojiboy ota zo'r ishtaha bilan oshni tushurarkan, xotiniga gap topib berolmay qoldi.

U qishloqning obro'li kishilaridan bo'lib, aytgani aytgan, degani degan edi. Bironta marosim usiz o'tmasdi, U bosh-qosh bo'lmagan to'y qizimasdi. Katta-kichikka maslahatgo'y bo'lib, kishilarning boshini qovushtirib yuruvchi bu hojatbaror odam, nainki o'z o'g'lini uylantirishga parvosiz qarasin! Buning ustiga Sarimsoq cho'pon sarkorning bir chorvada o'sgan qarddon-qimmatdoni-ku. Cho'ponning qizi Zuhra bo'lsa sarkorning ko'z o'ngida katta bo'lgan, odob-axloqda hammaga tanilgan. Oysha xola ta'rificha, husnda ham yagona bo'lib, osmondagi yulduzni uzib tushganday. Ana shuning uchun ham sarkor Sarimsoq do'stiga ixlos va hurmat bilan qarab, ularga shamolni ham ravo ko'rmasdi. Zuhra balog'atga yetib kundan kun ko'zga ko'rina borgach, Sarimsoq cho'ponning eshigidan sovchi arimay qoldi. Har safar sovchi chiqqanda Sarimsoq cho'pon darrov sarkorga kelib maslahat solardi. Sarkor: «Avvalo qizingning ko'ngliga qara, oshnam. Agar ko'ngliga monand tushsa, shundagina o'ti kuyadi. Bo'lmasa qistama. Ayniqsa molidunyosi-yu, darang-durungiga asti uchma, pushaymonlik bo'ladi!» deb qo'yardi. Chin yurakdan shu maslahatni aytganda, sarkor, albatta, o'z nafini ham esdan chiqarmasdi – dilining tub-tubida Zuhrani kelin qilish ilinji saqlanardi. «Topiboldining peshonasi yarqirab Zuhra qizga loyiq juft bo'lolarmikan? Ne-ne joylardan chiqqan sovchilarni noumid qaytargan bu lobar qizning yulduziga yulduzi to'g'ri kela olarmi-





kan?..» Otaning bu umidiga baʼzan nimadir raxna so-  
layotganday tuyulib qolardi.

Oysha xolaning boʻlsa, «toʻrva qoqdi shirin boʻladi» deganlariday, yolgʻiz oʻgʻliga binosi zoʻr edi. «Oʻgʻil boʻlsa shunchalik boʻladi-da. Dadasiga tortib uddaburon chiqdi, xudoga shukur. Kasbi kori-yu mar-  
tabasi kundan kunga ortyapti», deb duvurlarda xotin-  
xalajga kerilgani kerilgan.

Chindan ham Topiboldi tengdoshlari ichida ep-  
chilligi, ishchanligi bilan ajralib turardi. Oʻquvchilik  
vaqtidayoq mashina minishni oʻrganib oldi. Oʻrta  
maktabni tugatgach, sirtidan institutga kirdi. Jamoa  
xoʻjaligida zveno boshligʻi boʻldi. Mana ikki yildan bu-  
yon toʻqayda brigadirlik qilib, manaman degan bri-  
gadalar bilan bellashib kelyapti, Ayniqsa, oʻtgan kuz  
marraga juda oldin yetib, elning ogʻziga tushdi. Qish-  
loq markazidagi «Hurmat taxtasi»ga kattakon surati  
qoʻyildi, majlislarda prezidiumga chiqadigan boʻldi.  
Hammadan ham raisning radiodagi gapi oʻtib tushdi:  
Topiboldining yangi mashʼallar qatorida paxtakor-  
lar qurultoyiga vakil boʻlganligini ayta turib, uni «ja-  
moa xoʻjaligining ishongan bogʻi, suyangan togʻi», deb  
taʼrifladi.

Otaga bu maqtovlar albatta yoqib tushgan boʻlsa-  
da, biroq ichida: «Ishqilib oxiri baxayr boʻlsin-da»,  
deb qittay xavfsirab ham qoʻygan edi. Oradan koʻp  
oʻtmay, xavotiri toʻgʻri chiqdi: Oysha xolaning qistovi  
bilan toʻy muddatini belgilay deb turganda, sarkor-  
ning qulogʻiga mish-mish yetib qoldi. Baʼzilar: «To-  
piboldining maqtovlardan dimogʻi shishdi», desa,  
baʼzilar uning qoʻpolligi, oʻz nafini koʻproq koʻzlashi,  
brigadadagilarni oyoq uchida koʻrsatishidan norozi  
edi...



Hozir endi sarkor umid bilan tikilib turgan xotiniga nima deb javob qilishini bilolmay, garangsib qolgan edi. Osonroq qutulish uchun hazil tarzida:

– Oshing dam yemagan ko‘rinadi-da, – dedi.

– Voy, nega? – deb Oysha xola cho‘chib tushdi. – O‘z qo‘lim bilan damlagan osh-a?

Tojiboy ota xotining soddaligidan kuldi-da, ko‘k choyni ho‘play-ho‘play dedi:

– O‘g‘lingga pishirgan oshingni aytyapman, xotin!

– Voy, nega undoq deysiz? – dedi Oysha xola endi eri qilgan qochirmaning tagiga yetib. – Topiboldingiz bilan Zuhra nozanday xohlashib qolgan, buni hamma bilibdi. Onasi bilan ham gaplashganman. Og‘zimdanda chiqmasdanoq rozi bo‘lgan: «Sizlarday yaqin, baobro‘ kishilar og‘iz solarmish-u, yo‘q dermishmizmi, aylanay. Topiboldingiz esli-hushli yigit, kuyoving bormi desa deguday bo‘ladi!» degan astoydil. Faqat mengamas, boshqalarga ham og‘zidan bol tomib o‘g‘lingizni maqtaganini xo‘p eshitib yuribman. Bundan ortiq bo‘lsinmi yulduzi-yulduziga to‘g‘ri kelgani? Nimasi xom ekan, tag‘in, dadasi?

Sarkor xotinidagi ishonch va qat‘iyatni baralla ko‘rib turgani uchun elburutdan dilini vayron qilishni istamadi.

– Xo‘p, bo‘lmasa buguncha sabr qilib tur-chi, – dedi-da, oxirgi piyola choyni ichib, qo‘zg‘aldi.

Oysha xola maslahatni shu bugundan qoldirmaslikni takror-takror tayinladi, ketidan: agar sustkashlik qilib, shundoq yaxshi qizni boy bersa, «bu dunyo-yu u dunyo qo‘li yoqasida ketishi»ni pisanda qilganча qoldi...

Sarkor otga mnib, to‘g‘ri idoraga bordi. Hali juda erta bo‘lib, kotibdan boshqa hech kim kelmagan edi.



Sarkor raisning uyiga bormoqchi bo'lib chiqayotgan edi, kotib bir konvert tutqazib:

- Rais akam shuni «Tojiboy otangga berib qo'yingin», degan edilar, - dedi.

Sarkor shu on xatni ochdi. Ko'zlariga ishonmaganay, xatni ko'zoynagiga tekkunday yaqin keltirib qayta-qayta o'qidi; to'qay brigadasidan boshqarmaga kelgan ariza - Topiboldining nojo'ya qiliqlari haqida!.. Sarkorning vujudi qaqshab ketdi. Cho'qqisoqolli iya-gi qaltirab, yirik ko'zlari qinidan chiqayozdi. Serrayib turgan kotibga hech narsa demasdan, zabt bilan otga mindi-yu, to'qayga yo'l oldi...

Topiboldiga buyurib, brigada a'zolarini chaylaga yig'dirdi-da, arizani o'qidi. Brigada a'zolari chekka-chekkadani tilga kirdi. Arizadagi gaplar holva ekan, undan xunukroqlari ham ochildi. Mana o'rta yoshli mexaniklardan Mannon voqeasi. U mashinada Topiboldidan necha barobar ortiq staj va tajribaga ega ekan. Ne-ne yaxshi niyatlar bilan kelgan ekan. Biroq, to'qayga kelganidan buyon omadi yurishmabdi, na paxta terimida, na hozirgi yer haydashda normasini bajarolmay qiynalib, odamlar orasida izza bo'lib qolibdi. Sababi shu ekan: Topiboldi uni chala remont qilingan shaloq mashinaga o'tqazib qo'yibdi. Buning ustiga Mannon zapas qismdan siqilibdi.

- O'g'lingizda zapas qismlar bo'lmaganda boshqa gap edi. Bo'la turib qizg'anadi. Shunaqa besh qo'lini baravar og'ziga tiqishi insofdanmi, otaxon? - dedi yigitlardan biri.

«Sarkor bu gaplarni eshitib, yer ostidan yonidagi o'g'luga qarab qo'yardi. Parvosiz, sigareta tutatib, oyog'ini chalishtirib o'tirgan Topiboldi esa: «Ishonmang, ko'rolmaslikdan aytishyapti», deb g'uldirab qo'yardi.



O'zi haqida so'z borayotganida yer chizib o'tirgan Mannon Topiboldining qilig'idan zardasi qaynadi:

– Mushtdek boshingdan kishilarni mazax qilishga o'rganma, ukajon! Aqalli padaring oldida odob saqla! – deb jerkidi va Tojiboy otaga yuzlanib ichidagi borini to'kdi. – Rahmat, amaki, atay biz bilan gaplashgani kelganingiz uchun. Sizning yuzingizdan o'tolmay turgan edik. Fasod boylamasdan yaraning oldini olgan ma'qul. Ko'nglingizga kelmasin, amaki, bor gapni aytamiz; boshida o'g'lingiz tuppa-tuzuk, odamshavanda bola edi. Planni oshirib bajardim, deb shishinib ketdi. Shishintirib yuborishdi, ochig'i.

– Plan oshirilgan bo'lsa yolg'iz Topiboldi oshiribdimi? Bu yoqdagi qora ko'zlar bez terib o'tiribdimi? – deb o'shqirib yubordi bir yigit va ketidan uzr so'ragan bo'ldi – Aybga qo'shmaysiz, otaxon, dangalchiligim uchun!..

– Darhaqiqat, o'ylang, amakijon, nuqul Topiboldi undoq qildi, Topiboldi bundoq qildi, deyishaversa. Oy chiqsa ham, kun chiqsa ham unga, go'yoki to'qayda boshqa hech kim yo'qdek. Har qanaqa esli odamning ham boshi aylanadi-da!

– Semizlikni qo'y ko'taradi, deng! – deb qo'ydi yana biri istehzo bilan.

Shu choqqacha birov mushugini pisht demagan, hammani o'z og'ziga qaratib kelgan sarkor yer yorilmadi, yerga kirmadi. Umrida birinchi marta, o'shanda ham o'g'li tengi yosh-yalang oldida, bo'yni xam bo'lishi edi. Azbaroyi muztarlikdan yigitlarga churq etolmadi, shartta o'rnidan turib, chayla yog'ochiga bog'liq otni bo'shatdi. Ketidan dik etib turib jilov tutgan o'g'lining qo'lini siltab tashladi, afsus va alam to'la ko'zlarini unga o'qdek qadab:



– Shuni kutganmidim sendan-a? – dedi-yu, otga qamchi bosib shaxt jo'nadi.

Topiboldi, go'yoki qamchi o'z yelkasiga tushgan-day, qulog'i shang'illab bir zum qotib turdi-da, hushini yig'ib olib:

– Dada, dadajon! – deya ketidan otildi. Ot tutun pardasidek to'qay oqshomi og'ushiga singib borarkan, Topiboldi shudgorga qoqila-suqila, «dadajon»lab yugurishini qo'ymas, Tojiboy ota esa o'g'lining zor qaqshaganini eshitmaganday, otini tobora shiddatli-roq yo'rttirib ketardi...

Tojiboy ota qishloq markaziga yetib kelganda bir dam to'xtab, atrofga alangladi. Hech zog' ko'rinmasdi. Idoraga tushay desa, rais kabinetida ham chiroq o'chirilgan. Otni hayday turib, ko'zi idora binosi qarshisidagi katta elektr chiroq yorug'ida yarqirab turgan «Hurmat taxtasi»ga tushdi. Ot jilovini tortdi. «Taxta»dagi tanish suratlar ichida Topiboldining suratiga tikilganча qoldi. Shu chog' otaning tasavvurida go'yo atrofini tumonat odam qurshagan-u, hamma unga qo'lini bigiz qilib: «O'g'lingiz shu muqaddas joyda turishga munosibmi?» deb dashnom berayotganday tuyuldi, kekса qalbini iztirob va nomus tuyg'usi qamrab oldi... «Nafsilamr gapni aytganda, o'g'lim, seni shu o'ringa ko'targanlar ozmuncha yaxshi niyatlarni ko'zlashganmidi-ya? Kun sayin shu yerdan o'tib senga nazari tushganlar dilida qanday havas, ezgu niyatlar qo'zg'almadi ekan! Sening sha'ningga qancha-qancha ofarinlar yog'ilmadi ekan! Qani senda shularning shukronasi! Hali ona suting og'zingdan ketmay erishganing izzat-ikromlar umrbodga berilgan emasdi-ku? Bular evaziga yeng shimarib, pok vijdon bilan xizmat qilarsan, el xazinasiga ona sutidan



halol ulushlar qo'sharsan degan umiddagina berilgan edi. Qani bu umidlarni oqlaganing, battol?..»

Tojiboy ota beixtiyor «Hurmat taxtasi»ga yondashdi, undan o'g'lining suratini shartta yulib oldiyu, parchalab yerga uloqtirmoqchi bo'ldi. Shunda nimadir o'kiniga tushdi, otalik hissi ustun keldi. Suratni chakmoni bariga artib, chang-garddan tozalagan bo'ldi-da, avaylab qo'yniga tiqdi. El yotar payt bo'lib qolganiga qaramay: «Oshnamnikiga borsammikan?» deb o'ylanib qoldi.

«Sarimsoqning qulog'iga Topiboldi xususidagi mish-mish yetib bordimikan, a? Zuhraga-chi? Yetib borgan bo'lsa ne ahvolga tushishdi ekan bechoralar? Xuddi o'zlariga ishonganday ishonishardi-ya, Topiboldiga. Birdan ixloslari qaytib, to'y qilishdan aynib qolishmadimikan?.. Hali munchaligini eshitmagan bo'lishsa-chi? Men ham bildirmaymi? Oyni etak bilan yopmoqchi bo'lib, a? O'lim sirini yashirmaydigan do'stimdan bu sirni yashirsam – oldiga poxol solgan bo'lmaymanmi? Gap axir umr savdosi ustida ketayotgan ekan, orada zarracha g'ubor qoldirib bo'ladimi! Keyingi pushaymon o'zingga dushman, deydilar-ku!..»

Qalbini alam o'rtayotgan bo'lsa-da, ikkilanishni qo'ydi, bor sinoatni ochib solishga jazm qilib, bo'lguvchi qudasining qo'rg'onchasiga burildi..»

Uyda Oysha xola erini kutaverib toqati toq bo'lgan, «Bugun ham yaylovda qolib ketdi, tinmagur chol!» deb, endi o'rin solayotganida sarkor kirib keldi. Oysha xola ko'ziga erining chehrasi ochiqroq, horib kelganiga qaramay ruhi tetikroq ko'rindi. Chindan ham sarkor, yelkasidagi zil-zambil yukni ag'darib tashlaganday o'zini bardam tutib, xiyolgina bo'lsa ham ko'ngilsizlikni sezdirmaslikka tirishar, odatda-



gicha xushchaqchaqlik bilan og'riqning oldini olishga oshiqardi:

– Quyuq ziyofat ustidan chiqdim-da. Oshnam-ga qolsa tongotar ulfatchilik qilishga ishtahasi bor edi-yu, seni ko'zim qiymadi-da. Tag'in Topiboldida-qasidan tug'ib chiqmagin, dedim. Xotinga mehribon bo'lish ham bir balo ekan...

Og'zi qulog'ida Oysha xola naq ichi toshgan ko'yi erining pinjiga suqilib:

– Ishni pishirdingizmi, axir? Baraka toping-e iloyo. Qaysi kunga tayin qildinglar, dadasi? – dedi.

Tojiboy ota ko'zlarini mug'ambirona jilmaytirgan holda:

– Yaqin vaqtga, – dedi vazminlik bilan va xotini-ning taftidan sal tushishini kutdi, yo'lda o'ylab kelganlarini yana bir marta taroziga soldi. Sarimsoq cho'ponning ming istihola bilan: «Qizim to'yni pay-salga qo'ydi. Dilida bir gumon tug'ilganga o'xshaydi. Hozir yopig'li qozon yopig'liq tursin-chi, egilikning kechi yo'q. Yoshlarning yo'rig'ini o'zgartirish ham qi-yin ekan. Xafa bo'lmay tur, oshnam!» deb iltijo qilga-nini ayta olarmidi! Qovrilib kuyib ketadi-ku, xotini sho'rlik. Undan ko'ra boshqacharoq vaj-korsonlarni ko'ndalang qilmoqchi bo'ldi: hozir jamoa xo'jaligida yumushlar qaynab-toshgan mahal – u yoqda qo'ylarni qo'zilatish, bu yoqda ekish-tikish taraddusi bo'lib, ko'pchilikning to'y-to'ylashib yurishga fursati yo'qligini bildirdi. Raisning yaqinda bir necha ishbo-shilar bilan qurultoyga ketishini ham ro'kach qil-moqchi bo'lgan joyida tilini tishladi. Chunki buni aytsa, xotini «Topiboldi ham boradimi?» deb so'rab qolishi ehtimol. Unda sarkor nima deydi? Toliboldi-ning vakillar ro'yxatida qolishiga ko'zi yetmasdi...



– Bir hisobda-chi, onasi, – dedi Tojiboy ota, xuddi bolaga suyunchi va'da qilayotganday, – keyinroq bo'lgani ham tuzuk. Negaki, yozroqqa chiqsa oldi mevalar pishib, dasturxonning to'kin bo'ladi. Shunday emasmi, onasi?

Tojiboy ota qanchalik yassilab va umidni uzmaydigan qilib gapirsa-da, Oysha xola tarvuzi qo'ltig'idan tushganday shilq etib bo'shashdi va rovon ustuniga suyanib o'tirib qoldi. Shuncha og'irlikni zimmasiga ololgan Tojiboy ota esa, hozir xotinining diliga darmon bo'larli yana biron iliq so'z axtarardi-yu, topishga ojizlik qilardi. Ana shu og'ir yuk ostida ezilib, uzoq vaqt mijja qoqmadi. Xayol kalavasi chuvaldi. Qiyg'os gullab, shovul yaproq otgan olcha daraxtlari oralab qirovday zar-kukun sochib turuvchi oy barkashi ochiqqa suzib chiqib rovonna baralla yoritib yuborgach, otaning qorong'i qalbi yorishganday bo'ldi. Shunda ko'zi shirdagi qaldirg'och uyasiga tushdi. O'tgan yili yoz oylari shu uyada qaldirg'och bola ochgan edi. Kunbo'yi tinim bilmay bog'ma-bog' uchgan qaldirg'och oziq tashib polaponini boqar, atrofida parvona bo'lib, balo-ofatdan asrardi. Bolasi temir qanot bo'ldi. Uyadan tashqariga talpina boshladi. Oxiri qaldirg'och bolasini uchirma qilmoqchi bo'lib boshlab chiqqan edi, uzoq uchish, shoxdan shoxga qo'nishga qanoti kuchsizlik qildi. So'ng qaldirg'och uni uyasiga qaytarib keldi-da, parvarishni davom ettirdi. «Nahotki sen ham shunga o'xshasang-a, Topiboldi?.. – dedi xayoli o'g'liga og'ib Tojiboy ota. – Sening qanotlaringni baquvvat qilib yetishtirgan edim-ku. Lekin parvozing chatoq bo'ldi, qanoting qayrilib qolay dedi. Endi yanglishma, o'g'lim, parvozingni to'g'ri ol!..»

1966





## YOMG'IRDAN SO'NG

**K**ech kuz. Mirzacho'lning shimolidagi olis bir xo'jalikka yo'lim tushdi. Toshkentda havo charaqlab turar edi. Lekin avtobusimiz Sirdaryodan o'tgan ham ediki, birdan sovuq shamol turdi, osmonni bulutlar podasi qopladi. Dam o'tmay yomg'ir shivalay boshladi.

Mirzacho'l markaziga borib tushgunimgacha yomg'ir avj olgan edi. Avtobusdan tushib, xo'jalik tomonga ketadigan keng ko'cha muyulishiga chopib o'tdim. Papiros do'koni soyaboni ostida turib, yo'lovchi mashina kutdim. Ikki-uch mashina qo'l ko'targanimga parvo qilmay o'tdi. Bir vaqt muyulishga «gazik» kelib to'xtadi. Undan novcha, rangpar yigit imillabgina tushdi-da, xiyol oqsoqlangan cha kelib do'kondan papiros oldi. So'ng boyagicha imillab kabinaga arang ko'tarilayotganda oldiga yaqinlashib, borar yerini so'radim. U men ko'zlagan xo'jalikdan nari o'tib ketar ekan. Olib ketishga rozi bo'ldi. Shofyorning yonidagi o'rin ko'k shohi qiyiqdagi tugun bilan band bo'lgani uchun orqa o'ringa o'tirdim. Shofyor papiros tutatib, mashinani jildirdi.

Yomg'ir sharros quyib mashinaning brezent tomini tut qoqqanday savalar edi.

Men paxta terayotgan talabalardan xabar olgani borayotgandim, yigitning bunday yomg'irda qayoqqa otlanganini so'ramoqchi bo'lganimda notekis yer kelib, mashina qattiq ko'tarib tashladi. Shofyorning yonidagi tugun tap etib pastga tushdi. Qiyiqning burchagidan uzun karton quticha ko'zimga chalindi. Qopqog'iga yo'rgakdagi go'dak rasmi solinib, «chaqaloqqa sarpo», deb yozilgan... Shofyor uni o'z o'rniga



olib qo'ydi. Gapning o'nqovi kelib, men shofyorning ismini so'radim-da, keyin:

- Yangi mehmonga ko'rmanami deyman-a, Akramjon? - dedim.

- Ha, - derdi Akramjon va menga bir qayrilib qaradi. Shundagina boyatdan beri yo'lga qadalgan ko'zlarida yilt etgan uchqunni sezdim.

- Muborak bo'lsin! - dedim suhbatning ipini uzmaslik uchun, - bundan chiqdi, uyingiz shu yoqda ekan-da?

- Shunaqaroq, - dedi u dudmolgina va gapni chalg'itmoqchi bo'lganday, - radiatorga suv quymasak bo'lmaydi, - dedi. Chindan motor bejo guvullay boshlagandi. Lekin mashinani to'xtatib tushishning iloji yo'q - yomg'ir selga aylangandi. Shunday bo'lsa-da, bir ko'lcha yoqasida to'xtadi. Tushishga harakat qilayotganini ko'rib, men:

- To'xtang, siz urinmang, - dedim-da, plashimni yopinib o'zim tushdim va Akramjon uzatgan paqirchada suv olib radiatorga quydim.

- Rahmat, mulla aka, rahmat, - dedi Akramjon so'ng meni o'ziga yaqin olibmi, oldingi o'ringa taklif etdi, haligi tugunni pastga olib qo'ydi. Yoniga o'tirdim. Sel yuvayotgan oynaga ko'z tikkancha ikkimiz ham ochilibgina so'zlashib ketdik. U dedi:

- Cho'l havosi ko'p g'irrom-da. Bir kunda necha topqir turlanadi. Bunday havoda yo'lga chiqmagan ma'qulku-ya, lekin zarur bo'lganda odamning ko'ziga hech narsa ko'rinmas ekan-da.

Mashina qattiq silkina boshlab, gapi bo'lindi. Gapi qiziqib qolganimni ko'rib, Akramjon tekis yo'lga chiqqach, hikoya qildi.



Akramjon uzoq yili shu kezlarda bu yo'ldan kuniga necha bor o'tgan edi. Viloyat markazidagi idoradan yuk mashinasi bilan otaliqdagi jamoa xo'jaligiga chiqib, paxta tashirdi. Paxta punktiga qatnab yurarkan, u yerda qabul qiluvchi bo'lib ishlaydigan tanish qizni uchratdi. U Qozog'istondan kelib qolgan paxta zavodi ishchisining qizi bo'lib, Akramjon u bilan shahardagi maktabda birga o'qigan edi. Shirmonday qizilmag'iz, yonoqlari chiqqan, puchuqqina, qoshko'zlari qiyiqqina, istarasi issiq bu qiz Bibigul edi. U punkt ishchilarining joni-tani edi. Uning kichkina, chaqqon jussasi mashinalar orasida, toy paxtalar qalashgan maydonda goh ko'rinib, goh ko'rinmay yurar, goh tirband paxta bosilgan mashinalar tepasiga qushday uchib chiqqanini ko'rish mumkin edi. Go'yo Bibigulsiz ish bitmaydiganday, har yoqdan:

– Hoy, Gul, qaydasan? Hoy, Bibiguljon, bu yoqqa qara! – deb baqirishib-chaqirishar, o'zlari bilan tezroq hisob-kitob qilishni yolvorishib so'rashardi..

Bibigul qo'li-qo'liga tegmay ishlarkan, Akramjon bilan salom-alik, qilishga ham fursat topardi. Akramjonning mashinasi darvozadan ko'ringan zahoti imohora bilgan unga joy ko'rsatar, uning vaqti bekor o'tmasin deb kuydi-pishdilik qilardi. Bibigul tufayli Akramjonning oyog'i ildamlashib, karvonda peshqadam bo'lib qoldi, Otaliqdagi jamoa xo'jaligining ishlari jo'nashib ketgan bo'lsa-da, Akramjonni uyiga ketkizishmasdi. To'g'risi, Akramjonning o'zi ham dalaning poyhaposini olgan, ayniqsa, Bibigul bilan uchrashuv damlari unga huzur bag'ishlaydigan bo'lib qolgan edi. Kuniga paxta punktida mashinalar guldur-gulduri,



odamlar shovqin-suroni tingach, mashinasida Bibigulni uyiga kuzatib qo'yar, quyosh charaqlab chiqqan ayrim kunlari erta bilan ham dalalar, bog'larni birga sayr etishar, shunda o'quvchilik yillarining sho'x, quvnoq xotiralarini esga olishar, kelgusi kunlarning orzu-havaslariga berilishardi...

Tag'in notekis yo'l kelib, mashina qoqila boshladi. Akramjon tormoz berdi. To'g'ri yo'lga tushib olgandan so'ng, hikoyasida davom etdi:

– Bibigul ikkimizning oramizdagi munosabatdan oyim xabar topibdi, – dedi Akramjon xo'rsinish bilan. – Meni qistov bilan shaharga chaqirtirdi. Oldiga o'tqazib: «Sen zumrasha kim bilan andarmon bo'lib yuribsan? Bu yerda topilmasmidi? Teng-tengi bilan deganni eshitmaganmisan! Bir kamim shumidi? Meni onam deydigan bo'lsang, qaytasan bu yo'lingdan!» – deb koyidi. Bola bo'lib oyimdan birinchi marta shunday koyish eshitishim edi...

Men tug'ilganda dadam frontda halok bo'lgan ekan. Onam tarbiya qilgan. Yemay yedirgan, kiymay kiydirgan. Otasizligimni bildirmay, o'ksitmay katta qilgan. «Ko'zim tirikligida o'qib qol», – deb oyim avvalgi yili meni sirdan institutga o'qishga kirishimga maslahat berdi. Endi bitta-yu bitta orzusi kelin tushirish bo'lib, topgan-tutganini sandiqqa bosayotgan edi, Oyim har ishda ra'yimga qarab kelardi-yu, lekin kelin masalasida o'z bilgisicha ish tutmoqchi edi.

Oyimning koyishlari meni dovdiratib qo'ydi. Necha kungacha qo'lim ishga bormay, gangib yurdim, O'ngimda ham, tushimda ham Bibigul. «Ahd-paymonlar qayoqda qoldi, nega meni tashlab ketding?» deb o'pkalayotganday, agar tezroq bormasam, men-



dan umrbod yuz o'girayotganday edi. Yo'q, uning diliga zarra bo'lsa-da, ozor berish mumkin emas.

Men har o'n-o'n besh kunda Bibigulni ko'rgani bo'rib turdim. U paxta yig'im-terimi tugagandan so'ng, punktdan zavodga o'tib ishlay boshladi. Endi yo'l yaqinlashib, bot-bot uchrashib turadigan bo'lib qoldik..

Oyim bo'lsa o'zicha to'y harakatini qilmoqda edi. Hali u yoqdan, hali bu yoqdan qiz daraklab kelardi. Ba'zi qizlarning (o'zi rozimi-rozimasligidan qat'iy nazar) suratini ko'rsatib: «Buni qara, qosh-ko'zlari popukday. Sochlari taqimiga uradi. O'zi hayoli-ibolikina. Kelining bormi desa bor deguday», deb maqtashga tushardi. Sovchilikka borish uchun javobimni olmoqchi bo'lardi. Avvaliga men: «Qo'ya turing, oyijon, o'qishim bitsin, keyin bir gap bo'lar», deb galga solib yurdim. Juda qistab qattiq turib olgandan keyin, men yurak yutib: «Qo'ying, ovora bo'lmang, oyijon!» – deb yubordim. Oyimning naq o'takasi yorilguday bo'ldi:

– Iye-e, hali o'z bilging o'zingda bo'b qoldimi? Yo hali ham ko'ngling o'sha qora qizdami, a? Meni nomusga qoldirib o'shani deydigan bo'lsang, bilib qo'y, bergan sutimga rozi emasman! Ha, onam yo'q deb qo'ya qolasan!..

Men lom-mim demadim. O'sha kunlari imtihon topshirgani Toshkentga ketmoqchi bo'lib yurudim. Oyim bilan xayrlashib chiqdim-u, to'g'ri Bibigulni ko'rgani ketdim. Zavodga borsam, u meni ko'rmaganga olib chiqib ketdi. Hang-u mang bo'lib qoldim. Keyin bilsam, oyim kimlardandir surishtirib zavodga kelibdi-da, Bibigulni qattiq xafa qilibdi: bundan keyin men bilan uchrashmaslikni, baribir bu ishga yo'l bermasligini aytibdi.



Men hushim uchgan cha zavod eshigida uni kutdim. Ko'rishib, ko'nglidagi g'uborni tarqatay, kerak bo'lsa onam uchun uzr so'ray, deb soatlarcha yo'lga termildim, kelmadi. Dilimda har xil gumonlar tug'ila boshladi. Ko'zimga olam qorong'i ko'rinib ketdi. Bag'rimga o't tushganday yuragim yondi. Muzday suv bo'lsa-yu, chelaklab shimirsam, deyman. Zavod yo'lidagi bir guzarda to'xtab, oshxonaga kirdim. Umrimda qilmagan ishni qilib, pivo so'radim. Ichkilikning ulfati oyoq ostidan chiqarkan, darrov yonimda bir-ikki sherik paydo bo'la qoldi. Shundan keyin nimalar bo'ldi – eslay olmayman...

Bir payt ko'zimni ochsam – kasalxonadaman, A'zoyi badanim zirqirayapti. Tepamda oppoq xalat kiygan Bibigul o'tiribdi. Boyagi-boyagiday, o'rtada hech gap o'tmaganday. Men shu on unga intilib, o'rnimdan qo'zg'alay desam, chap oyog'im zil-zambil. Bibigul bo'lsa cho'chib:

– Yo'q-yo'q, turmang! – deb yumshoq qo'llari bilan yelkamdan tutdi.

Shundagina men qanday voqea yuz berganini elas-elas xotirladim. Mastlarga «ikki dunyo bir qadam», deganlari rost ekan. O'zim oyoqda zo'rg'a turibman-u, Bibigulning uyiga borishga, nima qilib bo'lsa ham ko'rish, gaplashishga jazm qilibman. Uning uyiga yiqila-surila yaqinlashganimni bilaman, muyulishdan chiqqan mashina... U yog'i mana kasalxonadaman. Lekin meni ko'chadan kasalxonaga kimlar keltirdi-yu, Bibigul qayerdan paydo bo'ldi – bu yog'ini bilolmadim,

To darmonga kirib, qo'ltiqtayocq bilan biroz yuradigan bo'lgunimcha Bibigul yonimdan jilmadi. Oyimdan darak yo'q edi. U bechora hoynahoy o'g'lim Tosh-



kentda imtihon topshirib yuribdi, bugun-erta kelib qoladi, deb ko'zlari eshikda intizordir.

Keyin Bibigulning maslahati bilan oyimga xabar berdim. Ko'p o'tmay, yig'lab-yig'lab kasalxonaga kirib keldi. Men bo'lgan voqeani boricha aytib berdim-u, Bibigulning kelib turganidan og'iz ochmadim. Bilaman, oyim kelishdayoq voqeani eshikdagilardan eshitib olgan.

– Kelib yurgan bu puchuq qiz kimingiz bo'ladi – bilmaymiz-u, lekin unga balli deyish kerak, – dedi yonimdagi karavotda yotgan kekxa bemor. – Biram mehribon, biram mehribon. O'g'lingizning dardini yengil qilgan o'sha desam ishonavering..

Oyim jim bo'lib qoldi. Na yaxshi va na yomon demadi.

Oyimdan hayiqdi shekilli, Bibigul shundan keyin kunda emas, oyim yo'g'ida keladigan bo'ldi. Bir gal oyimning ustidan chiqib, palataga kirmay qaytmoqchi bo'lgandi, oyim bilib qoldi-yu, qaytarib keldi.

Men ancha vaqtgacha mashina minolmay yurdim. Payqagan bo'lsangiz, oqsashim o'sha voqea natijasida. Keyinchalik men hech narsa bilmaganday, ishim, o'qishim bilan band bo'lib ketdim. Oyim bilan Bibigul haqida hech gaplashmas edik. Mening tez-tez tumaq, Bibigul yoniga qatnab turganimni oyim bilsa ham, endi qarshilik ko'rsatmasdi. Bir kuni u menga to'g'rilikcha:

– Hamon shunaqa oyog'ing ko'chada qoladigan bo'lsa, aytgin, u ham ishini shaharga ko'chira qolsinda! – deb qoldi.

Bu gapni Bibigulga yetkazgan edim, unga ma'qul tushmadi – ish joyini o'zgartgisi yo'q edi. O'zim kelib, to'yni unikida o'tkazadigan bo'ldik. Oyim elning ko'zi



uchunmi to'yga bosh-qosh bo'lgan bo'lsa-da, oz emas, bir yildan ziyod vaqt o'tganiga qaramay uyimizga qadam bosmadi. Bibigul borsa ham hech ro'yxush bermasdi.

Yaqinda bola ko'rdik. Oyimga shu xushxabarni yetkazgani borgan edim. Endi birinchi nabira mehri tushib, oyimning dilini yoritib yubordi shekilli, u bosar-tusarini bilmay qoldi. Qo'limga mana shu tugunni tutqizdi-da, uzr so'raganday:

- Yangi mehmonga hozircha shuni oborib tur, o'g'lim. Qolgan ko'rmanasini o'zim oboraman, - deb qo'ydi.

Erta-indin uch-to'rt kunga ishidan ruxsat so'rab kelmoqchi biznikiga.

Manzilga ham yaqinlashgan edik. Akramjon mashinasini chorrahada to'xtatdi...

Men rahmat aytib, mashinadan tushdim. Qisqa fursatli safar vaqtida eski qadrdonlarday sirdosh bo'lib qolganimiz uchun, darhol ajralisha olmay, bir-birimizga tikilishib turdik. Qo'l berishib xayrlashar ekanman, Bibigulni, onasini yangi mehmon bilan qutlab qo'yishini iltimos qildim.

Xo'jalik qishloqchasiga qarab borarkanman, tumanlar hali tarqalib bitmagan bo'lsa-da, dalalar chiroyi gul-gul ochilganday ruhim yengillashib, tabiatim ravshanlashib ketgandi, Balki bu, boshqalarnikidan ortiqcha farq qilmaydigan oddiy insonlarning yorqin sevgi qissasini eshitganimdandir.

## KO'RMANA

**Sh**odmon otaning og'zi qulog'ida: uch kam yetmishga kirganida nevara ko'rди! Shakar buviga-ku yetar odam yo'q, go'yo olamda bitta uning qizi-yu, nevarasi. U yelib-yugurib, beshik to'yi taraddudida.





To'yinga oziq-ovqat, meva-cheva, sarpa-suruq deganday hamma narsa taxt bo'lsayamki, Shakar buvining ko'ngli to'lmas edi.

– O'lar yerdamizmi, otasi! O'zimiz yoshlikda orzu-havas ko'rmagandik, endi bola-chaqamiz ko'rsinda. Xudoga shukur, usta Shodmon nomingiz bor. Men ham, axir..

– Ha, aytaver, – dedi Shodmon ota sho'x ko'zlarini qisib, kumush tishlarini yiltiratib, – olamga dong'i ketgan qurt boquvchi!

– Kesatmay qo'ya qoling! – Shakar buvi arazlaganday qurushoq lablarini burdi. – Ja-a olamga bo'masayam, har nechuk qishlog'im taniydi-ku.

– Axir, usta Shodmonning qallig'i bo'la turib o'zingizni tanitmasligingiz ham bormi!

Usta xotinini yupatgan bo'lib chiqib ketayotgan yerida Shakar buvi:

– Quruq tilyog'lamalikni qo'ying, shu bugunoq yangi beshik bilan biron arzigulik ko'rmana olib keling! – deb tayinlagancha qoldi.

Usta boshi qotgancha chiqdi-yu, ammo tezda qurilish ishlariga alahsib, xotining tayinlaganini unutdi. Kechqurun uyga qaytganda yana o'sha xarxasha... Charchab kelgan Shodmon ota jerkidi:

– Ko'p miyamni qotirma, choy-poyingni keltir, kampir!

Shakar buvi belini ushlab, kiftini qoqqancha bobilladi:

– Qariligimni yuzimga solmang, chol! Xudoga shukur, men sizdaqa tishim tutday to'kilib, temir qoqdirib olganimcha yo'q hali.

Shakar buvi tasir-tusur yurib dasturxon yozar ekan, Shodmon ota ish chappasiga ketayotganini fahmladi-da, o'zini arang bosib, yana hazil qotdi:



– Xafa bo'lmang, kampir bo'lsangiz ham o'zinga qizdekkinasiz.

– Qarib quyulmagan chol-e, – dedi kampir sal taf-tidan tushib, so'ng arazlagannamo choy uzatib, yalindi. – Arzandagina qizingiz, yolg'izgina nevarangizga sarf qilsangiz, davlatingiz kamib qolmas.

– Gap sarfda emas, ishim tig'iz, shahar tushishga fursat yo'q.

Shodmon ota, qurtxona qurish hazilakam ish emasligi, o'zi tepasida turmasa, ko'nglidagicha chiqmay, qurt boquvchilardan baloga qolishi mumkinligini aytdi. Bu gapi bir yoqdan chin bo'lsayam, bir yoqdan bahona edi. Aslida Shodmon otaning beshikka ko'ngli yo'q edi. Shodmon ota, qizi va kuyovi bir bo'lishib, beshikning keraksizligini xo'p tushuntirishdi bo'lmadi. Noiloj ertasi Shodmon ota: «Shaharga ketdim» deb jo'nadi-da, kechasi allamahalda qaytdi.

– Shahardan beshik topolmadim! – dedi qo'rqqan oldin musht ko'tarar qilib.

– Ha, bildim, bormagansiz! Tag'in yallachilik qilib boshingiz og'ib ketgan.

Shodmon otaning dami ichiga tushdi. «Yallachilik» so'zi o'ziga nash'a qilib ketgandi. Shakar buvi-ning so'zida jon bor edi. Shodmon ota bolasiz uyda yolg'iz zerikkanidan ba'zida, kechqurun qishloq choyxonasiga chiqib tengqurlari bilan askiya aytish-guvchi, yosh-yalanglar qistovi bilan qo'liga patnischa olib, yallalar qilib berguvchi edi. Ayniqsa u: «Eshik oldi gulhovuz...», «Daryolarning ul yuzinda bir tup g'o'za...» kabi termalarni boshlaganda, hammani mah-liyo qilib qo'yguvchi edi. Klubda, dalada bo'ladigan yoshlar gurungi qishloq to'ylari usiz qizimasdi. Kam-pir erining qarigan chog'ida ham bu qilig'ini tashla-



maganidan or qilardi. Ustiga-ustak saroyday hovlida ko'pincha bir o'zi qolib yuragi qizigani-chi!

Shodmon ota xonadondagi yolg'izlik tashvishlaridan va xotinining keyingi xarxashalaridan bir yo'la qutulish choralari izlab, reja tuzib chiqdi. Nonush-taga ham qaramay, yangi to'nini kiyib, shohi qiyiqni bog'ladi-da, chiqib ketayotib:

– Shaharga ketdim. Sen tug'uruqxonadan bolalarni keltirib tur! – dedi.

– Avval beshik kelsin, – dedi kampir pisanda qilib, – keyin o'zingiz bolaginamni o'z qo'lingiz bilan keltirasiz...

Shodmon ota qishloq markaziga qarab ketayotgan edi, rais duch keldi. Unga ko'nglidagi gapni aytib bo'lmasdanoq, rais:

– Bo'ldi, kuyovingizdan eshitgan edim. Hozir o'zim qishloq markaziga telefon qilaman. Kerakli sovg'alarni «Avtolavka»da keltirishadi. Siz xotirjam ishingizni qilavering, – deb qoldi.

To choshgoh bo'lib, «Avtolavka» yetib kelguncha Shodmon ota xotiniga ko'rinmay yurdi. Shakar buvi esa «baribir bugun ham chol yallachilik qilib biron yoqqa daydib ketadi, jazmani ko'p», deb gumonsiradi, kechasi kelsa uyga kiritmaslikni ahd qildi-da, qurtxonada uzoq o'ralashib qoldi...

Qosh qorayganda uyga kelib kirsaki, qiy-chuv...

Kuyov televizor o'rnatib, murvatini buramoqda. Televizor ekrani ro'parasida chakkasiga chuchmo-ma taqib olgan Shodmon ota bilan qizi. Shakar buvi hang-u mang bo'lib qoldi. Qizi kelib erkalangancha bo'yniga osildi.

– O'yijon, xafa bo'lmang. Jo'rttaga bildirmay turuvdik.



– Bo'ldi, bo'ldi, bu hazil dadangdan chiqqan! – dedi o'shqirib Shakar buvi va xuddi talaydiganday eriga hezlandi. – Ha, ordona, meni aytganlarim u yoqda qolib, o'zingizni dardingizda yurgan ekansiz-da! Ko'rmana qani?!

– Ko'rmayapsanmi? – Shodmon ota xaxolarkan, chakkasidagi chuchmoma tushib ketdi. – Kiroyi orzu-havas desang degulik. «Oynayi jahon» bu! Ana endi ko'cha-ko'yda «yallachilik» qilishga ham fursat qolmaydi.

Shakar buvi esa ensasi qotib «Oynayi jahonga» orqasini o'girib oldi. Shunda uy burchagidagi ko'm-ko'k karavotchaga ko'zi tushdi. Badtar hayronligi oshib turarkan, karavotchadagi murg'ak mehribon bobojonining so'zlarini ma'qullagan va buvijonini qarshilaganday, shirin-shirin ingaladi. Endi Shakar buvining chehrasi yarqirab ketganini nimqorong'ida hech kim payqamadi...

1959

## OTA MEROS

**T**og' qishlog'iga safarlarimni eslasam, yo'ldagi ko'hna chinor va uning ostidagi istirohatgoh ko'z oldimga keladi. Chinor, bir yog'i toshloq va bir yog'i o'tloq adir ostida tanho. Uzoqdan u tanho ko'rinadiyu, yaqiniga borsangiz, atrofida lashkarday saf tortgan yosh daraxtlarni ko'rasiz. Bular go'yo ona burgut qanoti ostida panoh topgan jo'jalarday turibdi. Agar bu daraxtlarning barini to'plaganda qomatini ham, yoshini ham chinorga taqqoslab bo'lmaydi. Chinor fil bo'lsa, bular chivin. Necha yuz yillar davomida avlodlar chinorning yoshini surishtirib, hisobiga yetolmaganlar. U o'zining keksa umrida ne-ne bo'ronlarga



duch kelib, qancha balo-qazolarga bardosh bergan. Shunday bo'lsa-da, tevarak-atrofiga tangaday o'tob-u qatra yomg'ir tushirmay turuvchi qalin shox-yaproqlariga qarab, siz unda qarilik nuqsini sezmay-siz. Bu shox-yaproqlar hamon yosh, navqiron, tetik gurkirab, ko'm-ko'kligini saqlab keladi. Ammo o'n-o'n besh kishining qulochi yetmas bahaybat gavdasiga nazar solsangiz, uzoq kurashlarda chiniqqan bahodirning qaynab pishgan, taram-taram muskuldor, qat-qat ajinli tanasini esga tushiradi.

Hammadan ajablanarlisi, chinorning ichiga kirib ketgan qorni – kattakon uyday g'or. Chinor qornida g'or – tabiatning ajib ishvasi! Bu g'or ko'p vaqtlardan buyon cho'ponlarga bekat bo'lib kelgan. Bunda cho'ponlar otaxoni Qobil bobo istiqomat qiladi. Qobil boboning e'tiqodicha, bu chinorni bobosining uzoq bobolari ekib ketgan. O'ziga xos did va mirishkorlik bilan bobo g'orni bezab, choyxona qurgan. Adir tepasidagi buloqdan ariq ochib, suv keltirgan. Sho'ra, ajriqlar o'rnini maysazorga aylantirgan. Boboning bu istirohatgohiga yaylovlardan cho'ponlar kelib turadi, tog'ga qatnagan yo'lovchilar qo'nib o'tadi.

Men ham necha bor otaga mehmon bo'lganman. Diqqatimni tortgan narsa – toshloqqa husn berib turgan azim tup chinor, uning orombaxsh soya-salqini, muzday buloq suvi, dimog'ni chog' etuvchi maysa-gullarigina bo'lmay, shularning bariga fayz-futur kiritgan nuroniy, shinavanda qariya va uning dilkash suhbat. U sizni xushnudlik bilan, ikki qo'lini ko'ksiga qo'yib qarshi olar, chinor ostidagi chorpoyaga o'tqazib, achchiq ko'k choy quyishdan oldin, alohida g'urur bilan gulzorga boshlardi. Gullarning xilini



sanab, qachon, qayerdan keltirilganini soʻzlar, ularni yoz jaziramasi, qish izgʻirinidan saqlash uchun ihota qilib ekan teraklarining yoshini xuddi oʻz farzandi yoshini hisoblaganday, barmoq bilan sanashga tushardi. Keyin qirov bosganday oq baroq qoshlari ostidagi oʻtkir koʻzlarini uzoqqa tikib, xayol surardi. Yoshi saksonlarga borgan boʻlsa-da, yana shuncha yil yashaydiganday, dashtda katta bogʻ yaratish rejalarini soʻzlab ketardi. Xayrlashuv chogʻida hotamtoylik bilan mehmonlarga gul, rayhonlar tutardi.

Navbatdagi togʻ sayohatida tabarruk boboy-ni koʻrib oʻtay deb, koʻhna chinor tagiga burildim-u, hang-mang boʻlib qoldim. Chinor osti ship-shiydam: na choyxonadan nom-nishon bor, na gulzordan. Jilgʻa ham qurib, hammayoqni yana shoʻra, ajriq bosib ketibdi. Suvsizlikdan yosh daraxtlarning shox-yaproqlari kuz kirmay sargʻaya boshlabdi. Faqat koʻhna chinor hamon navqiron yashilligini yoʻqotmay, boyagicha viqor bilan tanho kekkayib turibdi.

Bu achinarli ahvolning sababini keyin bildim. Qobil bobo olamdan oʻtibdi. Vafoti oldidan oʻgʻlini chaqirtirib:

- «Boʻtam! Dashtda men yoqib oʻtirgan chiroq oʻchib ketmasin. Bu yerlarni kuching yetganча obod etgin, kishilarga nafi tegsin...», - deb vasiyat qilibdi.

Oʻgʻil togʻda bogʻdorchilik bilan band ekan, hadeganda bogʻidan koʻngil uzolmabdi. Jamoa xoʻjaligi raisi bilan gaplashib, chinor ostidagi choyxonaga bir kishini qoʻydiribdi-da, shu bilan xotirjam boʻlibdi. U kishi esa koʻp turmay, bu yerdan ketibdi...

Oradan ikki yil oʻtdi. Bultur kuzak tagʻin togʻga yoʻlim tushdi. Beixtiyor chinor tomon burildim. Qa-



rab ko'zlarimga ishonmadim: u yerda Qobil bobo vaqtidagi manzara qayta jonlanibdi, yo'q, undan ham fayzliroq... Kuz boshlanganiga qaramay, daraxtlarning shox-yaproqlari yam-yashil. Oldingisidan kengroq ariqda zilol suv ayqirmoqda. Sho'ra-yu, ajriqlardan musaffo bo'lgan gulzorda esa rango-rang gul, rayhonlar gurkurabdi.

- Bu yerga kim, qaysi oliyhimmat inson qo'l uribdi? U yoq-bu yoqqa alanglaymiz. Chodir tutilgan g'or ichidan bir yigit chiqib keldi. Qobil boboday qomatli, keng yelkali, ko'zlari o'tkir. U bizni xuddi Qobil boboday ochiq chehra bilan kutib oldi, avval gulzorga, so'ng choyxonaga taklif etdi. Xayrlashuvda Qobil bobo udumicha gul, rayhonlardan tutdi.

Adirga ko'tarilib boramiz. Yo'limizda olisdan yaqqol ko'ringan tepalikda katta xarsangtoshlardan yasalgan ikki sag'ana uchradi. Hamrohim:

- Bu yerga aziz kishilar dafn etilgan. Qobil bobo bilan otalari... - dedi.

Mashinadan tushamiz. Shunda ko'zimizga sag'ananing biri kattaroq, ikkinchisi kichikroq ko'rindi. Lekin qaysisi yangi-yu, qaysisi eski ekanini ajratib bo'lmaydi. Chunki har ikki qabr ham gul-rayhonlarga ko'milgan edi. Gul, rayhonlar yangigina uzib keltirilgan bo'lib, kuz shabadasida xushbo'y ifor taratib yotardi; nozik bargchalarida esa haligina yog'ib o'tgan yomg'irning sadafdek tomchilari miltirab turardi. Qishgacha ochilib turadigan atirgullar bilan sadarayhonlarning tusi ham, rangi ham qo'limizdagi gul, rayhonlarga o'xshar edi.

1964



## GIRGITTON

**A**zimjon bilan Rahbarxon sayohatdan qaytib kelsa, hovli eshigi qulf. Koptok tepib yurgan bolalardan uydagilar qayerga ketganini so'rab, tayinli javob olisholmadi. Azimjon chamadonni eshik oldiga qo'yib o'tirdi. Rahbarxon bo'lsa qizchasi Guli o'qiydigan maktab tomon ketdi. Endi darvozasiga yetganda, yoniga taksi kelib to'xtadi. Qarasa, mashina ichida Guli bilan buvisi. Chuvurlab Rahbarxonni imlashyapti. Hovliqib yonlariga chiqdi, qayerdan kelishayotganini so'radi. «Bir joydan» deyishdi-yu, bir-birlariga ma'noli qarab, hiringlashdi. Uyga kelishgach, Guli otasining bag'riga otildi. Shunda Rahbarxon qizchasining rang-ro'yi ketganini sezib:

– Sog'inib ketdingmi, ona qizim? – dedi,

– Judayam! – dedi Guli va kirtaygan ko'zlari birdan yoshlandi.

– Yig'lama, ona qizim, qo'y, – deb Rabarxon Guli-ning qo'ng'ir sochlarini siladi va chamadonni ochib, keltirgan sovg'alarini berdi. O'pkasi to'lib turgan Guli jajji tikuv mashinasiga alahsib qolgach, kampir keliniga sekin dedi:

– Hozir kasalxonadan kelayotganimiz. Qizingiz bir o'limdan qoldi-da...

Rahbarxon bilan Azimjonning hushlari boshlaridan uchib, kampirga qarab angrayib qolishdi. Kampir davom etdi:

– Sizlar sayohatga jo'nagan kunning indinigamidi, Guli qattiq og'rib chiqdi. Doktor chaqiray desam, aksiga kechasi bilan bo'ron turib, jala quygan, hammayoqni sel bosgan. Nima qilarimni bilmay, birontasiga yalinay, doktorga telefon qoqib bersin, deb jala





ostida loy kechib guzarga boryapsam, qarshimdan bir mashina chiqdi. Yarim g'ildiragigacha suvga botib, shapko'rday surgalib kelyapti. Jonholatda botqoq kechib ko'cha o'rtasiga otildim-u mashinani to'sdim. Jalada shofyorning ko'zi meni arang ilg'adi, mashinani sekinlatdi. Bir nimalar deb so'kinganday bo'ldi. Yo'g'e, so'kinmagandir, tuppa-tuzuk, basavlat, o'rta yoshli odam edi. Ishqilib, gapiga parvo qilmay, eshikka yopishdim-da, lip etib mashina ichiga o'zimni urdim. Shofyor hayronlikka tushib: «Bu nima qilganingiz, kampirsho!» deb o'shqirdi. Jahli tez shofyorlardan ekan, deb qo'rqa-pisa: «Jon shofyor bolam, loaqal guzarga yetkazib qo'ygin», deb yolvordim. Qovurg'asi qayishib turuvdi, voqeani aytganimdan keyin: «Uyingizga boshlang-chi», deb qoldi. Uyga kelsak, bolaginam qornini changallab, g'ujanak bo'lib yotibdi. Shofyor Gulini ko'riboq: «Hozir kasalxonaga yetkazish kerak», dedi. Gulini aldab-suldab mashinaga olib chiqdi. Shahar kasalxonasiga yetganimizda shofyor Gulini ko'targanicha ichkari kirib ketdi. Men bo'lsam, yo'lakda suratday qotib qolaverdim. Xiyla kutdim, daragi yo'q. Kiray desam, yo'latishmaydi deng. Oyog'i kuygan tovuqday tipirchilab turgan edim, chiroyi ochilib shofyor chiqib keldi-yu, yelkamga qoqib: «Falokatingiz aridi, kampirsho. Operatsiya tez, ham yaxshi o'tdi», deb qo'ydi.

Yuraklari tars yorilguday bo'lib turgan Rahbarxon bilan Azimjon chuqur nafas olishdi.

- Ko'richak bo'lgan ekan-da, bolaginam-a? Axir nega bizga telegramma berdirmadingiz?

- Ozib-yozib chiqqan sayohatlaringni buzmay qo'ya qolay dedim-da, xayriyat, haligi odam uchrab



qoldi. Men sodda uni shofyor deb o'ylasam, doktor ekan. Foziljonov degan, balki tanirsan, o'g'lim?

Azimjon tanimadi. O'ylab ketdi. O'ylaganda ham, yaqin odaming otini unutib xijolatga tushganday, og'ir xayol surib o'yladi. Keyin odamlardan surishtirdi. Nihoyat, daragini bildi, telefonda gaplashdi. Xursand bo'lib kelib, buni Rahbarxonga aytarkan, Rahbarxon:

- Voy, o'zini ko'rmadingizmi? Qayerda ishlar ekan? - dedi.

- Temiryol kasalxonasida ishlar ekan. Oldiga boray desam, bir joyga ketyapmiz, dedi. Ertaga ishdan qaytishda kirib o'tadigan bo'ldi. Uchastkasi bizdan yuqoridagi massivda ekan...

Aziz mehmonni hamma o'zicha - Rahbarxon alohida ehtirom va minnatdorlik bildirib, kampir xuddi o'z o'g'li kabi quchoqlab qayta-qayta «girgitton» bo'lib, Guli esa hozir ukol qilinadiganday hayiqibroq kutib oldi. Azimjon-chi, doktorni ko'rib, birdan rangi oqarib ketdi. «Iya, iya, keling!..» deganicha uyga boshlarkan, dami ichiga tushib, nimadan gap ochishni bilmasdi. Dasturxon atrofida kampir jonga oro kirib, so'zni so'zga ulab o'tirdi. Azimjon, doktorning loqayd ko'ringan sergak, samimiy qarashlaridan ko'zini chetga olishga intilardi. Bu uchrashuvni ichi pishib kutgan va tabiatan xushchaqchaq bo'lgan Azimjon nega bu holga tushib, gung bo'lib, qoldi, deb Rahbarxon hayron. Buning siri, albatta, faqat ikki erkakka ayon edi. Shu tobda ikki erkak ko'z oldiga bulturgi yoz bo'lgan voqea ko'ndalang kelgan edi. Azimjon komandirovkaga o'tlanib, aeroport kassasida qolgan oxirgi biletni olayotgan edi. Shunda kassa yoniga bir kishi shoshib kelib, bilet so'radi. Kassir bu reysga bilet tu-



gaganini aytgach, haligi odam Azimjonga iltijo qilib: «Juda shoshilinch ish chiqib qolgan edi-da, ukajon. Shu biletni menga berolmaysizmi?» deb qoldi. «Meni anoyi deb o'ylayaptimi», deb ensasi qotgan Azimjon: «Kechirasiz, mullaka, men ham zarur topshiriq bilan ketyapman», dedi-yu, burilib ketdi. Buni nariroqda kuzatib turgan yo'lovchilardan biri samolyotga chiqishda Azimjondan so'radi:

– Boyagi kishi sizga nima dedi?

Azimjon uning iltimosini aytib berdi.

– Tanishmidingiz?

– Yo'q.

– U odam mashhur xirurg...

Azimjon lohas tortib, o'ylab ketdi: «Bordi-yu, biror bemorga shoshilinch yordam uchun chaqirilgan bo'lsa-chi? Keyingi reysda borguncha, bemorning holi nima kechadi?!»

Mana hozir o'rtaga tushgan og'ir xijolatpazlikni qanday yo'qotish chorasini izlab, Azimjon qiynalayotgandi. Yaxshiyam kampir bor, u har so'zida «giritton» bo'lib, mehmonni siporishlab turibdi. Guli ham doktor amakisiga endi el bo'lib, dadasi keltirgan sovg'alarni ko'z-ko'z qilib, uning ko'nglini ochmoqda edi...

1964

## YANGI QO'SHNILAR

**Sh**ahar chekkasida saf tortgan ko'p qavatli uylar qurilishi Qosim novvoyning bir turtsa tutday to'kiladigan choldevoriga naq taqalib keldi. Quruvchilar tez-tez eshik qoqib, qistalang qilishardi. «Usta buva, bo'lar endi, almisoqdan qolgan choldevorga yopishib olish! Xohlang tayyorgina domdan seksiya



olib beraylik, xohlang uchastkalik joy...» Usta bahorda ko'chishni bo'yniga olib: «Nima ham dedik. Ko'pga kelgan to'y ekan. Qarigan chog'imizda kulturnoy bo'p tursak turibmiz-da. Nima, domdagilar bizdan ortiq bo'lib, shox-butog'i bormi», dedi. Ammo Anor buvi oyog'ini tirab oldi: «Bo xudo, bir kamim domda kun bo'yi zinapoya sanab, qafasga tushganday boshim gir aylanishi qolganmidi. Yoz bo'lsa shildir-shildir ariq bo'yiga sholchani solib, daraxt soyasida hordiq yozganningga ne yetsin...»

Kampirni seksiyaga unatib bo'lmasligiga ustaning ham, o'g'illarining ham ko'zlari yetdi. Allaqachon o'sha domlardan seksiya olib o'zlaridan tinishgan o'g'illaridikiga ham kampir ahyonda borar, sog'inishganda o'zlari kelib turishardi. Maslahatlashib, oxiri o'g'illar uchastka qurib berishadigan bo'ldi.

Anor buvi o'z qardon choldevoridan chor-norchor ko'ngil uzdi. Uzdi-yu, uchastkaga hadeganda o'rganib ketolmadi. Hali uchastkaning bozor-o'charga chetligi, eshigi tagiga «xaptobus» kelmasligidan noli-sa, hali urug'-aymoqlaridan uzoqlashib qolgani alam qiladi. Ayniqsa, qardon-qimmatdon qo'shnilaridan ajrab qolgani-chi! Axir ular bilan kuniga necha marta kirdi-chiqdi qilard. Duxoba peshmatni kiyib olib, bugun uniki, ertasi bunikida to'y-hasham, tug'uruq deganday, dasturxonda nonmi «osh xomi» ko'tarib bo-rib turishlar qayda endi!

– Ko'p nolima, yangi qo'shnilar bilan ham inoqlashib qolarsan, – deb yupatdi uni Qosim buva.

– Koshki tuzukkina odamlar bo'lsa! – dedi nazari ilmay Anor buvi. – Biri bog'dan, biri tog'dan kelgan, qalang'i-qasang'i. Hovli olma, qo'shni ol, degan gap



bor-ku, surishtirmay netmay olaveribsizlar-da shu uchastkani!

Qosim buva bu gapning nojo'yaligini tushuntirishga uvvalo urinsa ham, kampiri battar avjga minadi – qo'shnilarni yana allanima balolar deya chandishga tushadi.

– Mana bittasi yon qo'shnimizmi? Odamga qo'shilmaydi. Xotini biram olifta, kerilmajonki, kishini oyoq uchida ko'rsatguday. Qachon duch kelsam, erini maqtangani maqtagan. Mo'minjoningiz undoq xizmat qilgan, Mo'minjoningiz mundoq xizmat qilgan, katta-kon texnik, deb... Keyin eshitsam, shunchaki bir ustaxonada temirchi ekan. Nuqul uyida temir-tersakka o'ralashib o'tirganidan ham biluvdim-a. Nima bo'ldi, shundoq dong'i-darangi ketgan kimsan falonchi novvoy bo'lib turib, siz shahar oberibsizmiki, po'ristoy temirchi shahar oberadi!..

Qo'shnilarning fe'li-yu tutumigacha surishtirib yurgan Anor buvining sinchkovligi Qosim buvaga yoqmasa hamki, gap ko'paymasin deb, indamay qo'ya qoldi.

Yoz boshlanib, Anor buvining xarxashasi ko'paydi. Bu suv tanqisligidan edi. Umri bino bo'libdiki, ko'chaga paqir ko'tarib chiqmagan Anor buvining boshiga endi uzoqdan suv tashish tushdi. Buning ustiga yegulikka ekilgan rezavor ekinlar chanqab, uchastka cho'lday qaqrab qoldi. Ilgari dam o'tmay hovliga suv sepish-u, guppa-guppa kir yuvishga o'rgangan kampir suvsirab fig'oni falakka chiqdi.

– O'rtasidan sharqirab suv oqmagan hovli hovlimi! Kelib-kelib shunaqa do'ng yerni ham tanlaydimi-ya! Kimga darkor ekan!



– Hoy, non tepkilik qilma! O'g'illaring uchastkani atayi baland yerga qurib, bizning g'amimizni yeyishgan, chol-kampirga shundoq bahri-dili ochiladigan bahavo yer bo'lsin, deyishgan-da. Azza-bazza senga toqravoq qurib berarmish-ku tag'in noshukurchiligi ham bormi. Ota-buvang ko'ribdimi munaqa oq uy – ola bargakni!

Kunlar tandirday qiziy boshlagan sari, Anor buvining sabr-kosasi to'lib;

– Oq uy – ola bargagingiz o'zingizga siylov. Menga javob bering, hali ham bo'lsa o'sha bolalarim o'tirgan domga keta qolay, – deb qoldi.

Ne hasratda ekkani sabzi-piyoz, pomidorlari qovjirab, o'zi diqqati oshib turgan buvaning battar zahراسi o'chdi. O'zini qo'yishga joy topolmadi. U ham nima qilsin. Keyingi vaqtda bosh og'rig'i dardiga uchragan – korxonada tandirga yo'lolmaydi. Uchastkani ermak qilib, yozilarman deb o'ylovdi-da. Bo'lmasa kampiri bilan adi-badi aytishib uyda o'tirishga toqati bormi!

Kampirga ortiq taskin berish ilojini topolmay, usta buva yana suv keltirish tashvishida ko'chaga chiqdi. U o'zidan besh-olti uchastka naridagi jar ariqdan qanday qilib suv chiqarish yo'lini o'ylardi, bu xususda ba'zi qo'shnilarga maslahat ham soldi. Biroq hech kim buning ilojini topolmasdi. Endi Anor buvining dashnomlari o'kiniga tushib, Qosim buvaning ham uchastkaga hafsalasi sovidi.

Bir kuni ertalab uchastkani almashtirish ustida maslahatlashgani katta o'g'linikiga ketdi-da, kechqurun qaytib kelsa, ko'chasi gavjum. Qo'shnilar chuvvos ko'tarib, ariq qazishyapti. Usta hang-mang bo'lib qoldi. Asta jar yoqasiga yurdi. Unda katta-yu kichik g'ujg'on o'ynayapti. Ikki odam bo'yi pastlik-



dan esa taqir-tuqur eshitilyapti. Qarasa, kiyimlari loy-tuproqqa belangan, yaltiroq boshi terga botgan, ko'zoynakli kishi temir trubalarni to'g'rilayapti. Aftiga ko'zi tushdi-yu, ustaning taajjubi oshdi. Bu, Anor buvi ta'riflagan o'sha «po'ristoy temirchi» Mo'minjon edi. «Nima qilmoqchi bu kishi? Kim maslahat berdi-yu, kim buyurdi ekan buni? Yo o'z bilgicha bekor-ga urinyaptimi?..» Hayratlanib turgan ustaga kimdir tushuntirdi: «Nasos o'rnatmoqchi. Nasos!» Usta qo'llarini ikki yonga yozib, yelkasini qisdi: «Shuning qo'lidan shunaqa hunar kelarkanmi? O'ziga yeng bo'lmagan, o'z-gaga en bo'larmidi!»

Mo'minjonni usta hali uncha bilmasdi. Goho ko'chada duch kelganda salom-alikdan nariga o'tishmasdi. Anor buvining-ku qo'shnini kamsitib gapirishlari ustaga g'iybat bo'lib tuyulardi; shunday bo'lsa-da, Mo'minjonning ko'zoynak tepasidan loqayd qarashimi, odamga aralashmasdan mudom o'zi bilan o'zi overaligimi, ishqilib, nimasidir ustaga singmasdi. Buning ustiga kuni kecha Anor buvi yangi gap topib kirdi: nima emish, qo'shning eshigidan xotinlar tikuv mashinasimi, supurgi mashinami, shunga o'xshash buyumlar ko'tarib chiqishganini ko'rganmish: «Chamamda, – dedi taxmin qilib, Anor buvi, – pulga tuzoq qo'ygan o'larmonga o'xshaydi...» Shu gap hozir lop etib ustaning esiga tushdi, negadir ichidan zil ketdi. Birdan Mo'minjonning ko'ziga chalinishdan cho'chiganday o'zini chetga oldi. Nasos qurilishi va suv chiqishiga ko'ngli ishonmasa-da, qarab turolmay uydan ketmon opchiqib, boshqalar qatori ariq qazishga tutindi.

Nihoyat, ertasiga Mo'minjon tayyorlab o'rnatgan motor o'z kuchini ko'rsatdi. Jarlikdan trubalar suv



shimirib balandga – yangi ariqchaga fontanday sharillatib otardi. Hamma quvonchdan terisiga sig'may, Mo'minjonni boshiga ko'targuday bo'lganda, yolg'iz usta buva damini chiqarolmas, dilini xijolat o'tkir egov bo'lib kemirardi.

Bugun-ertagayoq domga jo'nash taraddudida uyini yig'ishtirib o'tirgan Anor buvi-chi, ariqchadan shildirab kirgan suvni yuziga to'tiyo qilib surtguday bo'ldi. Darhol yengini shimarib, etagini lipa urib, paqirda hovliga ko'loblatib suv sepa boshladi. Ekinlarga suv quyayotgan Qosim buvaning esa chehrasi hamon namozshom edi. Anor buvi bu holni ekinlarning chala-yarim quriganiga yo'ydi-da, o'tinch ohangida dedi:

– Nasibaga yarashiq ko'karar. Ko'karmasa boshqatdan ekarsiz. Shukur, endi suvimiz bor-ku. Diqqat bo'lavermang, dadasi!

Qosim buva, savr havosiday darrov o'zgara qolgan xotining sodda va roy keldiligidan kulgisi qistadi. Keyin sal ochilib, xotiniga yaxshilab kovatokli osh qilishni buyurdi-da, o'zi hovuzcha bo'yidagi supachani tozalab, unga sholcha to'shay boshladi.

– Muncha harakatingiz bejo, dadasi, xuddi mehmon keladiganday?

– Ha, mehmon keladi. Qo'shnini chaqirib chiqaman.

– A, qaysi qo'shnini?

– Manavi «pulga tuzoq qo'ygan, o'larmon»chi, o'shani-da...

– Voy, voy, – dedi podvaldan sabzi-piyoz olib chiqayotgan Anor buvi, beli sanchib ketganday sapchib tushib va o'sal bo'lganicha ustaga tikilib qoldi.

– Tuzukroq tanishib olmoqchiman. Bilmabman uni, behuda gumonsirab yurgan ekanman...





– Odamni sirtiga qarab baholash xato ekan-da, – dedi Anor buvi zo'rg'a ming'illab.

– Ha, bamisoli suv tagidagi toshday. Bir qarash-da tosh shundoq yuza, yaqin ko'rinadi-a? Agar uni olay deb qo'l uzatsang, qo'ling yetmaydi, suv tubiga chuqur joylashgan bo'ladi. Shunga o'xshab bu odamning xislati ichida ekan, bugun ochildi, yaqqol ochildi! Agar bilsang, sening aytgan gaplaring esimga tushib, yuragim orqamga tortib ketyapti. Betiga qanday qaraymiz endi?..

Anor buvi mulzamlikdan eriga tik boqolmay, piyoz artishga kirishdi. Uning ko'zi duv yoshlandi. Piyoz achchig'idanmi, boshqa narsadanmi, bilib bo'lmasdi...

1964

## HAVORANG DURRACHA

**E**r-xotin bo'lib bir yilcha yashasa-yu, bir-birining fe'lini, kasbi-korini bilmasa, shunga aql bovar qiladimi?

Xolmatjon uzoq qarindoshining qizi Nafisaga xohlashib uylandi. Uylandi-yu, ikki hafta o'tmay, katta shahar qurilishiga jo'nab ketdi. Elektr payvandchining qurilishlarda bozori chaqqon-da. Vaqtinchalikka deb ketganicha, uzoq qolib ketdi. Qarabsizki, yangi kelin-kuyov ikki-uch oy deganda bir ko'rishadigan bo'ldi. Xolmatjonga yoqmadi bu, albatta. Nafisani olib ketmoqchi bo'ldi. Nafisa bo'lsa ko'na qolmadi. Yaqinda u to'quv fabrikasida ishlay boshlagan: axir ne hasratda texnikumda o'rganib chiqqan hunarini tashlashga qandoq ko'zi qiysin.

Xolmatjon kelganida va xatlarida nuqul o'z ishdan, qurilishdagi obro'sidan so'zlardi. Osmoni falakda



dorbozlarday simga osilib olib ishlaganda pastdagilar yoqasini ushlab o'tishini, hatto gazetalarga surati tushganini og'iz ko'pirtirib maqtardi, O'z navbatida, Nafisa ham fabrikaning gazmolga gul bosish sexidagi chizmakashlik ishlaridan og'iz ochsa: «Shu ham hunar bo'ptimi?» deb Xolmatjonni esnoq bosar, gap jilovini yana qurilishga burib yuborardi. «Qurilishga borsang-chi, xey, yaxshi ishga kiritib qo'yaman. Hade-may qarabsanki, noming el og'zida-da», derdi. Borabora Nafisaning izzat-nafsi koyidi, o'z ishlaridan gap ochishni yig'ishtirib qo'ydi. Xolmatjon yana birmuncha kutgandan keyin, endi ko'tara savdo qilib xat yozdi. Xat mazmunidan: yo shirin turmush bilan bo'l, yo chizmakashlik bilan deganday chuchmal bir hid kelib turardi. «Achchiq ustida yozibdi». Nafisaning boshi qotdi, nima deb javob qaytarishini bilmay yurdi.

Kuta-kuta toqati toq bo'lgan Xolmatjon bir kuni xiyla tutaqib, «ishni bir yoqlik qilish» qasdida kirib keldi. Shanba bo'lishiga qaramay, Nafisa ishdan kech qaytdi. Ustiga-ustak yakshanba kuni ham fabrikaga boradigan bo'ldi. Buni eshitiboq, Xolmatjon tutaqib;

– Necha yuz chaqirim yo'l bosib kelsam-u, uyimda halovat bo'lmasa, shu ham turmush bo'ldimi! – dedi.

Nafisa, bu kunlari fabrikada bayramga yangi buyumlar chiqarish harakati kuchayib, ish juda tig'iz kelib qolganini aytsa ham, Xolmatjon hovuridan tushmadi.

– Ha, fabrikada siz nima karomat ko'rsatardingiz! – dedi mensimay.

Nafisa eriga boshqa so'z qaytarishni ep bilmedi. Nari-beri choy quyib chiqib ketdi. Xolmatjon, to-mog'idan hech nima o'tmay, xunobi oshib o'yladi: «Bu nima tirikchilik. Shu bo'ldimi erlik izzatim. Oldimda-



ki shundoq qilyapti, yo'g'imda ko'chadan beri kelmas ekan-da. Ishi tig'izmish. Koshki qo'lidan biror arzirli ish kelsa. Yoki... Shaharni tashlab ketolmayotganining boshqa vaji bormikan-a?..»

Eshik taqillab, cho'chib tushdi u. Pochtachi bir qog'oz tashlab ketdi. Qarasa, pulmi, posilkami oladigan bildirish qog'ozi. Nafisaning nomiga, Xolmatjonning ko'zlari qinidan chiqayozdi. Qayerdan, kimdan bo'lsaykin?.. O'ylab o'yiga yetolmadi. Keyin, haligi shubhasi yallig'lanib ketdi. Yuragini g'ashlik o'tday yondira boshladi. «Birontasi tag'in?.. Yo'g'-e» O'zini qo'yarga joy topolmay eshikka chiqib kelib turarkan, Nafisa o'ynab-kulgancha qaytdi. Undagi bu o'zgarishni allanimaga yo'ygan Xolmatjonning ko'ngil g'ashligi yana ortdi, toqatsizlik bilan qog'ozni unga tutqazib:

– Bu kimdan? – dedi titroq ovozda.

Nafisa qog'ozni o'qirkan, xiyla o'yga botdi, keyin birdan:

– Rostga o'xshaydi, rostga! – degancha xandon urib erining bo'yniga osildi.

Bu kutilmagan qiliqdan sarosimaga tushgan Xolmatjon Nafisaning shod chehrasiga baqrayib turardi.

– O'zi nima gap?

– Hali dugonalarimdan bir uchini eshituvdim. Hazil emas ekan, shekilli. Pochtaga borib bilamiz. Yuring tezroq, – deb Nafisa erini sudrab ketdi.

Xolmatjon: «O'zi nima gap?» degancha, hamon hech narsa anglolmay borardi.

Pochtadan qalliqlar qo'liga katta-yu kalon bir buyum tutqazishdi. Uyga zo'rg'a ko'tarib kelib ochish-saki, magnitofon. Xolmatjon ko'zlari ola-kula bo'lib turarkan, Nafisa bildirish qog'ozini uzatdi. Bunda,



fabrika jamoasi Nafisaning bayram oldidan chiqarilgan yangi nusxa durracha uchun chizgan rasmiga yuqori baho bergan va bayram hadyasi bilan qutlagan edi. Nafisa sumkasidan bir moviyrang durracha oldi-da, havoda hilpiratdi. Durrachada kosmonavt qizning «Vostok» kemasida samoga parvozi o'xshatib tasvirlangan edi.

- Ana shu men chizgan nusxa, - dedi durrachani boshiga ilib Nafisa.

- Yo'g'-e! Sen-a?.. - Xolmatjon, qalliqchasining shirin araz aralash g'ururli quralay ko'zlariga mahliyo bo'lib, og'zining tanobi qochganini o'zi ham sezmedi...

1964

## KO'NGILSIZ SAFAR

**T**aksi haydashning gashti ham bor-u, xunobgar-chiligi ham bor-da.

Bugun ko'p yurdim. Ovqatlanishga ham vaqt bo'lmadi. Kechga yaqin ozroq tamaddi qilib olay deb, bir bufet oldida to'xtovdim, kattakon, og'ir korzinka ko'targan yo'lovchi so'ramay-netmay mashinamga chiqdi-da, korzinkasini sharaq etkazib qo'ydi. Men uning yalg'ars gavdasiga malol chekib, boshidan oyoq razm soldim-da, so'radim:

- Qayoqqa, amaki?

Yo'lovchi, qayrilsa bo'yni og'riydiganday, mashina oynasidan ko'zini uzmay, to'ng'illadi:

- Chuv de, uka, chaqqonroq!..

Yo'lovchi dimog' bilan gapirganidanmi, yoki borar yeri olis bo'lganidanmi, men taysallanibroq turgan edim, yo'lovchi beparvogina dedi:

- Chuv deyaver, uka. Xursand qilaman...



Ensam qotdi. Yo'lovchining beg'am, hammom elit-ganday mudroq basharasiga yana bir ijirg'anib boq-dim-u, noiloj qo'zg'aldim. Mashina har silkinganda korzinka (ichi to'la butilka shekilli) sharaqlab borardi.

Izg'irin turdi. U kuni bilan necha marta yog'ib tingan bahor yomg'irini yana boshlab keldi. Shilt-shilt loy yo'llarda ba'zan ko'lob suvlar uchrar, qish-loqqa kirib borganim sari «Pobeda»ning yurishi qiyinlashardi. Bir yerga borganda nogahon loyga botdi, g'ildiraklar turgan joyida chirillab aylanaverdi. Men bagajnikdan kurakcha olib, g'ildirakning u yoq-buyog'ini loydan tozalab ko'rdim.

Yo'lovchi esa o'rnidan qimirlamas, tez-tez oynadan qarab:

– Chuv de, uka, kechikyapmiz! – deyishini qo'y-masdi.

Qancha urinmayin, mashinani hech joyidan jilitol-mayman. Ko'ngilchanlik qilib notanish yo'lga yurish-ning oqibati shu, deb o'zimga-o'zim sazo beraman. Shunday xunob bo'lib turganimda, orqadan sister-na mashina kelib qoldi. Qo'limni ko'tardim. To'xtadi. Qush tilini qush biladi deganday, shofyor ahvolim-ni so'rab o'tirmayoq, oldinga o'tib to'xtadi. Darrov «Pobeda»ni shatakka olib, botqoqdan chiqarib yubordi. Sevinganimdan unga rahmat aytishni ham unutilman. Borayotgan yerimda orqaga quloq sola-man, sisterna ovozi eshitilmaydi. Oynadan boshimni chiqarib qaragam, sisterna boyagi yerda qotib turib-di. Ana xolos, meni botqoqdan chiqaraman, deb o'zi botibdi-da. Mashinamni shaxt orqaga buraman.

– Ha, qayoqqa? – dedi hayron bo'lib yo'lovchim.

«Hozir, amak, hozir», deb sisterna oldiga bordim. Shofyor mening boyagi ahvolimga tushib, loyga bu-



langancha g'ildirak yonlarini tozalayotibdi. Men unga qarashib yuboray desam, yo'lovchim do'qqqa o'tdi:

– Qanaqa o'zboshimcha bolasan! Vaqtim tig'iz axir!

Men shofyordan uzr so'rab, adresni bilib olib, yo'lga tushdim. Yo'lovchim:

– Chuv de, tezroq! – deb o'dag'ayladi-yu, keyin xotirjam bo'lib pinakka ketdi.

Biroz yurilgandan keyin, shofyor aytgan yo'lga qayrildim. Shunda yo'lovchi birdan cho'chidi-yu, ko'zining shosoqqasini chiqarib u yoq-bu yoqqa alangladi. Notanish yo'!

– Meni qayoqqa opketyapsan?!

– Hozir amak. Haligi shofyorning jamoa xo'jaligiga xabar berib o'taylik

Yo'lovchim betoqat chayqaldi. Bir nimalar deya pishqirdi. So'kindi. Men esa qulog'imni kar qilib bor-yapman. Xiyla vaqt aylanib jamoa xo'jaligi idorasini topdim. Voqeani bildirdim-u, orqaga qaytdim. To yo'lovchini aytgan yeriga yetkazgunimcha, u yetti bobomning arvohiga g'isht qalab bordi. Tavba, basharasidan boqibeg'am ko'ringan odam, shundoq payrahaday tez huvillab yonadigan chiqsa-ya!

– Shunaqa o'zboshimchaligingni bilganimda satqai sar yalinish edi. O'zi lafz, odamgarchilik bo'lmaydi shofyor xalqida!

«Odamgarchilik emish. O'zingiz bilarmikansiz odamgarchilik nimaligini, amak? Ko'rib turibsiz-ku, bechorani. Ustida moyi bilan kechasi sahroda qolib ketsa yaxshimidi!..»

– U qilding, bu qilding, kechiktirib, xo'jayin oldida uyatga qo'yding-da!



– Siz-ku, xo‘jayiningiznikiga sal kechikibsiz. Traktorlar moysiz qolib, urug‘ ekish kechiksa maylimidi?..

Nihoyat, yetdik. Minginchi elektr lampalar bilan charaqlatilgan ichki-tashqi hovlida nog‘ora-yu childirma gijbangi, mast qiyqiriqlar ko‘tarilib turardi. «Ha, xo‘jayinnikida to‘y bazmi. Oshiqqanicha bor ekan».

– Kechirasiz, amak! – dedim unga zil korzinkasini olib berib.

– Kelish bilan qaytishing qancha bo‘ladi, – dedi hurpayib u yorug‘da pul sanarkan va schetchikda ko‘rsatilganiga ikki baravar pul uzatdi.

Men pulning yarmisini qaytarib bergan edim, yo‘lovchi yelkasini qisib, labini cho‘chchaytirganicha, ketimdan angrayib qoldi.

1964

## KAMPIRNING DARDI

**S**alima buvi yonginasiga qattiq gursillab tushgan narsa zarbidan uyg‘onib ketdi. Pol uni ko‘tarib tashlamoqda. Uydagi asbob-anjomlar, deraza va shiftlar aralashiga sharaq-shuruq silkinmoqda. Yurakni larzaga soluvchi bu ovozlar yer qa‘ridan otilib chiqayotgan gumbur-gumburga qo‘shilishib dahshatli tus olmoqda edi. Yaqin-yiroqdan itlarning bezovta vovillashi eshitila boshladi. Dimog‘larni chang isi bo‘g‘di. Salima buvi bir zum hang-u mang bo‘lib o‘tirdi: nima bo‘lyapti o‘zi?

– Tohirjon! Bolam!.. Qaydasan?!

Karavotdan yiqilib tushgan Tohirjon, oyoq-qo‘liga ilashgan ko‘rpani uloqtirib, o‘rnidan turarkan:



– Qo'rqmang, oyi, qo'rqmang! – degancha qorong'ida turtina-turtina onasi yoniga keldi va uni su-yab uydan chiqdi.

Ona-bola hovli o'rtasiga cho'qqayishdi, Salima buvi dag'-dag' titrar, ichida bir nimalar deb pichirlar-di. Olachalpoqda ko'ziga uyi naq suv betidagi kema-day qalqib, ustiga ag'darilayotganday tuyulardi. Sap-chib o'rnidan turdi. Hushi uchgancha yana bir lahza angraydi. Endi gumburlash va itlarning vovillashini odamlarning hayajonli chuvur-chuvuri bosib ketdi. Ko'chaga chiqsa hamma bir-biri bilan hol so'rashgan, quchoqlashgan. Shular orasida faryod chekayotgan qo'shni xotinni ko'rdi. Salima buvi uning oldiga borib ahvol so'radi. Xotin eshikda elektr lampochka yonib turgan uyiga ishora qildi: deraza oynalari chil-chil sinib, kesakisi o'ynab chiqqan, uy devorlari u yer-bu yeridan darz ketgan, burchaklari tars yorilib, tui-nuklar ochilib qolgandi. Salima buvining yuragi jiz achishgan bo'lsa ham:

– Egachijon, o'zingiz omon qolibsiz, shunisiga shukur qiling, – deb qo'shnisini yupatgan bo'ldi.

Ammo shu daqiqa Tohirjon yoqqan chiroqlar nu-rida o'z uyiga ko'zi tushdi-yu, ajin bosgan yuzlari buj-mayib ketdi va birdan ayyuhannos solib yubordi.

– Hoy, opoqoyi, nima bo'ldi? – deb haligi qo'shnisi Salima buvi ketidan keldi. Bu uyning ham o'zinikiday ilma-teshik bo'lib ketganini ko'rib, dedi: – Bo'lar ish bo'пти. Joningiz sog' qolganiga shukur qiling. Hamma-ga kelgan to'y. Fig'on chekish foydasiz, opoqoyijon...

Unga qo'shilishib boshqalar ham dalda berish-di... Lekin, buvining obidiydasi tinmadi. Uning ichi-chini alam kemirmoqda edi: axir bundan bir yilgina burun eri usta Umar qancha kuch, mablag'ini sarf-





lab, uyni gullar solib remont qilgan, endi o'g'il uylantiraman deb turganda olamdan ko'z yumgan edi. Shu bilan to'y ham keyinga surilib ketgandi. Buyog'i nima bo'ladi, endi? Salima buvi bu haqda kimga ham yorila olsin! Zilzila qaytarilib, uyning devorlari chokchokidan so'kilavergan sari, uning fig'oni falakka chiqdi. Kampirning dardini Tohirgina yaxshi bilardi-yu, davo topishdan ojiz edi-da. Uning qo'li qisqa. Texnikumni bitirib, dadasi xizmat qilgan kombinatda ishlay boshlaganiga ko'p bo'lgani yo'q. Shunday bo'lsa-da, goho Tohirjon:

– Sabr qiling, oyi, bizni shu ahvolga tashlab qo'yishmas, – deb tinchitmoqchi bo'lsa, oyisi badtar:

– Ey, bolaginam, kim o'zidan ortib sening og'irini yengil qilay deb turibdi. Har kim boshiga yoqqan qorni o'zi kuraydi. Dadang rahmatli bo'lganda ham boshqa gap edi... – derdi.

Kundan kun ahvol chatoqlashdi. Salima buvi shalog'i chiqib ketgan karavotini hovli o'rtasiga amal-taqal qilib qo'yirdi-da, ilma-teshik bo'lib qolgan pashshaxonani tutib oldi. Yamoq qo'yilaverib joni qolmagan eski pashshaxona birinchi qattiq shamoldayoq parr-parr yirtilib ketdi. Kecha yoqqan yomg'irda Salima buvining suyak-suyagi qaqshab chiqdi. Bir necha kun o'tgach, uzoq qishloqdagi singlisi Hamida xabar olgani keldi. Salima buvi belini ko'tarolmay yotgandi. Opaginasining ahvolini va vayronaga aylangan uyini ko'rib Hamidaning quti uchgan bo'lsa-da, sir boy bermadi.

– O'lisning vahimasi qursin. Naq Toshkentni yer yutibdi deb eshitsag-a! Xayriyat, xayriyat, shunchalik tinch ekansizlar...

U opasini qishloqqa olib ketmoqchi bo'ldi. Salima



buvi uyi va o'g'lidan sira ko'ngil uzolmasa ham, singlisi chaka-charviday yopishib oldi.

– Yo'q demang, opajon? Rang ko'r, hol so'r deydi. Qattiq urinib qolibsiz. Dala joyda bag'ringizga shamol tegsin. Bu vayrona katalakda g'amboda bo'lib o'tiraversangiz, kasalingiz zo'rayib ketadi...

Tohirjon ham xolasining taklifiga qo'shilishdi, Qo'shilishdi-yu, ammo onasini jo'natgach, yolg'iz uyda yuragi uvushib qoldi. Kechalari qo'noqdagi tovuqlar, devor kovagidagi chumchuqlar salgina shitir etsa cho'chib tushar, go'yoki hozirgi zilzila avvalgisidan ham dahshatli bo'lib, dalagacha yetib, onasini yer yutib yuborayotganday vahima bosib chiqardi.

Onasi ketgan kunning indiniga kombinatda xushxabar eshitildi: ularning oilasini kombinat ishchilari turadigan ko'p qavatli binoga ko'chiradigan bo'lishibdi. Ertagayoq ko'chib borish kerak ekan. Tohirjon xursandlikdan terisiga sig'madi. Onam ham darrov rozi bo'ladi deb, uydagi qaqir-ququrlarni darvozaxonaga chiqardi. So'ng qishloqqa qanot qoqdi. Onasi bo'lsa, xushxabardan sevinish o'rniga, ozor chekkanday bo'ldi:

– Endi bir kamim birovlarnikida sig'indi bo'lish qolganmidi? Boloxonaga chiqib olib, qafasga tushganday qayoqqa bosh urarimni bilmay-a! Ke qo'y, unaqa havasni, bolam!

Tohirjon atayin, yotoqda vaqtincha turishlari, keyinchalik o'z uylarini remont qilishlari mumkinligini aytga, kampir ishonmadi.

– Hech qayoqqa bormayman. Ota-buvamning kindik qonlari to'kilgan joydan qo'ymasin. O'z uyim, o'lan to'shagim. Kelinni tushirib olayin-chi, keyin er-xotin boloxona uyni xohlasalaring ixtiyor o'z'laringda.



Tohirjon, tarvuzi qo'ltig'idan tushganday bo'sh-shib qaytdi.

Bu gapni eshitgan qo'shnilar, bir-birlariga «voy noshukur banda-ye, na issiqqa ko'nadi, na sovuqqa!» deb ajablanishdi.

Tohirjon ortishga taxt qilgan yuklarini yana joy-joyiga kiritib qo'ydi.

Kombinatda esa Tohirjonni: «Peshanang yarqiragan bola ekansan, yaxshi kvartira tegdi. Tezroq otni qamchilamasang, boshqalar egallab qo'yadi!» deb shoshirishardi. Oxiri Tohirjon onasining ko'chishga ko'nmayotganini aytishga majbur bo'ldi. Kombinat rahbarlari, zudlik bilan Salima buvini daladan chaqirtirishdi, uning oldiga usta Umarning qadrdonlaridan bo'lgan usta Karimni yuborishdi. Qariyani Salima buvi tanib, dilidagi borini to'kib soldi: nima qilib bo'lsayam shu ildiz otgan makonini tiklasa-yu, o'g'lining boshini ikkita qilib tinchisa, ko'zi tirikligida...

– Omon bo'ling, yangajon! – dedi Karim ota, xuddi shuni kutganday. – Ayni shu muddaodamiz-da, biz ham. Eskini yamasang esing ketadi, degan. Nima qilasiz joningizni qiynab? Axir, bir chekkasi sizni, bir chekkasi oshnam rahmatlikning ruhini xotirlashib, shundoq tep-tekin uy berishsa jon demaysizmi! Tezda ko'chib borsangiz, to'yni o'sha yerda o'tkazamiz-da.

Salima buvi tanobi qocha boshlagan labini doka ro'molining cheti bilan bekitdi-da, ko'zlari alang-jalang bo'ldi.

– O, aylanay, kelin qani, kelin yo'q-ku?

– Soddasiz-da, yanga! – dedi Karim ota, cho'q-qisoqolini tutamlab miyig'ida kulib. – Kombinatda



shuncha chevar qizlar tursa-yu, sizga kelin topilmasa. O'g'lingizning tanlagani yo'q deysizmi! A labbay? – deb nariroqda turgan Tohirjonga ko'z qisdi. Tohirjon lunjini yig'ib ololmay, teskari o'girildi.

Kampir nazarida og'ir mushkul osonlashganday bo'ldi. Lekin qarddon tuprog'idan qadam uzgisi kelmasdi:

– Bu uyim nima bo'ladi? Uni qanday tashlab ketaman?

– Iya, shu toq-ravoqingizni ko'zingiz qiymayaptimi, yangajon! – Usta xaxolab kuldi. – Juda ko'zingiz qiymasa o'zimiz remont qildirib berarmiz nariroq bo'rib, keyin ko'chib kelarsiz.

Kampir ustaning so'zlarida to'la ishonch ohangini sezgach, boshqa gap qaytarmadi. Ikki erkak sevinishib, hoziroq mashina olib kelish uchun ketisharkan, Salima buvi qo'shnilari ko'magida apil-tapil yuklarni ko'cha eshigiga chiqara boshladi.

1966

## SHOSHILINCH TELEGRAMMALAR

**B**ahri aya eri Halim otani qo'ymay kurortga jo'natdi-yu, ketidan betoqatlikka tushib qoldi.

Halim ota uzoq safarga hech yolg'iz chiqmagandi, holi nima kecharkin? Yoshi ulg'ayib, ayniqsa, parvarishtalab bo'lib qolgan. Bahri ayadan bir kun, bir soat ajralolmasdi. Yaqinda yurak kasali bilan shifoxonada ikki oy yotdi, yonidan ayani jilitgani yo'q. Birov pishirgan taomni ayanikiga o'xshatmas, hatto eng parang samovarchining choyini aya damlagan choyga alishmasdi. Buni ota ayaning yuziga ham aytaverguchi edi. Nima, juda shishinib qayerga borardi. Shu



umr yo'ldoshini deb go'zal Farg'onasidan, undagi urug'-aymog'idan kechib kelgan o'ttiz yillik qadrdon ayoli bo'lsa.

Halim otaning o'ziga qolsa, u uyidan bir bahiya jilgisi yo'q edi. Aya ham uni, ochig'i, yer-u ko'kka ishonmasdi-ku, nechukdir doktorlarning maslahatini ilib olib qoldi-da, darhol joyiga yetkazdi. Fabrikada, ko'chada uchragan yaqinlariga erini Kavkazga yuborganidan kerilib gapirardi-yu, uyda yegan-ichgani ichiga tushmasdi, kechalari uxlolmay chiqardi.

Bu kecha tush ko'ribdi. Tushida Halim ota yasharib, yana ham ko'rkam bo'lib, hammani o'ziga qaratganmish. Anvoyi tus gulchechaklar, shirin-shakar meva bog'larida yayrab savlat to'kib yurganmish, tovussimon parilar xizmatidamish. Hamma unga suq bilan qarayverganidan, aya darrov isiriq solib yuborganmish. Shundoq bo'lsayam baribir ota ko'zikib yiqilganmish.

Aya bosriqib turdi. Ko'ngli alag'da bo'b qoldi. Tushiga o'zicha ta'bir berdi.

Halim otani hech narsa yemay-ichmay, sillasi qurib yotib qolganiga yo'ydi. Keyin, otasini yolg'iz jo'natgani uchun o'g'li Salimjondan domongir bo'ldi:

- O'g'ildan ham buyurganga buyurarkan. Jilla bo'lmasa ko'ngil uchun: hoy otajon, o'zim oborib qo'ya qolay, demading ham sen nayrangboz! Qallichangni bo'lsa burnog'i yil ikki qo'llab oborib olib kelding!..

Salimjon onasining so'zini kulgiga oldi: qiyiq ko'zlarini battar qisib, tilini bir qarich qilib dedi:

- Xoh, oyijon, boshida aytmabmidim: dadamsiz ko'nglingiz tinchimaydi, undan ko'ra o'zingiz birga bora qoling, putyovka topib beramiz deb... O'zingiz nima dedingiz o'shanda?



Aya: «Odamlardan andisha qilaman. Ishga, majlisga er-xotin yetaklashib borgani borgan, bir kami kurtortga ham qo'ltiqlashib borishi qolganmidi kelin-kevatlik narsa, deb masxara qilishar», degan edi. Esiga tushib kuldi.

– Innaykeyin-chi, fabrikadan er-xotinga baravar otpuska bermaydi, dedingiz. Endi kelib meni benovot qilyapsaz!

– Ha, bo'пти, nayrangboz, gapni xamirday, cho'zmasdan vaqti g'animatda dadangga dilgirom berib kel. Aytgin: «Xudoga shukur, biz tinchmiz. Duoyi joningizni qilib turibmiz. O'zingiz sog'salomatmisiz, quvvatingiz, ishtahalaringiz tuzukmi? Ovqatlari, joylari, odamlari yoqdimi, zerikmaygina yuribsizmi», degin. Hammamizdan bitta-bittalab salom aytgin.

Bugun kech bo'lib qolgani uchun Salimjon pochtaga erta bilan chiqadigan bo'ldi. Ammo shu kecha qattiq zilzila bo'ldi-yu, hamma narsani xayolidan to'zitib yubordi.

Kechqurunga borib otaning o'zidan shoshilinch telegramma kelib qoldi. «Bahri otincha» deb xotini nomiga yozgan edi: «Men yaxshiman, o'zlaringiz sog'misizlar. Zilziladan qanday shikast yetdi? Hoziroq javob kutaman». Xiyla dilsiyohlik kechirayotgan Bahri ayani telegramma xushnud qilish o'rniga, esankiratib qo'ydi. O'g'li ishdan kelishi bilanoq telegrammani ko'rsatib, unga yopishdi:

– Darrovoq zilzilani qayerdan bila qoldi dadang? Sen dilgiromingda yozgandirsan-da, a, chaqqonlik qilib?!

– Chaqqonlik qayda, ayajon. Xayolimdan ham chiqib ketgandi telegramma berish. Endi berishim kerak, – dedi iziga qaytayotib Salimjon.



– Shoshma, hoy, nima deb berasan? Tag'in o'takasini yormagin kasal narsani! – deb o'g'li ketidan chiqdi.

Salimjon pochtaga borib kelguncha eshikda haq deb kutdi. O'g'lining qorasi ko'rinishi bilan:

– Nima deb yozding? – dedi.

– Avvalo salom aytdim. Innaykeyin: «Yerning salgina bezgagi xuruj qildi. Uncha shikast yetgani yo'q. Barimiz sog'-salomatmiz. Xotirjam dam olavering», dedim. Qotiribmanmi?

– Qotirmay ket, nayrangboz. Bezgak-mezgagiga balo bormi. «Yer qimirlayotgani yo'q» deya qolsang bo'lmasmidi!

– Qiziqsiz-a ayajon. Butun olam eshitib turgan bo'lsa. Oyni etak bilan yopib bo'ladimi!

Ko'pniki qatori o'z uyini kutilmagan ofat qattiq qaqshatib ketgani ayaning ko'ziga ko'rinayotgani yo'q. Hozir faqat Halim otani o'ylar, ishqilib, umrida bir erishgan rohati burnidan chiqib ketmasmikin, degan tashvishda edi.

Ertasi yana shoshilinch telegramma keldi. Bunda ota po'pisaga o'tib: «Qattiq xavotirdaman. To'g'risini yozaveringlar. Bo'lmasa ertagayoq yo'lga otlanaman», degan edi.

Ana ko'ring, ayaning oyog'i kuygan tovuqday tipirchilaganini. Halim ota, ketganiga o'n kun bo'lmasdanoq, qaytib qolsa-ya! Endi aya o'g'liga ham ishonmay, o'zi pochtaga chopdi. Telegramma qabul qiluvchi qizga yolvora-yolvora aytib yozdirishga unatdi. Duxoba kamzulining cho'ntaklarini titkilay-titkilay erining adresini topdi. So'ng adres ketiga «Umr yo'ldoshim Halimjon Alimjonovga tegsin» deb yozdirdi. Har so'zni ikki-uch qaytarib, uydagilarni bitta



qoldirmay, nevaralarigacha nomma-nom aytib alohida-alohida salom topshirarkan, pochtachi qiz oldin hingir-hingir kuldi.. Keyin mijozlar mahtal bo'lib qolganidan malol chekib:

– Xolajon! Bu duoyi-salommas. Ezmachilik ketmaydi. Innaykeyin, har bir yo'talishingizga pul to'laysiz. So'zning lo'ndasi kerak, – deb jerkidi.

– Meni puldan qochirolmaysan, shoshilma oppoq qizim, mana hozir, – deb aya yana bir to'qqiz gapni aytvorgandan so'nggina, lo'ndasiga keldi: zilzila xususidagi gaplar uzunquloq mish-mishdan iborat ekani ni uqdira ketdi. Ayaning sochidagi oqini hurmat qilib tishini tishiga qo'yib turgan mijozlarning sabr kosasi to'lib, shovqin solib yuborishdi. «Oppoq qiz» to'nini teskari kiyib:

– Bu to'g'ri kelmaydi, xolajon. Boring, o'g'il-qizlaringizga yozdirib keling, – deb qog'ozni ayaga irg'itdi.

Aya muztar bo'lib, bu qizning muomalasi va xulqidan kimga shikoyat qilsam deb turgan edi, Salimjon kirib keldi. Onasi tutgan chala xatni o'qirkan, Salimjon kulgidan o'zini bosolmas, unga sari onasining xunobi oshardi. U onasining aytganlariga «yo'q» demadi-yu, tamomila boshqatdan yozdi, dadasini mumkin qadar tinchlantiradigan so'zlar topdi. Oxirida «bezgak»ni ham qistirib o'tdi. Dadasini hadeb tashvishlanavermasdan, kulib ham olsin-da!

– Bir gap aytsam, yo'q demaysizmi? – dedi Salimjon oyisiga pochtadan chiqib kelishayotganda. Oyisi «ayta qol» dedi. Salimjon yana «yo'q» demaysiz-a, deb pisanda qilgach aytdi. – Haliyam bo'lsa o'zingiz borasiz!..





– A-a? Bu qanaqa nayrangbozlik tag'in? – dedi ko'zlarini alanglatib aya.

– Shundoq qilmasangiz bo'lmaydi. Putyovkani gaplashib keldim. Ertadan keyin bo'ladi.

– Kelishmagan ish. Shundoq kulfat vaqtida senlarni tashlab ketolarmidim!

– Dadam muddatidan oldin qaytvorsalar-chi?

– Yo'q, yo'q, hech kela ko'rmasin, a! Yuragi yomon, yuragi...

– Bo'lmasa o'zim boraymi?

Aya, o'g'liga sinovchan nazar bilan boqdi; o'g'lining butun qiyofasida ona amriga hozirlik ifodasini tuygach, ko'zlariga g'ilt-g'ilt yosh oldi. Ammo hozir na «ha», na «yo'q» deymadi. O'ylab ko'radigan bo'ldi.

Yo'ldan fabrikaga kirdi-yu, yangilik ustidan chiqib qoldi. Ayani otliqmi-yayov axtarishayotgan ekan. Gap shundaki, zilziladan zarar ko'rgan fabrika ishchi, xizmatchilarining yuzga yaqin bolasini Kavkazdagi oromgohga jo'natishmoqchi edi. Bolalarga bosh bo'lib to'rt kishi borishi kerak ekan. Shularning bit-tasiga, to'quv fabrikasida uzoq vaqtdan buyon ishlab kelayotgan, ham ishi, ham so'zi bilan yosh-u keksaga ma'qul bo'lib qolgan Bahri ayani tanlashibdi. Bu taklifdan Bahri aya cho'chib tushdi. «Men nima ham qilib berolardim» deb, keksaligini bahona qildi. Lekin bu bahonasi inobatga olinmadi. Qaytaga yoshlar ichida ish ko'rgan, hurmatli onaxonning bo'lgani yaxshi. Ayani keksalar qatoriga qo'shish ham qiyin: hali jussasi pishiq, miqti, bitta yoshchalik g'ayrati bor. Pazandaligi-chi? Bu yerdan boruvchi bolalar xonaki ovqatlansa zoriqib qolishmaydi Bularning hammasi ustiga, o'sha bolalar oromgohi Halim ota dam olayot-

gan kurortga yaqingina ekan! Ana shu yog'ini eshitgandan keyingina shilq etib tusha qoldi aya.

Bolalar karvoni yo'lga chiqqan soatda esa, ayaning qo'liga yangi telegramma tutqazishdi. Bunda umr yo'ldoshi, haq deb «otincha»ni kutib turganini bildiribdi. Aya yalt etib Salimjonga qaradi: «Obbo nayrangboz-e, buyog'ini ham bildira qolgan ekansandada, chaqqonlik qilib?..»

1966

### «KELARMIKAN, DADAJONING?»

**E**rtalabdan necha topqir turqini o'zgartirgan havo, kechga yaqin daraxt shoxlari orasidan beholigina to'kkan nurlarini ham yig'ib, tumshayib oldi. Gir atrofdan chang-to'zonni charx urdirib birvarakayiga boshlangan bo'ron, xayal o'tmay hammayoqni alg'ov-dalg'ov qilib tashladi. Zebinisa o'tirgan ikkinchi qavat ro'parasidagi daraxtlarda chug'urchiqlar chirqillashib, o'z uyalari atrofida uymalashib qolishdi. Zebinisa qulog'iga katta bino orqasida daraxt gupillab ag'darilgani, tunuka tomning sharaqlab ko'chgani, yana allanimalarning gumbirlagani eshitildi. Ust-ust momaqaldiroq bo'lib, chaqmoq chaqdi. Bo'ron aralash sharros yomg'ir quyib berdi. Uyga duv urilgan yomg'irdan ko'z ocholmay qolgan Zebinisa, derazani bekitib oldi.

Yomg'ir shiddatli selga aylanib, uyni zulmat bosgan sari, Zebinisaning xayoli kelini bilan nevarasiga og'di: «Uyi bir holatda edi.. Puf desa uchib ketguday ko'hna choldevor. Buning ustiga u yerlar zilzilaning kindigiga yaqin, deyishadi. Holi nima kechdiykin? Sayfiddin bordimikin?..»



Shu chog', kiyimi shilta-yu shalabbo bo'lib Sayfi kirib keldi. Uning loyga qorishgan botinkasini yechib olarkan, onasi so'radi:

– Gulsaradan xabar oldingmi, o'g'lim?

– A? – dedi Sayfi eshitmaganga olib. – Bo'ronning vahimasini ko'rdingizmi? Zo'rg'a yetib keldim o'zim. Qo'rqqandirsiz-a, oyi?

– O'zing qayerda eding? Bormadingmi bugun ham? Nima deb tayinlagandim ertalab?

– Uni-buni qo'ying, oyi, – dedi Sayfi, gapni chalg'itmoqchi bo'lib, – bo'ron zilziladan ham battar bo'ldi-da. O'z ko'zim bilan ko'rib keldim: tomlarni uchirib, mashinalarni bir-biriga urishtirib yuborsa-ya! Huv anavi tepalikda turgan faner do'kon-chi, ichidagi odamlar bilan paqqos ag'darilib tushsa bo'ladimi!..

– Hammasini bilib o'tiribman. Bo'ldi! – deb jerkib soldi Zebinisa. – Gapimga javob ber: bormadingmi battol? Qani, chaqqon kiyingin-u, borib kelgin!

Qosh qorayib qolgan edi. Sayfi elektrni yoqay desa yonmadi. Qayerdadir sim uzilibdi. Qorong'ida turtinib onasi keltirgan toza kiyimlarini kiydi. Zontik olib pastga tushdi. Sel shiddatidan tushgan bo'lsa ham, ko'chani yo'lkalargacha suv bosib, yurish qiyinlashgan edi.

Sayfi qo'shni mahalla tomon burilarkan, yo'l og'irligi ustiga ko'kragidan birov itarayotganday edi. Bu tomondan qadami uzilganiga bir oycha bo'lib qolgandi. Qadamini uzgan narsa aslida o'z qilmishi ekanini bilsa ham, gunohini xotinigaga to'nkab kelardi. Mana endi onasining' zo'ri bilan xotini oldiga borayotib, o'tgan kunlarini o'ylayotibdi. Er-xotin besh yilcha yashab, ortiqcha san-manga borishmagan. Sayfi shahardagi internatda tarbiyachi, Gulsara



tug'uruqxonada akusherka edi. Nima bo'ldi-yu Sayfi ishidan aynab qoldi. Qaysi bir sherigi ko'magida va-gon restoraniga ishga o'tdi. Haftalab safarda bo'lishi ustiga ichib kelishni odat qildi. Shundan boshlab uyda g'idi-bidi chiqdi. Qo'ni-qo'shnilar Sayfini «mos-kopchi boy» deb kulgi qila boshlashdi. Gulsara nomus qilib, «shu ishingizni qo'ying» deb necha marta yalin-gandi. Sayfi: «Internatda shuncha ishlab, birim ikki bo'ldimi! Ishning yog'lig'i bu yoqda ekan-ku. Non tepkilik qilma!» dedi. Keyingi paytda uyiga tez-tez sheriklarini boshlab kelib, tongotar ichkilikbozlik qi-lishni chiqardi. Bunisiga Gulsara chidolmadi. Eriga achitib gapirdi. Yoniga qaynanasi qo'shilishdi. Sayfi bularni mensimay o'z qilig'ini qilavergach, Gulsara bolasini olib, oyisinikiga ketib qoldi. Sayfi, onasining zo'ri bilan bir marta kelib xotinini olib ketmoqchi bo'lgan edi. Gulsara: «O'z ishingizga qaytmagunin-gizcha bormayman», deb shart qo'ydi. Sayfi bu shart-ni bajarmadi...

U xayolga cho'mib borayotib necha marta loy-ga sirg'anib ketdi. Oxirgi sirg'anishida muyulishda-gi ag'darilgan devorning sinchiga urilib, peshona-si g'urra bo'ldi. Peshonasini silay-silay Gulsaralar ko'chasiga burilarkan, ko'r oydinda xunuk manzaraga ko'zi tushdi: ko'cha bo'ylab qatorlashgan brezent pa-latkalarining o'rta yerida kekxa qayrag'och ko'ndalang tushib, ildizidan qo'porilib yotibdi. Sayfi cho'chib tushdi: qayrag'och shundoqqina Gulsaralarning eshigi ro'parasida edi-ya! Ana, uning bahaybat gav-dasi, tarvaqaylagan serpanja shoxlari Gulsaralarning uyiga bosib tushibdi! Daraxt atrofida odamlar uyma-lashgan. Hamma vahima ichida: «Uy egalari sog'mi?» deb bir-biridan so'rayapti, bir-biriga bilganini tu-



shuntiryapti. Shu so'zlardan Sayfi anglab oldi; bo'ron vaqti-da Gulsara bolasini qidirib palatadan o'zining buzilib yotgan uyiga o'tgan ekan. Daraxt ag'daralishi bilan uydan qochib chiqaman deb, zinadan pastga yiqilibdi-yu, daraxt shoxlarining ostida qolibdi. Hozirgina «Shoshilinch yordam» mashinasi uni behush holda olib ketibdi.

Sayfining yuragi orqasiga tortib ketdi. Bolasini qidirib, ko'zlari har yoqqa jalangladi. Qorong'ida odamlar buni tanimadi. Shunday bo'lsa-da, go'yo hamma: «Ana, ofat vaqtida tashlab qo'ygan eri, insofsiz!» deb unga xo'mrayayotganday tuyulardi. U o'zini asta chetga oldi, Palatalar orqasidan nariroq yurdi. Shunda bir palatadan bolalarning chuvur-chuvuri eshitildi. Zehn bilan tinglarkan, qulog'iga tanish ovoz chalindi. Juda ham tanish! Suyarjon! O'g'ilchasi! Hayajon ichida Sayfi palatkaning oldiga o'tdi. Odam sig'arli tuynukdan ko'z tashladi: elektr o'rnida sham pilpilladi. Stol atrofida bolalar uymalashyapti. Ular dunyo tashvishidan xoli, shu tobda «mehmon-mehmon» o'ynashib choy ichishgan-u, bir kampir choynak-piyolalarni yig'ishtirib qo'yayotgan edi. Darrov bolalardan biri chiroyli qutichaday stolga shaldiratib kubiklar to'kdi-da, bog'chada o'rganib kelgan hunarini ko'rsatib, uychalar qurishga tushdi. Ikkinchisi «dud-dud» qilib jajji mashinasini yurgiza ketdi, bu mashinachani unga kecha «tug'ilgan kuningga sovg'a» deb dadasi keltirganini maqtab ham qo'ydi. Og'zi ochilib turgan bolalardan biri unga:

– Bizni ada ham sovg'a oberadi tug'ilgan kunimizga, – deb qo'ydi.

– Bizzi adayam...

Buni o'yinchoqlarga mahliyo bo'lgan Suyarjon aytdi. Ha, u yaqinda uchga to'ladi.

– Sizning dadangiz kelarmidiki? – dedi unga bo'yi tikroq bir bola.

– Him teladi...

– Albatta keladi adaginasi, – dedi kampir Suyarjonning boshini silab.

Bu so'zlar, bolalarning oldiga kirsammikan deb turgan Sayfining ko'ngliga g'alayon soldi. Hozir kirsas, go'daklar o'rab olib: «Qayoqda yuribsiz? Qani sovg'angiz?» deb so'roqqa tutadiganday, kampir: «Shundoq bag'ri tosh ota ham bo'ladimi!» deya dashnom beradiganday tuyuldi. O'zini qorong'iga tortdi. Loyni shaloplatgancha zudlik bilan kelgan iziga qaytdi.

– Qalay, sog'-salomatmi? – dedi Zebinisa, uni ko'rishini bilanoq.

Tili so'zga kelmay og'ir dam qotib turdi Sayfi.

– Ha, nima bo'пти? Gapirsang-chi! – dedi ona hayqirib. Sayfi entikdi. Yig'lamoqdan beri bo'lib, voqeani so'zladi. Zebinisa hushi boshidan uchib o'tirib qoldi. Keyin bu ko'rguliklarga Sayfi, faqat shuning o'zi sababchiday:

– Ha, battolgina-ya! Onangning so'ziga quloq solmading, vaqtida xabar olmading! Ha, bola-chaqaning uvoli tutkur-a! – deb yig'i soldi. Hoziroq borib bolani olib kelishni buyurdi.

Sayfi indamay ko'chaga chiqdi...

Onasining qayerga ketganini bilolmay qolgan Suyar, xarxasha qilib o'tirgan edi. Yotsirab hadeganda adasiga yopisha qolmadi. Kela-kelguncha g'ashlik qildi. O'ziga elakishtirib, «oying senga mayajni opkegani ketgan. Hali zamon keladi», deya ishontirib ux-



latguncha Zebinisaning esi ketdi. Bola uxlagani bilan Zebinisa uxlamadi. Ne-ne xayollar og'ushida kelinini o'ylab, xavotirlanib chiqdi.

Erta bilan Zebinisa achchiqqina mastava pishirib, Sayfini kasalxonaga yubormoqchi bo'lib tursa, Sayfi chamadonini yig'ishtiryapti. Ona tutoqdi:

- Yanami?.. Bormaysan hech yoqqa! Bo'ldi shuncha sanqiganing!..

Sayfi, shu oxirgi safarga chiqishi ekanini aytdi. Onadan ijozat bo'lmadi. Noiloj, Sayfi onasi tutqizgan tugunchani ko'tarib, kasalxonaga jo'nadi.

Zebinisa, o'g'lim xushxabar keltirarmikin deya umidlanib qoldi. Soatlarcha ilhaq bo'lib kutdi. O'g'ildan darak bo'lavermadi. «Kasalxona Oqtepada degan edi. Oqtepa qochib ketibdimi. Yo kasali og'ir bo'lsa tepasida o'tirib qoldimikin? Yo kasalxonadan chiqqandan so'ng u yoq-bu yoqqa boshi og'dimikin? Kuydirdi-da, battol, kuydirdi!..»

Zebinisa ortiq toqat qilolmadi. Bolani qo'shniga tayinlab o'zi yo'lga chiqdi. So'ray-so'ray kasalxonani topdi. Mana Zebinisa palatada. Ko'zlari javdirab o'ng-so'ldagi karavotlarga qaraydi. Kelin qani? Ketidan hamshira kelib, qulog'iga: «Vrachning buyrug'ini unutmang, ortiqcha gaplashmang», deb ogohlantirdida, burchakdagi karavotga boshladi. Ana, qo'ng'ir sochlari yostiq bilan bitta bo'lib ketgan yosh juvon adyoldan qollarini chiqarib, Zebinisani o'ziga imlayapti. Zebinisa uning za'faron betlariga termilib turdi. Keyin esa:

- Voy, sho'rim... Senmisan... bolam! - deya uning bag'riga otildi. Yuz ko'zlarini silarkan, Gulsaraning timqora ko'zlarida yosh yiltiradi. - Nima bo'ldi, bolam, darding og'irmi?



Gulsara to'liqib so'zlayolmasdan, boshini sarak-sarak qildi. O'zini xiyol bosib olgach, pichirladi:

– Ovora bo'psiz-da. O'zingiz tinchmisiz, oyijon? Suyar yolg'iz qoldi-da...

– Suyaring yolg'iz qolmaydi, bolaginam. Suyaring bag'rimda, Xotirjam bo'l, o'zingni o'yla...

Gulsaraning g'amgin ko'zlarida sevinch shu'lasi barq urib, za'faron chehrasi yorishganday bo'ldi. «Rahmat», deb labi pichirladi.

Zebinisa endi Sayfining kelgan-kelmaganini so'ray deb turgan edi, hamshira «bo'ldi» deb uni eshikka yetaklab qildi. Zebinisa hamshiradan surishtirgan edi, hamshira, hali bir yigit kelib kirmoqchi bo'lgani, lekin bemor kiritmaganligini aytib berdi.

Zebinisa xayol surib ketdi: «Nega kiritmadi ekan-a? Kirolmagan bo'lsa Sayfi qandoq ahvolga tushdiykin? O'sal bo'lgandir rosa!.. O'zidan ko'rsin, battol, o'zidan!..» Hozir o'g'li uyda o'tirgan bo'lsa xo'p koyib alamdan chiqmoqchi edi. O'g'li hamon qaytmabdi.

Sayfi o'sha ketganicha bir haftada ham qaytmadi.

Bu orada Gulsaraning kasali beri qarab, lat yegan a'zolari xiyla tuzaldi. Bolasiga ichikib, hadeb o'tinavergach, uyiga borishga ruxsat berishdi. Zebinisa uni to'g'ri o'z uyiga olib keldi.

Kuni kecha Zebinisa o'g'lining bir o'rtog'idan shunday yangilik eshitib keldi: Sayfi Chirchiqqa, zilzilada vayron bo'lib o'sha yerga ko'chirilgan internatiga yalinib borganmish. O'sha qilgan gunohi uchun hozircha past ishga qo'yishganmish. Sayfi shunga ham rozi bo'libdi-yu, ammo xotininimning betiga qanday qarayman deb yuzi shuvut emish.

Har qalay o'g'lim insofga kelibdi, deb Zebinisa sal tinchigan bo'lsa-da, onaizor yuragining bir chekkasi





achishdi: chet joyda yolg'iz o'zi issiq-sovuqsiz qiynalib qolmadimikin?..

Gulsara esa eri haqidagi xabarga uncha parvo qilmaganday edi.

Biroq, Suyarjonning xarxashasi o'tib tushdi. Kuni-ga necha marta so'raydi.

– Adam qachon teladi?..

Buvisi, «adajoning bugun-erta keladi» deb yupat-sa ham oyisi:

– Qaydam, – deb qo'yadi. Dili esa zirqiraydi: «Ke-chib ketganga o'xshaydi butunlay. Bilolmadim, kelar-mikan adajoning?..»

1966

## FOTIMA VA ZUHRA

**H**ammanikiga qaraganda bizning uyda ish ko'payib ketdimi deb qo'ydim-da. Oyimning tong ot-gandan kechasigacha bandligi, dadamning ishdan qaytib oq uyning buzuq-yoriqlarini tuzatishga kirishib ketishini aytib o'tirmayman. Fotima bilan menga ham maktabdan, dars tayyorlashdan qolgan vaqtlarimizda vazifa qalashib yotibdi.

Endi maktabdan kelib ko'chani ko'zlab tursam, Fotima:

– Xo'sh, Zuhraxon, qayoqqa quyon bo'lyapsiz? – deb yo'limni to'sdi, vazifamni esimga soldi. Xuddi opalik qilmoqchi bo'lgandek, a? Koshki o'zlari men-dan katta bo'lsalar!

Bugun ekinlarni sug'orish, hovli supurish mening navbatim ekan. Bizda uy ishi bilan ko'cha ishi shuna-qa navbati bilan keladi. Ertaga yakshanba, bemalol-roq o'ynash uchun navbatimdan qutulib olganim ham tuzuk.



Negadir ariqlarimiz qaqrab qolibdi. Ko'chadagi katta suvdan qo'shnimiznikiga kiradigan quloqning boshiga borsam, suv kirib turibdi. Ha qo'shni opoqi boylabdi. Uning hovlisini aylanib hali zamon biznikiga suv chiqadi, dedim-da, ko'chadagi bolalar bilan «oq terakmi – ko'k terak» o'ynab qoldim. O'yinga qiziqib, suv esimdan chiqay degan ekan, Fotima yana chaqirib eslatdi:

– Suv qani?

Hovlimizga haliyam suv o'tmabdi. Tag'in quloqqa bordim: suv sharaqlab o'tib turibdi. Iya, nega shu choqqacha biznikiga suv yetib bormayapti? Qo'shni hovliga qaray degan edim, eshigi qulf ekan. Opoqim suvni boylabdi-yu, bir yoqqa chiqib ketibdi-da. Hovlimiz tomondan qarash kerak. O'rtamizdagi devorning yarmi shu kecha bo'lgan zilziladan qo'shni tarafga ag'anab tushgan edi. Shu joyidan opoqinikiga o'tdim, o'tdim-u, kapalagim uchib ketdi: o'tadigan omborga suv tiqilibdi-da, hovliga toshib, ekinlarni bosib ketibdi. Ekinlardan o'tib, hovlining burchagidagi sim to'r bilan o'ralgan tovuqxonaga kiribdi. Undagi yangi ochirilgan sap-sariq jo'jalar chirq-chirq qilishib burchak-burchakka biqinishyapti, suv balo-maloday bosib, ularni ko'mib yuborishiga oz qolibdi. Buyoqda don cho'qib yurgan tovuqlar bolalari o'lim xavfi ostida qolganini ko'rib naq o'takalari yorilibdi, jonlarining boricha qaqolashib sim to'rga o'zlarini urishyapti. Men shoshib qoldim.

– Fotima, Fotima! – deb baqirdim. Fotima ham chiqib, esankirab qoldi.

– Nima qilamiz, a? Ko'chadagi o'g'il bolalarni chaqiramizmi? – dedi u.



– O‘zimiz-chi! O‘zimiz nima qilib bo‘lsayam avval jonivorlarni qutqarishimiz kerak! – dedim. Ko‘chaga yugurdim, suvni bekitib keldim.

Ikkovimiz suv kechib, tovuqxonaga kirdik, bir amallab jo‘jalarni tutdik-da, savatga solib chiqdik.

Bu vaqt hovliga yoyilgan suv, ajdarhoday vishil-lab, har yoqqa o‘rmalardi, o‘zini oshxonaga, yerto‘laga urardi.

– Endi omborni ochib yuborishimiz kerak!

– Bolalarni chaqira qolaylik! – dedi yana Fotima.

– Qo‘y o‘zimiz! – dedim. Ketmon, belkurak va lom topdim.

Qarasak, paxsa devorning katta bir bo‘lagi tushib, sopol quvurni majaqlagan ekan. Devor bo‘lagi metin-day qattiq. Zo‘rg‘a-zo‘rg‘a sindirib, beriga torta bosh-ladik. Buyoqdan suv kelib urar, tuproq, kesaklar loyga aylanardi. Birpasda hammayog‘imiz terga botib, loyga qorishib ketdi. Quvur ochildi. Uning parcha-parchala-rini olib tashlaganimizdan keyin, suv varillab ombor-ga urdi.

Biz devorga minib, hovlidagi suvning asta-sekin pasayishini tomosha qilayotgan edik. Eshikda qulf shiqirlab, opoqimning tovushi keldi. Lip etib hovli-mizga sakradik. Apil-tapil vodoprovodda yuvinarkan-miz, opoqimning jonsaraklik bilan:

– Voy o‘lay, voy o‘lay, bu nimasi! Ha esginam qur-sin, a! – deb hayqirgani eshitilib turardi. – Kim qildiy-kin buni? Kim kirdi hovlinga? – deb o‘ziga-o‘zi savol berardi.

Biz bo‘lsak qiqir-qiqir kulamiz-u, bir-birimizga «dam!» deymiz.

Bir payt devordan opoqining boshi ko‘rindi. Biz bu vaqt artinib toza kiyimlarimizni kiyib olgan edik. Opoqi qattiq hayajon ichida:



- Hoy, Fotima-Zuhralarim! Bu hovliga kim kirdi, a? Sho'rim qurib qolay degan ekan. Qaysi baraka topkur falokatning oldini oldi, a - derdi.

Men Fotimaga: «Qilgan ishimizni bildirmaymiz, dam!» deb tayinlagandim. Fotimaga bu yoqmasa ham, gapimga kirgandi. Bir-birimizga qarab yelka qisdik-da:

- Bilmadik, opoqijon! - dedik.

Opoqi so'zimizga chippa-chin ishondi-da, boshqa qo'shnilardan surishtirgani ko'chaga chiqdi...

1969

## OTA

**S**aratonning sariq kunida qon bosimi oshib ketgan Kabir ota kasalxonaga yotdi. Uni qizi boshlab kelgan edi. Qiz bemorning yostig'i, choyshabini to'g'rilab, choy keltirib, tepasida parvona bo'larkan, ota duo qilib:

- Baraka topgin, bolam. Seni bergan xudoyimdan o'rgulay. Endi bora qol. Tuzukman, oyinglardan xabar ol... - dedi.

Qizning ketishga ko'ngli bo'lmay, xiyla vaqt otasini yelpib o'tirdi. Benihoya issiqdan og'ir nafas olayotgan chol sal tinchib, ko'zi uyquga ilinganday bo'ldi. Uning yaqinidagi karavotda yotgan, yosh bo'lsa-da, soqollari o'siq yigit qizga qarab:

- Boravering, yaxshi qiz.. Otangizga biz qarab turamiz, - deb qo'ydi.

Qiz nochor qo'zg'aldi. Kechga yaqin tuguncha ko'tarib yana keldi. To'shakka qapishib ertalabdan buyon tuz totmay yotgan otasiga yalinib-yolvorib ovqat ichirarkan, otasi:



– Mazali bo‘pti xo‘rda. O‘zing pishirdingmi qizim? – dedi.

– Ha... Yo‘q, oyim, – dedi qiz shoshib.

– Oying?.. – Cholning xasta ovozida va oqaringan uzun qoshlari ostidagi botiq xira ko‘zlarida negadir ajabsinish sezildi.

Qosh qorayib, palatada chiroq yoqilgach, o‘shanda ham otasining zo‘ri bilan, qiz chiqib ketdi.

Ertasi ham qiz kun bo‘yi otasi oldida bo‘ldi. Oliy maktab talabasi, oliftagina kiyinishi bilanginamas, hayo-ibosi bilan ham ko‘zga yaqin bo‘lgan bu ajab-tovur, nozik-nihol qizning otasi yonidan ketmasligi palatadagilarni hayratlantirdi. Cholning xotini nima uchun kelmaydi? Boshqa farzandlari yo‘qmikin? Bor bo‘lsa, og‘ir kasal otani nahotki shu qizchagagina tashlab qo‘yishsa?

Bir kuni kechasi bezovta bo‘lgan otaga soqoli o‘siq yigit qarab turgan edi. Ertalab cholning rafiqasi Mavluda xola keldi. Qizi ancha o‘qishdan qolgani, bugun imtihonga ketganligi uchun eriga o‘zi qarab turmoqchi bo‘libdi. Lekin rangining siniqligi, oyog‘ini arang sudrab bosishidan bu kekxa ayolning o‘zi ham nosog‘ ekanligi ko‘rinib turardi. Ko‘zini ochgisi kelmay lohas yotgan chol, xotiniga tetik ko‘rinmoqchiday qaddini ko‘tarishga intildi-yu, madori yetmadi. Xotining: «Tuzukmisiz, otasi?» degan savoliga, Kabir ota:

– Xudoga shukur, yaxshi qarab turishibdi baraka topkurlar. O‘zingiz qalaysiz, onasi? Chakki kelibsizda, – dedi achinish bilan. Keyin so‘radi: – Zarifjondan darak bormi? Tushimga kirib chiqdi.

– Ko‘p o‘ylagansiz-da, otasi. Kelib qolar...



Mavluda xola yelpig'ich olib, erini yelpishga tushdi-yu, birpasda toliqqan qo'li harakatga kelmay qoldi. Buni payqagan ziyrak chol ko'zi yumuq holda xotini-ga iltijo qildi:

- Bo'ldi, onasi, bedarmon narsa, urinib qolasiz. Bora qoling...

Chol-kampirning so'zlari va harakatlariga razm solib yotgan soqoli o'siq yigit Ne'matjon, ortiq toqat qilolmadi. O'rnidan turib, ayolni yaqiniga imladi, termosdan choy quyib berdi, cholning ko'zi uyquga ketganini bilib, Mavluda xolaga shivirladi:

- Kechasi otam alahlab: «Zarifjon, Zarifjon!» deb chiqdilar. O'g'lingiz bo'lsa kerak-a, u? Hozir qayerda?..

Chet odamning kutilmagan savoli xolani o'ylatib, qalbidagi yarani tirnab qo'ydi. Anchagacha tiliga so'z kelmay turdi.

- Beadablik qilgan bo'lsam uzr, xolajon. Meni begonasirab tortinyapsiz. Ota ko'zimga issiq ko'ri-yaptilar. Kelganlaridan beri so'rashib tanishay deym-an, goh hud-goh behudlar... - Ne'matjon o'zini yaqin olib, kimligini, og'ir zotiljam bo'lib uch oydan beri shu yerda yotganini aytib berdi.

Shundan keyin Mavluda xola, bu himmatli, ko'ngli ochiq yigitdan sir bekitib o'tirmadi...

Kabir ota Mavluda xolaning keyingi eri ekan. Ol-dingi eri suyuqoyoq chiqib, Mavludani ko'p kuydirar, mast-alast kelib «qildan qiyiq axtarib», janjal chiqarar, ikki go'dakning o'takasini yorardi. Necha mar-ta qo'ydi-chiqdi bo'lishgandi. Sayoq yursang tayoq yeysan deganday, bora-bora ishidan ham mosuvo bo'lgan, bir kuni piyonista ulfatlari bilan katta jinoyat ustida qo'lga tushib, uzoq muddatga kesilib ketgan.



bo'luvdilar, o'g'ilning uzoqlashgani bilinib qoldi. Ayniqsa, boshlari yostiqqa yetgandan buyog'iga. Dadasini bilan menga qaraydigan – bitta qizginam. Shu bechoraga qiyin bo'lib ketdi. O'qishi ham ora yo'lda qolmasaydi-da!

Mavluda xolaning og'ir hikoyasidan qattiq ta'sirlangan Ne'matjon, o'rnidan turib:

– Hozir qayerda ekan o'g'lingiz? – dedi, go'yo shu chog' toshbag'ir o'g'ilni yoqasidan tutib kelishga chog'langanday.

– Safarga ketyapman degandi, bir kelganida.

– Qachon kelgan edi? Otasining kasalini bilganmidingi?

– Ha, bir hafta burun qizimdan chaqirtirgan edim. Otasi tobi qochib yotuvdila. Ko'rishib, birpas gaplashdi-da, «dorilaringizni ichib turing. Tuzalib ketasiz, boboy, bir chekkasi qarilik», – deb qo'ydi. Men unga: «Shunday deyapsan-u, bolam, otangning dardi bu gal bo'lakcharoq», dedim. «E, vahima qilmang, oyi. Otam uncha-muncha dardni ko'rdim demay yengib kelganlar, bu gal ham yengib yuboradilar», deb yupatdi. Hamrohlari bilan samolyotga bilet olgan ekan, choygaham turmadi...

– Qayerga ketganini bilmaysizmi, xola? Palata vrachi ham qiziqayotuvdi, unga aytib darrov chaqirtirardik.

Mavluda xola uyog'ini aytolmadi.

Ne'matjon palata eshigiga borib hamshirani chaqirdi-da, undan kiyimlarini keltirib berishlarini iltimos qildi.

– Kiyimni nima qilasiz, bemor? – dedi ajablanib hamshira.

Guzarga chiqib kelaman, bir soatgagina...



- Qanaqa qiliq bu, bemor! - dedi zahrasi uchgan hamshira - Tinch yoting. Vrach hali tashqariga chiqishingizga ruxsat bermaydi.

- Tuzukman-ku. Soqolni oldirib kelay. Qarang, axir, maymunga o'xshab ketdim-ku...

- Hechqisi yo'q, biron sizni kuyov qilmoqchi emas, - deb hazil qotgancha hamshira chiqib ketdi.

Ne'matjon umidi uzilib, karavotiga tap etib o'tirdida, o'ziga ortiqcha yuk bo'lib turgan soqolini tutamlagancha, sal fursat xayol surdi. O'zicha bir nimani ahd qilib qo'ydi-da, o'rniga cho'zildi.

Mavluda xola, bezovtalanib ihrab yuborgan Kabir otaga qoshiqda suv ichirib, uni goh o'ng, goh chap qo'lida yelpishga tushgandi.

Kechga yaqin Ra'no keldi. Kursidan yiqilay deb to'kilib o'tirgan onasini bir nima deb koyidi. Mavluda xola kasalxonaga kelishini qiziga bildirmagan ekan. Ra'no onasining: «O'tdingmi, qanaqa o'tding?» degan savoliga, «o'tdim-da», deb dudmol javob qildi-yu, uni qo'ltig'idan suyab koridorga boshladi. Ne'matjon ularning ketidan chiqdi. «Oyingizni o'zim mashinaga o'tqizib kelaman», deb Ra'noni qoldirdi-da, xolani yetaklaganicha hovli tomonga yurdi...

Ne'matjon, bir soatcha o'tib, qosh qoraya boshlaganda lip etib derazadan o'zini palataga urdi. Uning soch-soqollari olinib, butunlay yosh, ixcham, yoqimtoygina bir yigitcha tusiga kirgan edi, Tag'in hamshiradan baloga qolmayin deb, karavotiga uzala tushdida, choyshab bilan yuzini bekitib oldi. Lekin uzoq yotolmadi. Guzardan eshitib kelgan gapi qulog'idan ketmadi. Ne'matjon soch oldira turib, sartaroshni gapga solgan edi. Sartarosh Kabir otani, uning o'g'lini yaxshi tanirkan. O'tgan hafta Zarifjon soch





– Bu nima? Qayerdan?

– O‘qing. Chaqiruv qog‘oz. Militsiya boshqarmasi-ning bolalar bo‘limidan. Shoshilinch.

Opaning ixcham yelkasi uchib, ko‘z qorachiq-lari kengayib, peshonasi tirishib ketdi. Shartta konvertni ochib, xatga tikildi.

– Ehe, jiddiy gapga o‘xshaydi-ku, – dedi oxiriga yetmayoq Ubaydullayeva. – Kechirasiz, hozir meni sinfda kutishyapti. Darsdan so‘ng uchrashaman...

Hamida opa darsni qanday o‘tkazganini bilma-di. Ko‘zi bolalarda-yu, xayoli xatda – to‘qqizinchi sinf o‘quvchisi Turg‘unning nojo‘ya qilmishi haqida-gi shum xabarda. Opa hayajonini sezdirmay, o‘zini qo‘lga olishga harakat qilar, o‘tgan darsni qaytarib, o‘quvchilarga savol berar, ammo o‘quvchilarning ja-voblari qulog‘iga kirmasdi. Ko‘pni ko‘rgan bu dono, sezgir, bilimdon pedagog o‘zining salkam yigirma yil-lik tajribasida ozmuncha tashvish-hayajonli kunlarni kechirmadi, bola tarbiyasining ozmuncha mushkulla-riga duch kelmadi. Ularning barini osoyishta, vazmin-lik bilan kechirib kelgandi-ku, nima uchun bugungi voqeadan shunchalik iztirobga tushmasa? U kechirib kelgan voqealardan bunisi boshqacharoq, sharman-daliroq bo‘lgani uchunmikin? U xatga yana bir ko‘z yugurtirdi. «Avval tagiga yetishim kerak, bunchalik emasdir...» U Turg‘un o‘tiradigan bo‘sh o‘ringa qarab, atayin so‘radi:

– Akbarov ko‘rinmaydimi?

– Bugun kelmadi.

– Bilmaysizlarmi, nima uchun kelmadiykin?

Bolalardan sado chiqmadi. «Ehtimol hali xabarleri yo‘qdir. Bilmay turganlari ham ma‘qul», derdi ichida opa.



U darsdan chiqiboq, sinf rahbari Asror Yunusovni chaqirtirdi. Oqsoqlanib yuradigan, lo'ppigina basharasini ajin bosgan odam qo'li ko'ksida kirib kelarkan, opaning avzoyini ko'rib, xavotirga tushdi. Odatda direktor Asror akani ko'p qatori «domla» deb ataguvchi edi, hozir esa rasmiy tusda:

– O'tiring, Asror Yunusovich, – deb stolga taklif etdi-da, uning oldiga xatni qo'ydi. – O'qing...

Domla xatni o'qirkan, ko'zlari ola-kula bo'lib, o'rnidan turib ketdi.

– Yo'q, bu mumkinmas, Hamidaxon, hech aql bovar qilmaydi!

– Menimcha, Asror Yunusovich, militsiya haqiqat qilmay turib bekorga da'vo qilmasa kerak! Qarang, o'quvchingiz qilgan bezorilikning vaqti-yu joyigacha aniq ko'rsatilgan. Guvohlargacha...

Chindan xatni sinchiklab o'qigan odam undan biron kemtik topolmasdi. Domla o'zini qo'yarga joy topolmay qoldi. Bir yoqdan o'smir bolaning taqdiridan g'am yesa, ikkinchi yoqdan o'zi rahbar bo'lgan sinfning, butun maktabning sha'niga tushadigan dog'ni o'ylab tashvishga botardi.

– Endi nima qildik, Hamidaxon? – dedi domla boshi gangib.

– Dastlab bu qilgulikning sabablarini aniqlashimiz kerak, Asror Yunusovich. Sizdan bir-ikki narsani bilmoqchiydim: Turg'unning o'qishlari, xulq-atvori to'g'risida...

– Mana maktabimizga kelganiga salkam bir yil bo'lgan bo'lsa, – dedi domla o'ylab olib, – uncha o'zgarish ko'rinmadi. Aksari baholari o'rta. Zehni durust-ku, ammo dars tayyorlamaydi. O'qituv-



chilarning savollariga javob bermay, bez bo'lib turaveradi.

- Nega bunaqaligining sababini surishtirmadingizmi?

- Sababi... Avvalo sho'xligi, o'yinqaroqligi bo'lsa, keyin uyida dars tayyorlashga sharoit yo'q ko'rinadi. Buni nimadan bilding desangiz, o'tgan oyda edi, shekilli, Turg'un darsimda mudrab o'tirdi. «Nima uchun mudraysan, kechasi uxlamadingmi?» desam, bolalar oldida javob bermadi. Darsdan so'ng olib qolib so'rasam: «Kecha dadam gap beruvdila, yarim kechagacha mehmon kutdik», dedi. Turg'un boshqa darslarda ham mudraganini o'qituvchilar aytishuvdi.

- Bundan keyin darrov ota-onasini chaqirtirsangiz bo'lmasmidi?

- Chaqirtirdim, ikki marta. Kelishmadi.

- Unda o'zingiz uyiga borsangiz bo'larkan.

- Bormoqchi ham bo'luvdim-u, bolaning o'zi «ikkinchi bunday qilmayman», deb ishontirdi-da meni.

- Sizga o'rgatguligi bormi, tajribali pedagogsiz. Darrov og'riqni oldini olish kerak edi-da. Pasod boylamasdan. Muni kutmovdim, Asror Yunusovich. Agar turmushning achchiq-chuchugini totmagan yosh bir muallim shunday qilsa boshqa gap edi. Ochig'i, sovuqqonlik o'tgan sizdan, ha, beparvolik.

Umrida hech qanaqa tanbeh eshitmay, doim izzat-hurmatda bo'lib kelgan domla, birov bexos turtganday qalqib tushdi. Qattiq o'kinch bilan:

- Baraka topkur, singlim! Bu ishimni faromushxotirlik deysizmi, sustkashlik deysizmi, nima desangiz deng-u, parvosizlik demang! Parvosizlik o'z ishini sevmagan odamda bo'ladi. Agar ishimni sevmasam, butun umrimni shunga bag'ishlarmidim, keksaygan-



da ham shu nogiron oyoq bilan sudralib yurardim. Shukur, bola-chaqalardan tinganman, allaqachon pensiyaga chiqib, tinchgina uyda o'tiraversam bo'lmasmidi. Axir maktab mening o'z uyim, bolalar farzandlarim bo'b qolgan, azbaroyi shulardan ko'ngil uzolmaganimdan ishlab yuribman. Biron bola nojo'yalik qilsa, darsini o'zlashtirolmasa, jonim achiydi. «Ikki» qo'ysam qo'limgina emas, dilim qaltiraydi. Shu choqqacha men ishlagan sinfda maktabga dog'tushadigan hech qanday kor-hol bo'lganmasdi. Turg'un xususida men yanglishdim lafziga ishonib, singlim, – dedi.

Domla astoydil kuyinib gapirganidan rangi o'chib, nafasi siqildi. Goho istisqo kasali tutadigan bu odamning holini ko'rib, opa achindi, grafandan suv quyib ichirdi-da, muloyim:

– Domlajon, bolaning qilmishi uchun nuqul ayb sizda deyyayotganim yo'q, – dedi uni xiyol tinchlantirib. O'zim ham maktabda qancha ishlab bunaqa voqeaga endi duch kelishim. Buning sabablarini aniqlab, bolani qutqarishda siz ham bizga yordam bering, demoqchiman-da, xo'pmi?

– Qo'limdan kelganicha, – dedi o'zini sal bosib olgan domla.

Opa, shu soatda militsiya bo'limiga, domla esa Turg'unning uyiga borib keladigan bo'lishdi... Kechga yaqin Hamida Ubaydullayeva maktab ota-onalar komitetining raisi, mahalla oqsoqoli Bosit otani boshlab Akbar polvonning uyiga bordi. Kattakon ko'k temir darvoza orqasidan xotin kishining yig'i aralash shang'illagani, erkak kishining esa bo'g'ilib so'zlagani eshitildi. Oqsoqol eshikni taqillatarkan, ichkaridagilar jim bo'lishdi. Eshikni ochgan daroz, mo'ylovdor o'rta



yosh kishi kutilmagan mehmonlarni ko'rib, shoshib qoldi. Mehmonlarning taklif kutmayoq hovliga kirib kelishlari, hovli o'rtasida qaqqaygan xotinning ko'z yoshini artib ulgurmagani polvonni battar xijolatga soldi.

– Kunduzi maktabga chaqirtirgan edik, bormadinglar. Aytmasdan kelaverdik, uzr endi, – dedi Hamida opa. Ko'rishishdi. Bafurja gaplashish uchun kelishganini payqagan uy egalari ularni gulzor o'rtasidagi shinam, hashamdor, baland shiyponga taklif etishdi. Qubba shaklidagi serkungira bu shiyponning burchaklariga sa'va, to'tilar solib rang-barang shokilali jajji qafaslar ilib qo'yilibdi. Uy bekasi xontaxta atrofiga beqasam ko'rpachalar yozib, mehmonlarni o'tqazgach, uchastka to'ridagi oldi ravonli uyga kirib ketdi-yu, ko'p o'tmay kattakon gardin patnida meva-cheva ko'tarib chiqdi. O'ttiz beshlarga borar-bormas bu suluv juvonning harakatlariga razm solgan Hamida opa: «Nihoyatda oyoq-qo'lli ekan», deb qo'ydi. Juvonning bir lahzada sochi-yu gajagini tarab, so'lkavoyday tilla ziragini taqib, usti-boshini kelinlarday o'zgartirib chiqqani ajablanarli edi: «Tavba, o'ziga oro berish qanday ko'ngliga sig'di-a?...»

Akbar polvon ham xotini ketidan ergashib, mehmon kutish taraddudiga tushib qolgandi. Bosit ota chaqirdi.

– Ovora bo'lmanglar. Biz mehmondorchilikka kelganimiz yo'q. Bu yoqqa chiqinglar, ozgina gapimiz bor. – Er-xotin biri choynakda choy, biri likopchada uzum ko'tarishib shiyponga chiqishgach, oqsoqol davom etdi. – Bolangizga tushgan tashvishni eshitib, ko'p xafalandik. O'g'ilchangiz... nima bo'lib militsiya qo'liga tushib qoldi, o'zlaring bilgandirsizlar?..



Akbar polvon pinagini buzmasdan:

– Men bolalar boʻlmasiga uchrashib keldim. Nidaday narsani tuyaday qilib yuborishibdi, azamatlar. Goʻyoki mening oʻgʻlim ichkilik ichib mushtlashgan-mish. Ona suti ogʻzidan ketmagan bolaga ichkilik ichishni kim qoʻyibdi. Aqlga sigʻmaydigan... – dedi.

– Butun gap shunda-da, polvon aka, – dedi uning gapini boʻlib Hamida opa, – maktab bolasi shaʼniga nomunosib narsa bu. Ammo, mana, oʻqib koʻring, boʻlgan voqeani aniq-taniq qilib yozib qoʻyibdi-ku...

Polvon xatga eʼtiborsizgina koʻz qirini tashladi-da:

– Boʻlmagan gap, opajon, koʻpirtirishgan, – deb qoʻydi.

– Shamol boʻlmasa daraxtning uchi qimirlamaydi, polvon. Undan koʻra siz oʻylab olib ayting, bolangizda mabodo uydami, koʻchadami ichkilik ichish odati boʻlmaganmidi?

– Yoʻq! – dedi polvon kesib.

– Har kimniki oʻziga, oy koʻrinadi koʻziga! – Opa kinoya qildi. – Unday boʻlsa, polvon, oʻgʻlingiz menga yolgʻon gapiribdi-da. Men ham bolalar boʻlmasiga borib, u bilan gaplashdim. U uyalib-qiynalib boʻlsa-da, ichkilik ichganini boʻyniga oldi. Hammasini aytib berdi: qayerda, kim bilan ichganigacha... – Hamida opa qizishib buyogʻini aytvoray degan yerida, yana polvonning oʻz vijdoniga tashladi, – siz boʻlsangiz, betga aytganning zahri yoʻq, behuda oʻjarlik qilib, bor gapni xas-poʻshlab ketmoqchisiz. Oʻjarlikdan foyda yoʻq. Militsiyadagilar baribir bu voqeaning tagiga yetadi, bosh sababchisini aniqlab, maʼsuliyatga tortmaguncha bolani qoʻyib yubormaydi. Bolangiz tezroq qutulib, ish bosdi-bosdi boʻlgani tuzukmi, yoki...



- Ayta qolmaysizmi, dadasi! - deb ho'ngrab yubordi juvon, yakka-yu yolg'iz bolasining uzoq yotib qolishidan cho'chib. Polvon xotiniga yeb qo'yguday o'qraydi. Biroq, xotin parvo qilmay, kecha uyga polvon ishlaydigan avtobaza boshliqlari kelgani, mehmonlardan biri mast holda Turg'unni yoniga chaqirib, qo'yarda-qo'ymay yarim stakan ichkilik ichkizvorganini aytib berdi. Lekin mehmon stakan tutganda, qizishib turgan polvonning: «Akangni qo'lini qaytarma katta yigit bo'b qolding, o'g'lim. Sen ham shu akangday boyvachcha bo'b yurgin!» deganini aytmadi.

Polvon xotining gaplarini tan olmadi va «balki ko'chada ichgandir» deb turib oldi.

- Unday bo'lsa pulni qayerdan olgan? - dedi Hamida opa.

- O'rtoqlari olib ichirishgandir-da.

- Kechirasiz, polvon aka! Militsiya bo'limidagi aktda ko'rsatilishicha, Turg'un bog'da o'rtoqlari bilan ichishib, o'zi olti so'm to'lagan, cho'ntagida yana uch so'm pul qolgan. Xo'sh, bolaning yoniga shuncha pulni kim solib qo'yan?

- Sendan olganmidi? - deb polvon xotiniga ko'z qadadi.

- Voy, nega? O'zingiz mehmonlarga ichkilik olib kelgin deb berdingiz-ku, o'shandan ortgandir-da.

- Bekor! Bolani pulga o'rgatib, rasvo qilgan o'zing! - deya jerkib soldi nolvon.

- O'zingiz! - dedi ho'ngrab yig'larkan juvon.

- Hoy, qizim, «butun ayb otasida, men oqman», deb katta ketmang. Bu safar ham yig'i bilan qutulaman deb o'ylamang. O'tgan yilgi hangoma esingizdan chiqdimi? Sizning xabaringiz yo'qdir-a, singlim, bola narigi maktabda edi, - deb Bosit ota Hamida



opaga qaradi, – Turg'un onasi bilan bozorda mevafurushlik qilib qo'lga tushgan, onasi dod-voy bilan yon qo'shnilar va mahalla oqsoqoli nomidan iltimosnoma yozdirib, bolasini oqlab olgan ekan. – O'shanda ko'ra-bila turib kelishuvchilik qilgan edik. Endi unaqa yo'l bilan yoningizni ololmaymiz, bilib qo'ying, qizim... Ishqilib bozor barham yeganmi, yo haliyam?..

Juvon yerga qarab boshini sarak-sarak qildi. Polvon, «yolg'onchi» deganday xotiniga ko'z qirini tashlab qo'ydi.

Bosit ota, «hozircha yetar», deb Hamida opaga imo qildi. Opa Akbar polvon bilan xotiniga do'stona maslahat tarzida uqdirdi;

– Sizlarning bolangizga joningiz qanday achisa, biz ham shunday achinyapmiz. Axir bolaning g'am-tashvishiga teng sherikmiz-da, sizlar bilan. Shu sababli ham ochiqcha gaplashsak gapimiz yerda qolmas, deb keldik. Maslahatimiz shuki, er-xotin hozirgi bo'lgan gaplarni xo'b mag'zini chaqib, bir fikrga kelinglar. Ertaga ota-onalar komitetining yig'ilishiga qatnashinglar-da, bor gapni ochiq aytinglar. Shundan keyin ota-onalar komiteti nomidan militsiyaga iltimos bilan borsak, iltimosimizni yerda qoldirishmas. Nima deysizlar shunga?

Juvon «mayli» deb qo'shilsa ham, polvonning «xo'p» deyishga bo'yni yor bermadi. Buni ko'rib Bosit otaning zardasi qaynadi:

– Otdan tushsangiz ham egardan tushgingiz kelmaydi-da, polvon! Yaxshi maslahatga yurmasangiz, unda bizdan himoya kutmang, bo'пти!

Ular xayrlashmasdanoq chiqib ketishdi. Yo'lda halloslab kelayotgan Asror domlaga duch kelishdi.

– Ha, domla, polvonnikiga kelib qolarsiz deb edik, daragingiz bo'lmadi.





– Ha, kechikdim. Shu bolalar tashvishi bilan. Uyga bir odam kelib qoldi. Eski tanish. Narigi maktabning xo'jalik mudiri. Turg'un bilan mushtlashgan bola uning o'g'li ekan. Bolasining bir ko'zi shikastlanganmish. Juda avzoyi buzuq, da'vosi katta: «Menga o'sha bezori o'quvchingizning otasini topib bering. Zo'ravonlik qanaqa bo'lishini unga ko'rsatib qo'yay!» dedi. Mendan Akbar polvonning uyini, ishxonasini so'rab oldi. Qarasam, hoziroq boradigan. Tag'in achchiq ustida, bolalar bu yoqda qolib, otalar yoqa bo'g'ishib qolmasin deb qo'rqdim. «Shaytonga hay bering, birodar. Jahl chiqqanda aql ketadi. Oldin mundoq tagiga yetaylik-chi, ayb kimda. Direktor opaning o'zlari bu ishni ketiga tushdilar. Aniqlab bo'lganimizdan keyin gaplashamiz. Sabr qilib turing ikki kun», deb zo'r-bazo'r bosib qo'ydim. Ha, yana uning aytishicha, Turg'un narigi maktabdalik vaqtida ham militsiya qo'liga tushib chiqqan ekan. «Bizning maktabda otning qashqasiday bo'b qoluvdi. Bolalardan dakki yeyavergandan so'ng, uyim uzoq, degan bahona bilan sizlarning maktabingizga o'tib ketgandi», deydi.

– Uni qarang-a, domlajon. Bitta o'quvchingizda shuncha gap bor ekan-u, siz bilan biz bexabarmiz. Buni nima desa bo'ladi?

Domla Hamida opaning ma'noli boqib turgan ko'zlariga qarab, ertalab maktabda o'tgan ko'ngilsiz suhbat xayolida jonlandi-da:

– Nima desangiz bo'laveradi, – dedi u ham tagdor qilib.

Direktor, ertaga Akbar polvon bilan xotini ishtirokida ota-onalar komitetini chaqirmoqchi bo'lganini aytdi.



– Komitet yig'inida ota-ona bilan o'qituvchining bola tarbiyasidagi mas'uliyati masalasini o'rtaga tashlasak. Bor gapni ochib solsak, o'zimiz yo'l qo'ygan xatolarni ham yashirmasak. Hammaning ko'zi ochilsa. Nima deysiz, domla? – Opa domlaga sinovchan tikildi. – Shu masalada birinchi ma'ruza qilishni kimga topshirsak ekan-a?

Domla o'ylana-o'ylana, oxiri;

– Bo'pti, bu vazifani men bajara qolay, – dedi dildan chiqarib.

1976

## RASHIDNING SARGUZASHTI

**X**uddi qattiq zilzila bo'layotganday, hammalari bir qalqib tushishdi. Hammadan ko'ra Sanobar opa-ning hayajoni ortiq edi.

– Osmondan tushdingmi, yerdan chiqdingmi, sen battol! Afti angoringni qara, go'laxdan chiqqanday tasqara bo'b ketibsanku, ko'r bo'lmagur! Qani kuydirgan kalladay ishshaymasdan bu yoqqa o'tir! – Anchadan beri oyisiga tutqich bermagan Rashid, hozir ham hushyorlikni yo'qotmay, ehtiyot uchun eshikni kattaroq ochib kirgandi. Yigitlarcha kalta qirqilgan qo'ng'iz mo'ylovini silab, iljayib o'tirgan dadasiga ko'zi tushgach, yuragi dadillandi. Oyisi esa jahl bilan uning qo'lidan tortgancha, o'z yoniga o'tqazdi. U qulog'i-yu bu qulog'idan cho'za ketdi. – Qayerlarda sang'ib yuruvding-a, yer yutkur.

Rashidning quloqlari sholg'om bo'lib lovillar, joni achiganidan tiliga so'z kelmas, yig'lamoqdan beri bo'lib dadasiga mo'ltirarkan, buni ko'rib o'zicha xumordan chiqqan Farida:



– Ha, shayton, qo'lga tusharkansan-ku! Yig'lo-miydi kal-kal!.. – deb kalaka qilardi.

– Bo'ldi endi, yetar! – deb buvisi o'rtaga tushdi. Rashid alam ichida o'ylardi: u shunday bir bahona topsinki, uydagilarning hammasi darrov uni kechira qolishsin, kechirishginamas, unga qoyil ham bo'lishsin. Ha har vaqtdagiday hozir ham miyasi yashin tezligida ishlab, tiliga shu gap keldi:

– Meni hadeb qiynayvermang, oyijon. Yurgan bo'lsam foydali ishlar bilan yurdim...

Sanobar opa uning gapini bo'ldi:

– Bekorlarni aytibsan! Yaramaslarga qo'shilib boshing oqqan tomonga og'ib ketaverasan!

– Aldamchi, to'polonchi, bezori! – oyisiga qo'shilishdi Farida.

– Bas, bas! – dedi kaftini stolga urib Nurmat aka. Shovqin bosilgach, davom etdi: – Bugun hammamiz yig'ilganmiz, jamoat jam. Oilamizning yig'ilishini o'tkazsak bo'ladi. Yig'ilishga rais kerak. Kimni rais qilib saylaymiz?

Nurmat akaning bu kutilmagan g'alati savoliga Farida piq etib kuldi. Boshqalar ham hayron bo'lib kulgilari qistab turishganda, kampir:

– O'zing-da, bolam! – deb qo'ydi.

– Baringiz shunga rozimisiz? Unday bo'lsa shartim bor: raisning ruxsatisiz hech kim churq etmaydi. Birinchi so'z Rashidga. Dastlab sen yuz-qo'lingni yuvib, kiyimingni o'zgartirib kir. Yig'ilishga chinni-day bo'lib kelinadi.

Rashid, uning ketidan buvisi dahlizga chiqishar ekan, Nurmat aka xotini bilan qizini ogohlantirdi:

– Hadeb dakki beraver manglar. O'zi keyingi kunlarda necha chiyiriqqa tushib, xo'pam ta'zirini yeb



kelgan. Yo'lda odamlardan eshitib olganman. Qani so'rab ko'raylik-chi, ochig'iga ko'chadimi yo meni ham aldaydimi?..

Yuvinib, yap-yangi ko'ylak-ishtonini kiyib, o'siq sochlarini naridan beri o'ng chakkasiga taragancha Rashid qaytib kirdi.

– Ana endi eshitamiz. Qani, ayt-chi, sen uying-dagilarga bildirmasdan, barimizni xavotirga solib, nima ishlar qilib yuribsang?

Rashid go'yo majlisda so'zga chiqayotgan odam-day tomog'ini qirib, o'zini kulib yuborishdan arang to'xtatib oldi-da, ko'zlarini alang-jalang qilib, boshladi:

– Birinchidan...

– Birinchidan – g'oz turilsin, ikkinchidan – shift bilan devorlarga alanglamay, raisga qarab so'zlansin!..

– Xo'p bo'ladi... Men yangi o'quv yiliga tayyorgarlik ko'rib, allaqayoqlardan kitoblar olib keldim...

– Innaykeyin-chi?

– Innaykeyinmi, ha... Buvamning suratlarini topib keldim.

– Qanaqa surat? Qani?

– Anavi darsxonamda...

Majlis tartibi buzilib, hammalari, rais ham gurra o'rinlaridan turishdi. Darsxonaga o'zlarini urishdi. Ana, stolchadagi dasta kitoblarga tiralib bir parcha sarg'ayib ketgan surat turibdi. Hammalari unga yopirilishdi. Jangchilar orasida, yaxtak ustidan enli kamar taqib olgan, otning jilovini tutgan odam bularga qarab turibdi. Shu Rashidning bobosi bo'ladi. Uydagilar unga butun diqqatlarini berib tikilisharkan, o'z ko'zlariga ishongilari kelmasdi. Chunki bundan qirq-ellik yil burun qancha ish ko'rsatib odamlar og'ziga



tushgan bobo hali juda yosh. Rashidning adasiday ko'rinardi. Ha, uning qo'ng'iz nusxa mo'ylovi ham, qosh-ko'zlari, qirra burni, jilmayib turishlari ham o'g'lining o'zginasi. Kampir beixtiyor oriq qo'llari bilan suratni tutib ko'z oldiga yaqinroq keltirdi va ko'kragiga bosib, chuqur xo'rsindi.

– Buni qayerdan olding, o'g'lim? – dedi endigina o'ziga kelgan Nurmat aka.

Rashid, buni bobosining qadrdoni Omonulla maxsumdan vaqtincha so'rab olganini aytdi.

– Omonulla maxsumni qayerdan topding, uni kim tanitdi senga? – dedi adasi taajjubi oshib.

Rashid Rustam bilan birgalashib, Omonulla maxsumni qanday topganini, u bilan sug'batlarida bobosi haqida bilib olganlarini so'zlay ketdi. Nurmat aka o'g'lining bu harakatlari «Gulxan» jurnali topshirig'ini bajarish uchun bo'lganini bilib olgach, boshini sarak-sarak qilib:

– Eh, lodon, mendan so'rasang-u, bobong to'g'risida qancha narsa aytib berardim. Shunga shuncha ovorayi sarson bo'lib yurishingning hojati yo'q edi.

– Sizing vaqtigingiz bo'lmasa, doim yo'lda yursangiz, – dedi Rashid o'zini oqlab.

– Hoy mahmadana, adang yo'lda qishlab qolar-midi. Kuta qolsang bo'lasmidi, har yoqqa bosh urmay boshvoqsiz o'lmagur, – deya oyisi yana qarg'absiqtadi.

Nurmat aka yana ichidan zil ketdi: «Oyisining zorillaganicha bor. Unga bo'yin egadigan bola emas. Chindanam ko'p vaqt safarda yurib, o'g'ilcha bilan shug'ullanishga fursat bo'lmayapti. Bola «boshvoqsiz» qolib, o'zi bilgan noma'qulchiligini qilyapti, istagan ko'chasiga kirib ketyapti. Bu ketishida oqibat nima

bo'ladi? Keyingi pushaymon o'zingga dushman, deganlar...»

Nurmat aka suratni joyiga qo'ydi. Oila a'zolarini katta uyga boshlab, joy-joylariga o'tqazdi. Endi tishining oqini ko'rsatmasdan, iloji boricha jiddiy tus oldida, raislikni davom ettirdi:

- Senga ishonsak bo'ladimi, Rashid?

- Albatta.

- Xo'p qani, vijdonan aytgin-chi, men yo'g'imda yana nima balolar qilding?

Rashid adasini birinchi marta shunday jiddiy qiyofada ko'rishi. «Demak, ishing chatoq, Rashidvoy. Ochig'iga ko'chmasang bo'lmaydi, shekilli...» Keyingi hafta u shunchalik ko'p tentiradi, shunchalik ko'p bo'lar-bo'lmas hodisalarni kechirdiki, bular miyasida ayqash-uyqash bo'lib ketdi. Kalavasining uchini yo'qotib, gapni qayerdan boshlashni bilmay, serrayganча turaverdi. Adasiga bu terslik, qaysarlik bo'lib ko'rindi.

- Ha, qilg'uliklaringni mendan yashirib ketmoqchimisan? Yashirib bo'psan. Bozorlarga nima uchun aylanishding-u, kimlarga qo'shilib yurding? Militsiya idorasiga qanaqa qilib kirib qolding? Marg'ilonga kim, nega yubordi seni, a?

«O'ho', adamdan hech gap qolmabdi-ku. Kimlardan eshitdiykin-a, bularni?...»

O'g'lining gung bo'lib yer chizib o'tirganiga chidolmagan Sanobar opa pishqirdi:

- Adang yo'g'ida bulbuligo'yo bo'b sayrarding-ku, qani gapirmaysanmi, tilingni qarg'a cho'qimagur!

Shundoqqina biqiniga tiqilib o'tirgan oyisi xuddi tarsaki qo'yib yuboradiganday, Rashid o'zini chetga



surdi. G'o'ldirab tilga kirdi. U nimaiki qilgan bo'lsa, nuqul to'g'ri ko'ngilda qilganini aytib turaverdi.

– Xo'p, men yo'q ekanman, oying shu yerdaydi-ku. Nima uchun qilgan ishlaringni unga aytmayсан, undan ruxsat so'ramaysan? Gapir!

– Baribir ruxsat bermasdilar, – dedi g'uldirab Rashid.

Ha ovozing o'chmagur!.. – Sanobar opaning tag'in jag'i ochilib ketgan edi, shu chog' eshikdan ikki bukilib, quyuq salom berib, bir xotin kirib qoldi. Boshdan oyoq xonatlasga burkangan, tilla tishlari-yu tilla bilakuzuk va ziraklari cho'g'day yarqiragan, qo'ltig'ida tugunchasi bor bu gajakdor satang xotin Rashidni ko'rib, rangi o'chdi. Rashid uni tanidi: Javlonxo'janing kichik xotini.

Sanobar opa mehmonga darrov joy ko'rsatdi va piyolada choy tutdi. Hammalari: «Xizmat, mehmon?» deb unga tikilib turisharkan, mehmondan sado chiqmadi. Rashidga qarab ikkilanardi. Nurmat aka imo bilan o'g'lini chiqarib yuborgach, mehmon tilga kirdi:

– Uzr, o'rguliy-la. Bemahal kelib bezovta qildim. Azbaroyi noilojlikdan, aylana qoliyla...

Xotin chaynala-chaynala, oxiri maqsadga ko'chdi: qamalib yotgan erini qutqarishda yordam so'rab qolibdi. Butun gap Rashidda emish. Ota-onasi Rashidni yo'lga solishsa, Rashid tergovchiga borib, bir og'iz gap aytsa, mushkullari oson bo'larmish.

– Rashidning qo'lidan qanaqa ish kelarkan? Uning nima aloqasi bor, bu ishingizga, mehmon?

Xotin, allaqanday mushuklar haqida so'z ochdi: ichiga o'n ming so'mdan pul solingan ikki o'yinchoq mushuk. Buni Rashid Javlonxo'janikidan o'marib kelib, militsiya idorasiga topshirganmish. Agar Rashid:



«Bu mushuklarni ko'chadan topib oluvdim», desa, mahbusning ishi ancha yengillasharmish, qutqarishga yo'l ochilarmish.

Bu aqlga sig'mas so'zlar uydagilarni hang-u mang qilib qo'ydi, ular xotinga ag'rayib qolishdi: tag'in bu boyvuchcha aqldan ozgan emasmikin?

Yo'q, aqldan ozgan emas ekan. Bularga o'zini juda yaqin olib, ochilib-sochilganча yalinib yalpog'landi va so'zining ketini pishiqladi:

– Qo'shni mahalla, ota qadrdomimiz. Haddim sig'ganidan, iltimosimni qaytarmaysizlar deb keldim, o'rgula qoliyla, biz ham yaxshilikni biladigan odamlarmiz, – dedi-da, qo'ltig'idagi shohi ro'molga o'ralgan buyumni asta stol o'rtasiga surib qo'ydi.

Juvonning kimligini endi yaxshi bilib olgan Nurmat akaning tishlari g'ijirlab ketdi va buyumni egasi oldiga itardi-da:

– Bu o'zingizga siylov, mehmon, – dedi og'ir botmaydigan qilib. – Siz aytgan voqea ancha chigal ko'rinadi. Bilar-bilmas aralashsak, buzib qo'yishimiz mumkin. Yaxshisi, Rashidning o'zi bilan suhbatlasha qoling...

Hovlida yurgan Rashid adasining tovushini eshitgan zahoti deraza yaqiniga keldi. So'ng oyisining so'zini baralla eshitdi:

– Shunaqa, singilxon, o'g'limizning qilgan ishidan biz tamoman bexabar bo'lsak, nimayam deya olardik. Innaykeyin o'g'limiz bizdan so'rab ish qilmaydi. Ha desa katta bo'lib qolganini pesh qilib, o'z biyligi o'zida bo'lib qolgan...

Sanobar opaning bu so'zlarida o'g'lini yerga urishdan ko'ra, ko'tarish ko'proq sezilib turardi. «Bizning





oyi malades. Endi menga ishonadigan bo'пти. Bu ham adamning ta'siri-da...»

Satang xotin, suvga tushgan mushukday shalvirab hovliga chiqarkan, Rashidni ko'rib ko'zlarini yalt etib ketdi: Rashid o'zini ancha bosib olgan, xotinning so'roqlariga javob berish uchun chog'lanib turgandi.

– Hoy, bo'ylaringga qoqiy, – dedi xotin tomog'idan nafasi arang chiqib va bisotidagi bor shirin so'zlarini ishga solib. – Mana o'rgulay, oying bilan dadanglardan ruxsat oldim, men bilan yura qolgin, ukajonim...

– Qayoqqa? – dedi Rashid kaftini qisib.

– O'sha mushuklarni topshirgan joyingga...

– Qanaqa mushuklar, xolajon? – dedi Rashid, hech narsani bilmaganday.

– Bizni uydan olib ketganlaringni-chi...

– Uyingizdan?... – Rashid: «Mushuklarni uyda emas, meni qamab qo'ygan hujrangizdan olganman» demoqchi bo'lgan yerida so'zni kaltaroq qildi. – Uyningizdan hech narsa olganim yo'q, xolajon!

Buni u jo'rttaga nayrang qilib aytgan bo'lsa-da, xotinga negadir moyday yoqib tushdi:

– Voy, og'zingga shakar, ukajonim-e! Shu so'zing kerak edi-ya, menga. Shuni borib tergovchiga aytsang bo'lgani...

Rashidga endi aniq yetib bordi xotinning muddasi. Undan tezroq qutulish uchun:

– Hozir juda zarur ishlarim bor. Siz boravering, xolajon. Men o'zim uchrashaman tergovchiga, – deb qo'ydi.

Javlonxo'janing xotinidan silliqqina qutulganiga Rashidginamas, butun oila a'zolari shukr qilib qolishdi...



Nurmat aka otpuskaga chiqdi. Otpuska ichi bu «boshvoqsiz» bolani tuzukkina jilovlab olish uchun astoydil bel bog'ladi. Avvalo Rashidni uyda qattiq band qilish kerak. Ishni «Gulxan»ning topshirig'ini bajarishdan boshlasa-chi? Albatta, bu zarur ham foydali ish bo'ladi. Bobosi haqida yetarli material to'plabdi. Yetishmaganini Nurmat aka to'ldirishi mumkin. Shuni Rashidga aytgan edi, nechundir Rashidning qovurg'asi qayildi. Rustam bilan maslahatlashmoqchi bo'ldi. Ertasi kuni maktabga borganda Rustamga: «Shu maqolani o'zing yoza qolgin», deganida, Rustam jerkib soldi:

– Haliyam sudrab yuribsanmi, lattachaynar bo'lib, «Gulxan»dagilar kutib qolishdi-ku, axir. O'z bobong haqidagi maqolani o'zing yozganing yaxshi-da. Tahririyatga shunday deb aytib qo'rganman!

Rashidning diqqati oshdi. Qanday qilib «Gulxan»day jurnalga maqola yozib berolsin. U necha turli hunar qatori jurnalistlikka ham havas qiladi-ku, ammo havas boshqa, ish boshqa ekan-da. Endigina tushundi buni. «Holva degan bilan og'iz chuchimaydi», deyishgani to'g'ri chiqdi. Umrida hali maktab yo sinf deforiy gazetasiga ham biron narsa yozib do'ndirgan bo'lmasa! Xo'p, bu tashvishdan ham qutulib olish yo'li bormi? Yo'qqa o'xshaydi. Chunki bunga endi dadasi aralashdi. Aralashibgina qolmay, to'g'ridan to'g'ri uni o'tirib ishlashga majbur qilyapti. Kuniga u o'g'lining maktabdan qaytishini poylaydi. Sal kechiksa tergaydi. Biron soat uni o'yinga qo'yib beradi. Ilgari bo'sh qoldi deguncha choyxonaga, klubga yuguradigan Nurmat aka o'g'li tufayli uyga kirib qoldi. Rashidni ko'cha ta'siridan qutqarish va o'zini ham zeriktirmaslik uchun atayin hovliga tennis kel-



tirib o'rnatdi. O'xtin-o'xtin o'g'li bilan tennis yo shaxmat o'ynaydi. O'g'lini temirday qattiq tartib va jadval asosida dars tayyorlatadi, darsdan bo'shagach, «miyangni, kuchingni xo'b havoyi narsalarga isrof qilganing yetar, endi foydali ishga sarfla», maqola yozishga o'tqazadi.

Rashid o'z bo'lmasida muk tushib ishlab o'tirarkan, goh-goh yuragi hapriqib ketadi. Ayniqsa, ko'cha derazasidan bolalarning chuvillashgan ovozlari eshitilganda, «ko'rinmas odam» bo'lib ular oldida paydo bo'lgisi kelib qoladi. Adasi o'tirgan uyga sekin mo'ralaydi. Adasi gazeta, jurnal o'qib o'tirib pinakka ketgan bo'lsa, oyoq uchida «quyon» bo'ladi. Ba'zan buni sezib qolgan adasi: «Egasi ming poylasin, o'g'ri bir poylasin», deb xunob bo'ladi, ko'chadan Rashidni indamay-sindamay yetaklab keladi-yu, darsxonasiga kiritib, ustidan tambalab qo'yadi. Xullasi, Rashid uchun ko'p azobli kunlar keldi. Javlonxo'janing hujrasida qamalib yotganidan battar bo'ldi bu. Qachon adasining ta'tili tugaydi-yu bu «azob»dan qutuladi. Adasi yiliga otpuskasida u yoq-bu yoqqa dam olgani ketguchi edi. O'tgan yili oyisini ham olib ketgandi. O'shanda Rashid uchun to'la ozodlik kunlari bo'lgan, xo'b miriqqan ekan, hozir juda qadri bilindi-da.

Xullasi, Rashid qancha qiynalib bo'lsa-da, maqolani bitkazdi. Unga «Mening bobom» deb sarlavha qo'ydi, adasiga o'qitib tuzattirdi-da, tahririyatga pochta orqali yubordi.

Oradan ikki hafta o'tgach, uyga Rashidni so'rab bir yigitcha keldi. Uni Nurmat aka kutib oldi. Rashid-da nima ishi borligini so'ragan edi. Yigitcha uyatchan ekan, aytolmay turdi.



- Aytavering, tortinmang, ukajon, - dedi Nurmat aka xavotirlanib. - Nima gap, o'g'lim tag'in biron noma'qul ish qilib qo'ydimi?

- Yo'q, amaki, o'g'lingiz yaxshi ish qildi, - dedi yigitcha Nurmat akani xotirjam qilib. U «Gulxan» tahririyatidan kelibdi. Rashid yuborgan maqolani o'qib ko'rishibdi. Maqola juda ma'qul tushibdi-ku, unga ba'zi qo'shimchalar kerak bo'lib qolibdi. - Rashid bobosining faoliyati haqida yaxshi ma'lumotlar keltirgan, qiziqib o'qiladi. Uni bayram sonida bosmoqchimiz. Ammo o'g'lingiz maqolada o'zi xususida hech narsa demabdi-da. So'zsiz jurnalxonlarimizda: bobosi unaqa bo'lsa, nabirasi qanaqaykin, degan savol tug'iladi. Rashidning o'qishlari, ishlarini bilib olishga qiziqishadi. Ana shuning uchun o'tgan haftadayoq Rashidga «bir keling» deb xat yozib yuboruvdik. Daragi bo'lmadi...

- Him, tushunarli, yigitcha, tushunarli, - dedi xavotirdan qutulib Nurmat aka. - Darhaqiqat, maqolaning shuyog'i chala bo'libdi. Rashid xat olgan bo'lsa, nima uchun manga hech narsa demadiykin...

Rashid kelishi bilan adasi tahririyatning xatini so'rovdi, Rashid olganini yashirmadi. Faqat nima deb javob yozishga boshi qotib yurganligini bildirdi.

- Nima deb yozishingni aniq aytdi-ku. O'qishlaring, ishlaring...

Rashid buni yaxshi tushunib turardi. Biroq maqola yozgandan keyin arziydigan narsalarni yozsa tuzuk-da. Qanday qilib «uch» baholari bilan maqtansin. Qaysi bir ishni do'ndirib qo'yibdiki, kerilsin. Yoki «bundan keyin undoq qilaman, bundoq qilaman», deb nuqul va'dalarni ro'kach qilsinmi? Nasiya gap-



ning kimga keragi bor. «Quruq gap quloqqa yoqmas» deganlar-ku...

Rashid o'z bo'lmasida bobosining suratiga tikilib, o'ylarga botdi. Xayolida u bilan so'zlashdi: bilib qo'ying bobojon, nabirangizning ahvolini. Ilgari hech narsani o'ylamasdi. G'am nimadaligini bilmasdi. Ko'nglining ko'chasiga kelgan narsani qaytarmasdi. Hozir-chi, yosh boshiga tashvish ketidan tashvish. Hamma menga tikilgani tikilgan, terlagani terlagan. Kundalik o'qishni o'zini yo'lchitish qancha og'ir-ku, ustiga-ustak siz haqingizda maqola talab qilganlarini ayting. Siz haqingizda yozish qanday mas'uliyatli ish edi. Buning uchun yurak kerak edi. Qilgan ishlaringiz, kurashlaringizning jindakkinasini, o'ndan birini yozib ko'rsatoldimmi-yo'qmi – bilmayman. Shu ham oson bo'lgani yo'q, adam yordam berdi. Koshki bu bilan qutulgan bo'lsam. Qaytaga boshimni g'alvaga qo'ydim. «Qani ayting-chi, Rashidvoy, o'shandoq mashhur bobongizga, ilg'or temiryo'lchi otangizga munosib ish qilyapsizmi-yo'qmi?» deb so'roq qilganlari ortiqcha bo'lyapti! Hammasiga o'rtog'im Rustam aybdor. Eh, Rustam, meni shuncha tashvishlarga qo'ymasdan, maqolani o'zing yubora qolganingda-ku, olam guliston edi-ya!..

1978

## QANDDON

Qo'ziboyning ayasi bugun ishga erta ketdi. Nonushtadan keyin dasturxonni yig'ishda Qo'ziboy buvisiga qarashvordi. Buvisining «Qo'zichoqqinam, toychoqqinam», deb xursand bo'lganini ko'rsangiz edi. Qo'ziboy maqtovdan erib ketdi, yanayam chaq-



qonroq harakat qildi-yu, servantga qanddonni olib qo'yishda qo'lidan tushirib yubordi. Polga sharaq etib tekkan qanddonning qopqog'i ikkiga bo'linib ketdi. Qo'ziboyning kapalagi uchdi. Dami ichiga tushib, sochilgan qandlarni tera boshladi. Buvisi esa: «Mayli xafa bo'lma, bosh-ko'zingdan sadaqa!» deb yupatardi. Qo'ziboy yupanish o'rniga yig'lab yubordi. Nega desangiz bu qanddon unaqa jo'n shisha idishlardanmas, juda chiroyli, jimjima chinni qanddon. Yana rangini aytmaysizmi. Xuddi novvotga o'xshab tovlanib turadi. Buning ustiga ayasi uni o'tgan yili dam olishga borganda olib kelgandi. Ayasidan baloga qoladigan bo'ldi-da. Qo'ziboy goh maktabdan top-toza kiyimlarini isqirt qilib kelar, goh dars tayyorlash o'rniga televizor ko'rishga berilar, gohi o'rtoqlari bilan ko'chada sang'ib, bo'lar-bo'lmasga urishib qolardi. Shunda ayasi, «Sen likkonboz, shumtakaga hech es kiradimi, quloqsizlik qilib qachongacha meni qiynaysan!» deb jerkib qo'yishi bor edi. Ba'zan Qo'ziboyning qulog'ini cho'zmoqchi bo'lsa, o'rtaqa buvisi tushib:

– Qo'y, qizim, ikkinchi munaqa qilmaydi qo'zichog'im, kechira qol! – deb qo'yardi.

Ayasi noiloj kechirardi. «Bu gal kechirmaydi ayam. Buvim ham yonimni ololmaydi», deb xavotirga tushdi Qo'ziboy. Qovog'ini solgancha maktabga ketayotuvdi, buvisi unga:

– Hech g'am yema, qo'zichog'im, ayang bu ishingni bilmaydi. Singani o'rniga yangisi topiladi, – deb qo'ydi.

Buvisining bu gaplari Qo'ziboyni o'ylantirib qo'ydi. «Ayamdan qanaqa qilib bekitamiz? O'rniga yangisi qattan topilardi?» Yo'ldayam shuni o'yladi, sinfda o'tirgandayam shuni o'yladi. Darslar qulog'iga kirma-



di. Darsdan so'ng hech narsaga alahsimasdan uyiga keldi. Shu zahoti servantni qaradi. Voy ana qanddon, o'z o'rnida turibdi! Ko'zlariga ishonmadi u. Qanddonni qo'llariga olib tikildi: o'sha chiroyli, jimjima, novvotrang qanddonning o'zginasi. Qopqog'iyam butun!

– Voy, buvi! – deb dahlizdagi divanda yotgan buvisini cho'chitib yubordi. – Butun qanddonni qattan topdiz?

– Topdim-da. Boshqasi borakan, – deb qo'ydi buvisi.

– Yo'q, buvijon. Ayam kurortdan ikkita opkelgandi. Bittasini qo'shnimiz Nuri opoqiga sovg'a qiluvdi. Yaxshi esimda.

– Qo'yaver, qo'zichog'im, endi qanddonni esingdan chiqargin.

Qo'ziboy hech esidan chiqarolmasdi.

– Qandoq qilib siniq qanddon butun bo'lib qoladi? Ayta qoling, buvijon, kimning ishi bu?

– Bilmadim, balki sehrgarning ishidir...

– I-ya, qanaqa sehrgar?

Hali buvisining ko'zi uyquga ilingan ekan, uyg'onib qarasa, yonida qanddon qopqog'i paydo bo'lib qolganmish. Buni kim qo'yib ketganini buvisi bilolmay hayronmish. Buni eshitgan Qo'ziboyning hayronligi oshdi. Rostdan sehrgar bormikin-a? O'ylay-o'ylay oxiri bir narsa esiga tushdi:

– E, to'xtang, buvijon, Nuri opoqim opchiqib qo'ydimikin-a? Unaqa desam, bizniki singanini qattan biladi? Ha, siz aytuvdizmi-a?

Bunisi mayin iljayib, oppoq sochli boshini sarak-sarak qildi va tayinladi:



– Mayli, qo‘zichog‘im, endi sir o‘rtamizda qolsin. Ayangga aytib qo‘ymasang bo‘lgani. Xo‘pmi?

Qo‘ziboy: «Xo‘p», dedi-da, buvijonining bo‘ynidan mahkam achomlab, burishgan yuzlaridan o‘pib qo‘ydi.

1990

## DO‘MBIRA

Olis tog‘ qishlog‘ida Qurbon baxshi degan yashaydi. Azbaroyi do‘mbirasini yoqimli sayratganidan uni «bulbul» deb ta‘riflashadi. Qishloqdagi biron to‘y-tomosha Qurbon baxshisiz qizimaydi. U do‘mbirasiga jo‘r bo‘lib, bulbulday zavqqa to‘lib sayraganida hammani sel qilib yuboradi. Yoshi to‘qsonga yaqinlashgan-u, do‘mbirasi qo‘ldan tushmaydi, sayrog‘i tinmaydi.

So‘nggi yilda baxshining ko‘zi xiralashdi. Yig‘inlarga bormaydigan bo‘ldi. Ammo kuylashni qo‘ygani yo‘q. Tong pallasi chorbog‘dagi baland supada o‘tirib kuy boshlaganda, uzoq-uzoq dalalargacha taraladi, kishilarning ko‘nglini yayratadi, o‘ziga chaqiradi. Ertalab ham, kechqurun ham chorbog‘dan odam qadami uzilmaydi.

Nima bildi-yu, bir necha kundan buyon «bulbul»ning xonishi o‘chib, boqqa odam kelmay qo‘ydi. Hamma hayron. Qurbon baxshining o‘zi ham kuy olmay xumorda. Chunki uch yoshli nevarasi Davron do‘mbirani “ot” qilib minaman dedi-yu, sindirib qo‘ydi. Buni endi qanday tuzatadi? Do‘mbira ustasi uzoq shaharda, unga kim olib boradi? Baxshi xumori ni yozolmay garang. U bir gal keliniga:





– Oyshaxon qizim, do‘mbirani ustaga berib yubor-  
moqchiydim, shaharga qachon tushasiz? – degan edi,  
kelinga bu gap yoqmadi shekilli:

– Qaydam, – dedi dudmol qilib.

Shundan keyin chol o‘g‘lini qo‘msadi. O‘g‘li safar-  
da edi. Kuniga nevarasi Ozodadan: «Dadang qachon  
keladi?!» – deb so‘raydi. Ozoda aytolmaydi. U ichi-  
da, buvasining do‘mbirasini qanday qilib tezroq tu-  
zattirib berishni o‘ylaydi. Yaqinda bayram. Maktabda  
bo‘ladigan kechaga, har galgiday buvani chaqirish-  
moqchi edi. Ozoda shaharga o‘zim borib kelsammi-  
kin, deb chog‘landi. Oyisidan so‘rasa, ruxsat berar-  
mikin? Berishiga ko‘zi yetmaydi. Bir bahona topish  
kerak. Bahona topildi. Shu orada o‘quvchilar sha-  
harga ekskursiya qilishadigan bo‘ldi. Ozoda oyisiga  
bildirib o‘tirmasdan, do‘mbirani ehtiyotlab o‘rab, olib  
ketdi. O‘rtoqlari bilan qidirib, cholg‘u asboblari us-  
taxonasini topishdi. Do‘mbirani tuzattirib olib keldi-  
da, buvasiga topshirdi. Shunda buvasining xuddi  
o‘lgan odami tirilib kelganday, sevinganidan ko‘zyosh  
qilganini ko‘rsangiz edi!

Ertasi tong chog‘i yangidan o‘sha odamlar dili-  
ga shodlik taratib «bulbul» navosi yangray boshladi,  
yangidan chorbog‘ etagidagi supa odam bilan gav-  
jum bo‘lib qoldi.

Bu holdan ajablangan Oyshaxon, qizidan so‘radi:

–Do‘mbirani kim tuzatib berdi ekan? – Ozoda yel-  
kasini qisdi. Oyisi:

–Besh-olti kungina tinchigan edim. Tag‘in bog‘  
oyoqosti bo‘ldi-qoldi-da, – dedi g‘ijinib.

Ozoda ustidan sovuq suv sepilganday eti uvishib,  
rangi quv o‘chib ketdi.



Keyingi kunlarda ota g'alati qiliq chiqardi. O'f-  
tob qizig'i yoqmaganidanmi yoki boshqa sababdan-  
mi, o'z xonasiga kirib oladi. O'shanda ham kuylashni  
to'xtatgani yo'q. Biroq, qo'lga do'mbirani tutishdan  
oldin xonaning eshiklarini bekitib qo'yadigan bo'ldi.

Endi «bulbul» xonishi bo'g'ilib, uzoqqa eshiti-  
masdi.

Qurbon baxshi nega shunday qildi? Buning saba-  
bini Ozodadan boshqa hech kim bilmasdi.

1969

## MUNDARIJA

Odamning qadri.....	3
Onaizor.....	24
Oqibat.....	31
Quyosh qachon botadi.....	37
Bir tup g'o'za.....	43
Nomi chiqmagan xotin.....	52
Vijdon.....	67
Bahor nafasi.....	80
To'y nega kechikdi.....	92
Yomg'irdan so'ng.....	104
Ko'rmana.....	111
Ota meros.....	115
Girgitton.....	119
Yangi qo'shnilar.....	122
Havorang durracha.....	128
Ko'ngilsiz safar.....	131
Kampirning dardi.....	134
Shoshilinch telegrammalar.....	139
«Kelarmikan, dadajoning?».....	145
Fotima va Zuhra.....	152
Ota.....	155
Ayb kimda?.....	163
Rashidning sarguzashti.....	173
Qanddon.....	184
Do'mbira.....	187

*Adabiy-badiiy nashr*

HAKIM NAZIR

## NOMI CHIQMAGAN XOTIN

*Hikoyalar*

Uchinchi nashri

Muharrirlar:	<i>L. Igamova, B. Akbarov</i>
Rassom	<i>Sh. Xo'jayev</i>
Rassom-dizayner	<i>D. Mulla-Axunov</i>
Texnik muharrir	<i>L. Xijova</i>
Kichik muharrir	<i>M. Salimova</i>
Musahhih	<i>G. Aripova</i>
Kompyuterda tayyorlovchi	<i>N. Ahmedova</i>

Nashriyot litsenziyasi AI № 158. 14.08.2009  
Bosishga 2021-yil 14-aprelda ruxsat etildi. Bichimi 80x100<sup>1/32</sup>.  
Ofset qog'oz. «Cambria» garniturasida ofset usulida bosildi.  
Shartli bosma tabog'i 8,88. Nashr tabog'i 8.59.  
Adadi 5000 nusxa. Buyurtma № 19-605.

«O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi.  
100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.

Telefon: (371) 244-87-55, 244-87-20  
Faks: (371) 244-37-81, 244-38-10.  
e-mail: [uzbekistan@iptd-uzbekistan.uz](mailto:uzbekistan@iptd-uzbekistan.uz)  
[www.iptd-uzbekistan.uz](http://www.iptd-uzbekistan.uz)

**Nazir, Hakim**

N 18

Nomi chiqmagan xotin / Hakim Nazir; to'plab nashrga tayyorlovchi L. Igamova. – Toshkent: «O'zbekiston» NMIU, 2021. 3-nashri. – 192 b. (Hikoyalar xazinasi)

ISBN 978-9943-28-439-5

**UO'K 821.512.133-3**

**KBK 84(50)7**

HAKIM NAZIR

**NOMI CHIQMAGAN XOTIN**

3-nashri

192 bet, 192 ta sahifa

1. Nazir, Hakim. Nomi chiqmagan xotin. – Toshkent: «O'zbekiston» NMIU, 2021. 192 b. (Hikoyalar xazinasi). ISBN 978-9943-28-439-5.	2. Nazir, Hakim. Nomi chiqmagan xotin. – Toshkent: «O'zbekiston» NMIU, 2021. 192 b. (Hikoyalar xazinasi). ISBN 978-9943-28-439-5.
3. Nazir, Hakim. Nomi chiqmagan xotin. – Toshkent: «O'zbekiston» NMIU, 2021. 192 b. (Hikoyalar xazinasi). ISBN 978-9943-28-439-5.	4. Nazir, Hakim. Nomi chiqmagan xotin. – Toshkent: «O'zbekiston» NMIU, 2021. 192 b. (Hikoyalar xazinasi). ISBN 978-9943-28-439-5.
5. Nazir, Hakim. Nomi chiqmagan xotin. – Toshkent: «O'zbekiston» NMIU, 2021. 192 b. (Hikoyalar xazinasi). ISBN 978-9943-28-439-5.	6. Nazir, Hakim. Nomi chiqmagan xotin. – Toshkent: «O'zbekiston» NMIU, 2021. 192 b. (Hikoyalar xazinasi). ISBN 978-9943-28-439-5.
7. Nazir, Hakim. Nomi chiqmagan xotin. – Toshkent: «O'zbekiston» NMIU, 2021. 192 b. (Hikoyalar xazinasi). ISBN 978-9943-28-439-5.	8. Nazir, Hakim. Nomi chiqmagan xotin. – Toshkent: «O'zbekiston» NMIU, 2021. 192 b. (Hikoyalar xazinasi). ISBN 978-9943-28-439-5.
9. Nazir, Hakim. Nomi chiqmagan xotin. – Toshkent: «O'zbekiston» NMIU, 2021. 192 b. (Hikoyalar xazinasi). ISBN 978-9943-28-439-5.	10. Nazir, Hakim. Nomi chiqmagan xotin. – Toshkent: «O'zbekiston» NMIU, 2021. 192 b. (Hikoyalar xazinasi). ISBN 978-9943-28-439-5.

Ushbu kitobning muhuratini o'zgartirish va qayta nashr qilishga ruxsat berilganligi haqida e'lon qilinadi.

Kitobning muhuratini o'zgartirish va qayta nashr qilishga ruxsat berilganligi haqida e'lon qilinadi.

Kitobning muhuratini o'zgartirish va qayta nashr qilishga ruxsat berilganligi haqida e'lon qilinadi.

Ushbu kitobning muhuratini o'zgartirish va qayta nashr qilishga ruxsat berilganligi haqida e'lon qilinadi.

Kitobning muhuratini o'zgartirish va qayta nashr qilishga ruxsat berilganligi haqida e'lon qilinadi.

Kitobning muhuratini o'zgartirish va qayta nashr qilishga ruxsat berilganligi haqida e'lon qilinadi.